MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI**

______________ shahar (viloyat)

______________ tuman “______________” nomli

maktabgacha ta’lim tashkiloti

tayyorlov guruh tarbiyachisining

20[illegible] o‘quv yili uchun

# BAYRAM
# SSENARIYLAR
# TO'PLAMI

NAMUNA

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

________________________shahar (viloyat)

[illegible]____________tuman “_____________” nomli

[illegible]-maktabgacha ta’lim tashkiloti

[illegible]rlov guruh tarbiyachisining

20[illegible]20__-o‘quv yili uchun

## “1-SE[illegible]STAQILLIK KUNI” BA[illegible]GA BAG‘ISHLAB O‘[illegible]N TADBIR

# SSENA[illegible]YSI

NAMUNA

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Endi siz Zokirjon.com veb-saytimiz orqali o‘zingizga kerak bo‘lgan hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga murojaat qilishingiz jek567 izlab telegramga yozishingiz yoki shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz so‘raladi.

**Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi**

172listdan iborat tayyorlov guruhlar uchun bayram tadbir ssenariylarini to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.

**Narxi: 25 ming so‘m**

Telegram kanalimiz:

**@maktabgacha_tt**

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**




**DIQQAT!!!**

**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To‘liq holda olganingizdan so‘ng:**
**Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet orqali veb-saytlarga joylamang.**
**Kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

***Mustaqillik bayram ertaligi.***

Zal bayramona bezatilgan. Bolalar musiqa sadolari ostida kirib kelishadi.

1-boshlovchi:

[illegible]a o[illegible]

[illegible]or[illegible] hurmat

Sh[illegible]n biz [illegible]

Dey[illegible] salo[illegible]



NAMUNA

2-boshlovchi:

Assalomu alaykum, aziz me[illegible]ar v[illegible]i sizlarni mustaqilligimizning 32 yillik to‘y b[illegible]n. Mana mustaqil bo‘lganimizdan buyon o‘z bayrog‘im[illegible]ga, [illegible]limizga, pulimizga va Prezidentimizga ega bo‘ldik.

**Madhiya yangraydi, hamma qo‘li ko‘ksida [illegible] ku[illegible]**

**Sahnaga bir bola bayroq ko‘tarib k[illegible]**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni e’lon qilgan kundan ko‘p[illegible] Respublikamizning Davlat bayrog‘i tasdiqlandi. Bu shonli voqea 1991-y[illegible] 18-noyabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining n[illegible]dan tashqari 7 sessiyasida bo‘lib o‘tdi.

**Davlat gerbi:**

O‘zbekiston Respublikasi ham o‘z Davlat gerbiga ega bo‘lib, gerb 1992-yil 2-iyulda 12 chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 10-sessiyasida tasdiqlangan.

**Milliy valyutamiz:**

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovning 1994-yil 16-iyundagi O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘[illegible]dagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasida o‘z milliy valyutamiz, [illegible]m 1994-yil 1-iyuldan muomalaga kiritildi.

**Raqs: “Vatanim”**

NAMUNA

Bu du[illegible]p
Bu du[illegible]o‘p
Barchasida [illegible] gull[illegible]
Barchasida ya[illegible]r d[illegible]



Chorlar ezgu yo‘llar m[illegible]
Ajdodlarim qo‘llar meni
Bu Vatanda to‘kmasman yos[illegible]
Bu Vatanda egmasman bosh.

Vatan ona biz unga farzand
Bir chinorning barglari monand
Dildan dilga yo‘l olur qo‘shiq
Ko‘ngillarni etgaydir payvand.

**Raqs: “Juftlik”**

Qo‘shiqlarda Vatan ma’nosi
Qo‘shiqlarda xalqim sadosi
Vatan kuyin yangratsa dillar
Yangrar yurtning yeru samosi

Vatan oltin belanchagimiz
Biz Vatanning kelajagimiz



Vatan agar buyuk bog‘ bo‘lsa
Bizlar uning kelajagimiz.

O‘zbekiston Vatanim onam
Nur taralar gul bog‘laringdan
Oltin beshik aziz ostonam
Baxtim topdim gul bog‘laringdan.

**Eshik taqillab musiqa ostida Jumavoy kirib keladi.**

**Bola:** Iye, sen kim bo‘lding?

**Jumavoy:** Men, men Jumavoy (yerga yotib oladi)

**Bola:** Iye, sen bizdan qo‘rqmagin, o‘rningdan tur, oting nima?

**Jumavoy:** Men adashib qoldim.

**Qiz:** Ha, esimga tushding, sen Jumavoymisan? Kino qaharmoni

**Bola:** Sen-chi, Jumavoy adashibman deb xafa bo‘lma, biz bolalarimiz bilan Mustaqillik bayramini nishonlaymiz.

**Jumavoy:** Mustaqillik nima u?

**Bola:** Mustaqillik o‘z erking qo‘lingda degani.

**Jumavoy:** Bu juda yaxshi-ku.

**Bola:** Kel bayramimizni tomosha qil, dam olasan.

**Raqs: (o‘g‘il bolalar ijrosida)**

Vatanjonim, Vatanim
Ko‘zim quvnab ko‘rganim
Istiqloldan kulganim
O‘zbekiston gulshanim

Bahra olib bag‘ringdan



Ulg‘ayaman mehringdan
Vatanjonim, Vatanim
O‘zbekiston gulshanim



I[illegible]ing qaldirg‘ochimiz
[illegible]iz t[illegible]ngday kulajak
[illegible] qudrat kuchimiz
[illegible] nurli k[illegible]jak.

**Qo‘shiq: “O‘zbekiston”**

Bu du[illegible]ar ko‘[illegible]
Bu dunyo[illegible]llar [illegible]
Barchasida y[illegible]
Barchasida yayra[illegible]ar[illegible]

Mening uchun aziz bo‘ston[illegible]
O‘zbekiston, O‘zbekiston

Chorlar ezgu yo‘llar meni
Ajdodlarim qo‘llar meni
Bu Vatanda to‘kmasman yosh
Bu Vatanda egmasman bosh.

Qalbidek pok osmoni
Baxtdir iymon vijdoni
Fe’li kengdir shu sabab
To‘kinder dasturxoni

Mustaqillik bolalarimiz
Boshimizni silaydi o‘lkam

NAMUNA

Dil g‘unchasi lolalarimiz

Go‘zallikdan yashnaydi olam

O‘zbekiston ona yurt

Dunyod [illegible] a yurt

Xal [illegible] nat [illegible] sh

[illegible]

**[illegible] O‘zb [illegible] im” klipi bilan bayram yakunlanadi.**

**Boshlovchi** [illegible] ramim [illegible] ‘z nihoyasiga yetdi, xayr sog‘ bo‘linglar.



NAMUNA

# MA[illegible]TABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

__________________shahar (viloyat)

__________________tuman “______________” nomli

[illegible]akt[illegible]ha ta’lim tashkiloti

tay[illegible]rbiyachisining

20__[illegible]_ [illegible] yili uchun

# “KUZ MEXRJON [illegible]ERTALIGI” MAVZUSIDA O[illegible]GAN TADBIR

# SSENAR[illegible]SI

NAMUNA

Zal bayramona bezatilgan sho‘x musiqa ostida bolalar zalga kirib o‘z joylarini egallaydilar.

**Jarchi:** Odamlaru odamlar, bog‘da bitgan bodomlar,
Eshitmadim demanglar, eshitganlar jilmanglar.
G‘ir – g‘ir shamol elibdi, shir – shir barglar tushibdi.
Chak – chak yomg‘ir yog‘ibdi, o‘lkamga kuz kelibdi .
Exe....... xe....... xe........ xe...........eeee ...........

**Boshlovchi:** Assalom xalqimning mirishkorlari,
Assalom xalqimning qahramonlari,
Assalom xalqimning dehqon- paxtakori,
Assalom davramiz mehmonlari.
Bolajonlar assalom, do‘stlar assalom.
Bugun sizga ta’zim hamda ehtirom !

***Bolalar “Oltin kuz “ qo‘shig‘ini kuylab beradilar .***

**Bola :** Paxtakor otaxonlar, ulkan xirmon muborak,
Dovrug‘ingiz bo‘ldi doston, sharafu-shon muborak !

**Bola :** Endi katta to‘ylar bo‘lar, aziz inson muborak,
Sizga yurak olqishlarim, bobo dehqon muborak !

**Bola :** Bog‘bonlru – dehqonlar, mirishkor paxtakorlar,
Hosilni yig‘ib – terib, keldilar mehmon bo‘lib.
Bu mehrjon bayrami, hursand qilar hammani !

***Bolalar “ Mehrjonim bayrami “ qo‘shig‘ini kuylab beradilar .***

**Bola :** Quyosh mehribon bo‘lsin , omborlar donga to‘lsin.
Dehqonning baxti kulsin, hosil bayram muborak !

**Bola :** El tashvishin tashasin, har kun palov oshasin.
Dehqon bobom yashasin, hosil bayram muborak !

***Qizlar “ Osh “ raqsini ijro etib beradilar .***

**Boshlovchi :** Kuzimizning go‘zalligin, siz bolalar ko‘rganmisiz ?
Tokdan husayni, erdan qirqma , shoxdan behi uzganmisiz?
Uzum uzib,sharbat suzib, shinniga o‘t yoqqanmisiz?
Gala – gala, shoda – shoda, duv – duv yong‘oq qoqqanmisiz?

Bularni ham qo‘yavering, dalamizga chiqqanmisiz?
Paxtazordan uyum – uyum , oq oltinni terganmisiz ?

*Musiqa ostida davraga KUZ  fasli, o‘zining yordamchilari: shamol, yomg‘irlari bilan kirib keladi .*

**Kuz :** Men kuzman sizlarga oltin kosada,
Sharbat ola keldim, bol ola keldim .
Savat – savat qilib, shirin mevalar,
[illegible]mborlar liq to‘la , don ola keldim .
[illegible]ng vodiylar to‘la, dalalar to‘la,
Paxta ola keldim, shon ola keldim .

**Boshlov[illegible]** [illegible]ush [illegible] Kuz. Bolajonlarga nimalar olib kelding?

**Kuz :** Men [illegible]opi[illegible]ar olib kelganman . Men ularsiz saxovatli Oltin K[illegible]bo[illegible]nan .

Er tagida olt[illegible]iq, [illegible]lar oziq .( sabzi ).

Er ustida mushtda[illegible]u[illegible]) .

O‘zi ko‘m – ko‘k , yuz[illegible]qizi[illegible]).

Kichkina dekcha ichi to‘la [illegible] . ( a[illegible]

Pak – pakana bo‘yi bor , etti qavat [illegible] .( p[illegible]

Xo‘ppa semiz bir tuki yo‘q . ( tarvuz )

**Boshlovchi :** O‘lkamda kezar bu dam , oltin kuz s[illegible]
O‘ynatadi mo‘yqalam, dilda qay[illegible]
Paxtalarga kumush rang, surmoq b[illegible]b s[illegible]
Bog‘ni qilgan rang – barang,ko‘rib zav[illegible]i .

***Bolalar “ Kuz bargchalari” raqsini ijro etib beradilar .***

**Boshlovchi :** Bolalar qaranglar davramizga Dehqon bobo tashrif buy[illegible]a[illegible]

*Dehqon bobo “ Dilxiroj “ musiqasiga Paxtaoy bilan birga raqsga tushib k[illegible] keladilar .*

**Dehqon bobo :** Assalomu alaykum aziz mehmonlar , jajji bolajonlar!Ho-zir men sizlarning huzuringizga paxtazoru – bog‘lardan, tinmay mehnat qi-layotgan ishchi – dehqonlar oldidan kelyapman .Mana , bu yil meva – sabzavot-larimiz mo‘l – ko‘l bo‘ldi . Paxta va bug‘doy rejalarimiz ham bajarildi .
Men o‘zim bilan Paxtaoyni olib kelganman .

NAMUNA

**Paxtaoy :** Men Paxtaoy, Paxtaoy , O‘zbekiston menga boy.
[illegible]alqimni ziynatiman, mehmonni izzatiman .
[illegible]albim yumshoq oppoqdir, kelajagim porloqdir .
Me[illegible]lerlar Paxtaoy yurtimni qilaman boy.
[illegible]duzdir chanog‘im, ochildim yo‘q sanog‘im .
[illegible]ham ko‘tarib bo‘y , yurtga beray katta to‘y .

***Bo[illegible]Paxt[illegible]i kuylab beradilar .Shundan so‘ng [illegible] ham ijro etib beradilar .***

**Dehqonbobo :** Bola[illegible] hozi[illegible]inda bulib o‘tgan voqeani A ytib be[illegible]axsh[illegible]anglar .

***SAHN[illegible]B[illegible]***

**Dehqonbobo :** Bir bor ekan ,bir yo‘q ekan [illegible]jon i[illegible]la bo‘lgan ekan. Bir kuni dalaga sabzavotlar ekib c[illegible] Ular[illegible], sug‘oribdi, parvarishlabdi . Sabzavotlar unib chiqib ya[illegible]abdi[illegible]uni[illegible] ko‘rib judayam hursand bo‘libdi .

**Valijon :** Mana, ekinlarim ham yashnab qoldi. E[illegible]olsa ham bo‘ladi .

**Dehqonbobo :** Shu payt polizga xo‘roz kirib kelibdi .

**Xo‘roz :** Mendurman ku – ku xo‘roz ku, ku, ku.
Vali mizg‘ibti biroz ku, ku, ku.
Qanday yaxshi polizda ku, ku, ku.
Ovqat bo‘lsa yonimda ku – ka – re – ku ...u.

**Dehqonbobo :** Shunday qilib xo‘roz Valijonning qattiq uxlaganidan foydalani[illegible] tarvuzni olib ketibdi . Shundan so‘ng polizga g‘oz kirib kelibdi .

**G‘oz :** Mana mendur g‘oz , g‘ozvoy g‘oq, g‘oq, g‘oq .
Hech kim yo‘qmi ? Hoy, xoy, hoy. G‘oq, g‘oq, g‘oq.
Qanday yaxshi polizda g‘oq, g‘oq, g‘oq .
Ovqat bo‘lsa yonimda g‘oq, g‘oq, g‘oq.

**Dehqonbobo :** Shunday qilib g‘oz piyozni ko‘tarib ketibdi . So‘ngra echki kirib kelibdi .

NAMUNA

**Echki :** Echkijonman men o‘zim  me, me, me.
Yunglarim juda mayin me, me, me.
Qanday mazza polizda  me, me, me.
Ovqat bo‘lsa yonimda  me, me, me.

**Dehqonbobo :** Echki ham sholg‘om, kartoshkani olib jo‘nab qolibdi . Shu payt sakrab -  sakrab  2 ta  quyoncha kirib kelibdi .

**1 Quyoncha :** Kelib qoldi omadim polizga tushib qoldim .
Keling shalpangquloqlar sabzi, karam eb qoling .

**2 Quyoncha :** Ex, qanday muncha mazza, Valijon ko‘proq uxla .
Sersuv karam polizda , mazza qilib eymizda .

**Dehqonbobo :** Ular sabzi , karamlarni ushlab olib raqsga tushayotganlarida Valijon uyg‘onib ketibdi .

**Valijon :** Xa, endi qo‘lga tushdinglarmi ..
Endi mendan qochib qutulolmaysizlar.

**Dehqonbobo :** Shunday qilib quyonlar tutqich bermay karam va sabzilarni olib qochib ketibdilar.

**Valijon :** Qani karam , qani sabzilar , qani tarvuz , qani piyozlar , qani sholg‘omu - kartoshkalar . Sho‘rim quridi endi nima qilaman .

**Dehqonbobo :** Ekinlarni ahvolini ko‘rib Valijon  o‘tirib rosa  yig‘labdi. Shu payt uning oldiga  Kuz fasli tashrif buyuribdi

**Kuz :** Xoy bola, nimaga yig‘layapsan ?

**Valijon :** Mening hosillarimni xo‘roz , g‘oz , echki va  quyonlar yeb ketdi .

**Kuz :** Xafa bo‘lma, mana bu sehrli barg, u bizga yordam beradi .

**Dehqonbobo :** Shunda kuz bargini aylantirgan ekan poliz ekinlari yana o‘z joylarida paydo bo‘lib qolibdi .

**Kuz :** Valijon ! Bilib qo‘ygin,

Bunday uxlab qolmagin .
Qo‘riqlashmi niyating ,
Postingda hushyor turgin .

**Dehqonbobo :** Shunday qilib Valijon Kuzga raxmat aytib, yanagi
Yilga yana kutishini aytib xayrlashibdi .

***“ Xosilni yig‘amiz “ qo‘shig‘ini kuylab beradilar .***

[illegible]iz bolajonlar ! Men bu yilgi hosilimizdan sizlarga sovg‘alar olib [illegible] .

*[illegible]osillar kirib keladilar*

**Anor :** I[illegible] qip- qi[illegible]lman, bog‘ning erka qiziman.
[illegible]to‘la[illegible]on, meni derlar Anorxon .

**Olma :** [illegible]en [illegible]man, ko‘zingizni olaman.
Q[illegible]g‘zingizda qolaman .

**Uzum :** O‘zim s[illegible]il, sariq yuzimiz.
Shaklim[illegible]ovla[illegible]im tillaga .

**Qovun :** Serto‘ridan, s[illegible]dan, [illegible]n deydilar.
Obihayot shiri[illegible]ovv[illegible]ar.

**Piyoz :** Ishladilar bahor, yoz[illegible]zda [illegible]en [illegible]z .

**Sabzi :** Yupqagina po‘stim bor, “A[illegible]min [illegible].
Topishmoqda yoziqman, o‘sha ol[illegible] .

**Qalampir:** Men qalampir, qalampir achchig‘i[illegible]b s[illegible]

**Tarvuz :** Men tarvuzman, men tarvuz, kelib qol[illegible] kuz
Chertib, chertib so‘ngra uz, rejalarim bo‘[illegible]

**Karam :** Barglarim taram- taram , meni deydilar karam[illegible]
Tuzlab ko‘proq eydilar, mazzasi zo‘r deydilar .

**Sholg‘om :** Sho‘rva qilib solasiz, ichib terlab qolasiz.
Bo‘ling doimo sog‘lom, meni ismimdir sholg‘om .

**Nok :** Mevalarning ichida, qomatlarim o‘zgacha.
Rangim sariq va ko‘kroq, nokman husnim bo‘lakcha.

**Xurmo :** Olislardan kelganman, xo‘p dunyolar kezganman.
O‘zbegimning uyiga, xurmo bo‘lib kelganman .

NAMUNA

**Yong'oq :** Men yong'oqman boy yong'oq, turar joyim balandroq.
O'zim kichik dumaloq, kaltak olib so'ngra qoq .

**Dehqonbobo :** Olib qoling, olib qoling, keling do'stlar, sotib oling!
Meva va sabzavotlar , o'zini ko'z- ko'z qilar .
Qani- qani, olinglar, ovqatga tez solinglar.
Bularni egan bola , sog'lom bo'ladi juda !

Endichi, [illegible]ajonlar! Mana shu sehrli meva va sabzavotlardan " Kim tez savat[illegible] meva va sabzavotlarni yig'ish " harakatli o'yinini o'ynaymiz. M[illegible] chaqqonliklaringni bir ko'ray- chi.

***B[illegible]ez savatchalarga meva va sabzavotlarni yig'ish" harak[illegible]li o'yinini o'ynab beradilar .***

**Deh[illegible]obo** [illegible]izlarga topishmoq aytaman, sizlar esa topish-moqni d[illegible]gia[illegible]ib topishingiz kerak . Topishmoqning nomi, " Bu qand[illegible] " [illegible]nlanadi .

Kuzlar [illegible]i qis[illegible] Dehqonlar erga ekkan sabzi, piyoz, kartoshka, kara[illegible]talar[illegible]erib oladilar. Qaldirg'och, turna, mayna va boshqa[illegible]ilar[illegible]a uchib ketadilar. Olmaxonlar yon-g'oq yig'adilar.

Qani aytingi[illegible], b[illegible]si faslda ro'y beradi ?

**Bolalar :** Kuz faslida .

**Boshlovchi :** Juda to'g'ri topdin[illegible]lqim[illegible]a sabzavot va meva-Lardan mo'l hosil yig'ib- terib oadilar. S[illegible]un[illegible]on bayrami kuz faslida nishonlanadi .

**Boshlovchi :** Mana , bolajonlar! Bizning [illegible]axo[illegible]fasli o'zgacha bo'ladi . O'lkamizda [illegible] to'[illegible]ik bo'laversin.

**Bola :** Do'stlar mening yurtimni ,O'zbek[illegible]on[illegible]
Dong'i ketgan dunyoga, bog'u- bo'st[illegible] .

**Bola :** Bog'larida mevalar ,sharbat bo'lib pishadi.
Uzum, olma, behilar, yo'lingizga tushadi .

**Bola :** Bahorlari, kuzlari, bir- biridan ortiqdir .

Mevali noz- ne'mati xalqimizga tortiqdir

***"O'zbekiston " haqida qo'shiq va raqslar ijro etib beradilar .***

NAMUNA

**Boshlovchi :** Mana xurmatli mehmonlar, aziz bolajonlar! Shunday qilib " Kuz- Mehrjon " bayramimiz ham nihoyasiga etdi. Bobo Dehqonlarimizga sihat- salomatlik tilab qolamiz. Ular etishtirgan hosillari doim dastur-xonimiz ko'rki bo'lsin. Kuz fasli bilan yanagi yilga, yanagi shu fursatda uch-shish, ha[illegible]ga nasib aylasin deya kechamizni yakunlaymiz !

***Ommaviy raqs .***



NAMUNA

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

______________________________shahar (viloyat)

_____________________tumani "________________" nomli

__-maktabgacha ta'lim tashkiloti

tayyorlov guruhi tarbiyachisining

20__-20__-o'quv yili uchun

# 1-OKTABR "USTOZ VA MURABBIYLAR KUNI"GA BAG'ISHLAB O'TKAZILADIGAN BAYRAM

# SSENARIYSI

NAMUNA

**I. Boshlovchi.**

Assalom, ona, yurt tonglar o‘lkasi,
Tarif-tavsifingning yo‘q nihoyasi.
Senga ba’ishlanar muqaddas qo‘shiq,
Bu o‘zbek elining o‘z madhiyasi.

(madhiya ijro etiladi)

**II. Boshlovchi.**

Assalom, bo‘g‘cham-muqaddas dargoh,
Assalom, ustozlar-kasbkori saboq!
Assalo, do‘stlarim-menga qo‘shqanot,
Guruhdosh! Hayotga ishonch bilan boq.

**I. Boshlovchi.**

Assalomu alaykum qadrli mehmonlar, aziz ustozlar. Hammamiz uchun quvonchli va hayajonli bo‘lgan usgbu daqiqalarda eng ulug‘, eng aziz bayram “Ustoz va murabbiylar” bayrami bilan aziz ustozlarimizni muborakbor etamiz.

**II. Boshlovchi.**

Bugun mehribon, jafokash, mashaqqatli, shu bilan birga, sharafli kasb egasi tarbiyachi-ustozlar bayrami. Biz tayyorlov tarbiyalanuvchilari aziz ustozlarni qutlab “Ustoz otangdek ulug‘” deb nom olgan tadbir tayyorlaganmiz. Sini ruhsatingiz bilan ushbu tadbirimizni ochiq deb e’lon qilamiz.

Istiqlol, bunchalar go‘zal bu noming,
Non kabi e’zozli, jondek shirin bol.
Yer shari yo‘lladi otash saloming,
Assalom O‘zbegim, qutlug‘ istitqlol.



*1-bola*

Shukrona aytamiz qutlug‘ kunlarga,
Ma’noga-mazmunga to‘liq kunlarga.
Farovon, nurafshon ulug‘ kunlarga,
Ey ozod diyorim, O‘zbekistonim!
Ey obod diyorim, O‘zbekistonim!
Ma’rifat bo‘stoni ezgu dostoni
Do‘stligu tinchlikning metin qo‘rg‘oni,
Ey ozod diyorim, O‘zbekistonim!
Ey obod diyorim, O‘zbekistonim!

*2-bola*

Karnay-surnay ovoz berdi jahonda,
Jahonni qaratti O‘zbekistonga.
Temurning ruhiga qilib qasamyod,
Yo‘lboshchimiz etdi xalq dilini shod.
Yo‘lboshchi sozini ettirdi davom,
Dilidi xalqiga chuquqr ehtirom.
Hech hazon bo‘lmasin biz kezgan chaman,
Bizdan qolsin ozod va obod Vatan!



*3-bola*

Olis manzillardan boshlangan Vatan,

Sevinchdan ko‘zlari yoshlangan Vatan.
Gohida o‘tlarga tashlangan Vatan,
Aziz, ona tuproq ko‘hna makondir,
Keljagi buyuk O‘zbekistondir.

*[illegible]bola*

O[illegible]rgani yo‘q Sinoday tabib,
[illegible]ngari mumtoz bir adib,
[illegible]ndiy cholg‘usi dillarga habib,
[illegible]azallar [illegible] oromijondir,
Kelja[illegible]kistondir

[illegible]ag[illegible] samov[illegible]ug‘,
Berun[illegible]i yill[illegible]
Yas[illegible]larg[illegible]
“Ziji K[illegible]goni[illegible]r,
Keljagi buy[illegible]s[illegible]

**(Y. Usmonova ijros[illegible]ig‘I ijro etildi)**

**I. Boshlovchi.**

Ey hurmatli muallim,
Har ko‘ngilda mehring bor.
Har uyda har shaharda,
Sening mevalaring bor.

**II. Boshlovchi.**

Ekkan mevalariningni,
Hosili hech tugamas.
Dunyoda sening kabi,
Baxtli inson topilmas.

**I. Boshlovchi.**

Dar haqiqat, ustoz murabbiylar shunday buyuk, ulug‘[illegible]dan[illegible] qarzdormiz. Ustoz va shogirt quyosh bilan oyga o‘xshaydi. Oy quyoshd[illegible]b[illegible]oritgani kabi, shogirt ustozdan ziyo olib hayot mash’alini yoqadi.

*1-bola*

Agar hayot bo‘ston bo‘lsa, bog‘bon muallim,
Agar hayot oltin bo‘lsa, zargar muallim.
Agar hayot karvon bo‘lsa, sarbon muallim,
Agar hayot shoir bo‘lsa, so‘zi muallim.
Agar hayot dengiz bo‘lsa, duri muallim,
Agar hayot uzuk bo‘lsa, gavhar muallim,
Ilm-u ma’rifatdan beruvchi ta’lim.

*2-bola*

NAMUNA

Ilm-u ziyo berar bizga,
Onadir har o‘g‘il qizga.
Jo bo‘ldingiz qalbimizga,
Mehribonim tarbiyachim,
Jonajonim tarbiyachim.
O‘qi, o‘rgan deya doim,
To‘g[illegible]‘lni ko‘rsatasiz
H[illegible] o‘rgatasiz
[illegible]n tarbiyachim,
[illegible] tar[illegible]chim.

([illegible]iga raqs ijro etiladi.)

[illegible]gim k[illegible]uyoshga,
O[illegible]ehr[illegible]r yoshga.
Bilg[illegible]b, h[illegible]isam kuyungay,
Bardos[illegible]rd[illegible], bardoshga.

O‘zshatmog‘i[illegible]g pol[illegible]
Yetaklaydi se[illegible]og‘i[illegible]
Yuragingga o‘tka[illegible], yu[illegible]
Yetganingda voyaga [illegible]a

Ustoz yo‘li porloqdir, us[illegible]z y[illegible]
Ustoz ko‘ngli xazina, sahov[illegible]qu[illegible]
Yetsang ustoz qadriga, eling s[illegible] ard[illegible]
Do‘stim bilsang ustozing otang k[illegible]

*4-bola*
Ey, inson idrokin charxlovchi zot,
Ey, marifat bog‘ini gullatgan zako.
Siz bilan munavvar bu shirin hayot,
Siz bilan oboddir bu ko‘hna dargoh.

*5-bola*
Azaldan ustozni ulug‘lar xalqim,
Ularga ezgulik tilamoq xaqqim.
Bunchalar buyuksiz, bunchalar zukko,
Umringiz mo‘jiza yetmaydi aqlim.

(Ko‘z tegmasin qo‘shig‘iga raqs ijro etiladi.)

**I. Boshlovchi.**

Tarbiyachi hayot charog‘boni. U yosh avlodka ilm-fan asoslarini o‘rgatadi, u[illegible]n tarbiya beradi, zamonamizning har tomonlama barkamol kishilarini yetishtiradi.

**II. Boshlovchi.**

“Ustoz otangdek ulug‘” deb bejiz aytishmagan. Bu hikmatga amal qilib ustozni ota-onadek hurmat qilib, bir umrga e’zozlash kerak.

*Tarbiyalanuvchilar.*

NAMUNA

Qo‘limga qalamni ushlatdi ilk bor,
Shu ondan qalbimda boshlandi bahor.
Undanda buyukro[illegible] ulug‘roq kim bor?
Ustozim, ustoz[illegible] ming ta’zim!

Barcha i[illegible]ti si[illegible]da,
Saho[illegible]qall[illegible]a.
O[illegible]
Ust[illegible] ust[illegible]g ta’zim!

O‘qishni [illegible]zni oc[illegible]
Ilm sirlarni [illegible] soch[illegible]
Otaday ulug‘s[illegible] ke[illegible]
Ustozim, ustozi[illegible] ta’[illegible]

Dard bo‘lsa dardlashgan d[illegible]an,
Sirdoshdek sirlashgan ha[illegible]n.
Qalbimiz, mehrimiz ustoz [illegible]n,
Ustozim, ustozim sizga ming [illegible] zi[illegible]

Quyoshni qaritar zahmatlaringiz,
Ellarda dostondir mehnatlaringiz.
Yog‘ilgay siz uchun rahmatlarimiz,
Ustozim, ustozim sizga ming ta’zim!

Shogirdim obro‘yim, yuzim degan zot,
Ishonchim, umidim ko‘zim degan zot.
Bolajonim, o‘g‘lim, qizim degan zot,
Ustozim, ustozim sizga ming ta’zim!

Sabr ham, toqat ham, bardosh ham sizsiz,
Goh quvonch, goh alam ko‘z yosh ham sizsiz.
Har ikki olamda quyosh ham sizsiz,
Ustozim, ustozim sizga ming ta’zim!

G‘unchalar ochilib bo‘lishganda rom,
Barchasin ardoqlab etdim ehtirom.
Mehrimning sharobin tutdim to‘la jom,
Ustozim, ustozim sizga ming ta’zim!

(“Lazgi” raqsi ijro etiladi.)



**BOSHLOVCHI.**

Tarixni anglamoq o‘zlikni anglamoqdir. Ajdodlar ruhiyu, merosi bilan yashamoq, ularga vorislik sharafiga munosib bo‘lmog‘imiz kerak. Bugun tadbirimizga ustozlarni qutlash uchun buyuk ajdodlarimiz tashrif buyurgan. Ular siymosini davraga chorlamoq hayrlidir.

*Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur kirib kelmoqda.*

**A. Temur:** “Barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir.

*G‘azal mulkning sultoni Alisher Navoiy tashrif buyurmoqda.*

NAMUNA

**A. Navoiy:** Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado onin haqqin yuj ganj ila.

*Shoh, shoir, tarixchi olim, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur kelmoqda.*

**Z.M.Bobur:**
Har kimki vafo qilsa vafo topg‘usidir,
Har kimki jafo qilsa jafo topg‘usidir.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz.
Har kimki yomon bo‘lsa jazo topg‘usidir.

(Sahna ko‘rinishi)

**BOSHLOVCHI.**

Olamning gultojisi inson bo‘lsa ular orasida Olloh nazari tushgan, suyuklisi ustoz muallimdir. Bizlarning har bir savolimizga chuquqr etibor va bosiqlik bilan javob beruvchi, elning nazaridagi birinchi muallimdir. Sizlarga bugun qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib tashakkur aytamiz.

(Tarbiyalanuvchilar tomonidan “Vals” ijro etiladi.)

***(Quyidagi sh’er ostida tarbiyalanuvchilar tarbiyachilarga gullar beradilar.)***

***Ustozim mehribon, oily himmatsiz,***
***Sabr toqatingiz bepayon ummon.***
***Yuraklarda darmon, kuch va qudratsiz,***
***Sizdan ibrat olib yashaymiz hamon.***

***Tunlarni yoritgan mash’ala misol,***
***Hayot yo‘limizni yorutguvchisiz.***
***O‘z o‘rnin topsin deb har bitta nihol,***
***Turmush saboqlarin o‘rgatuvchisiz.***

***Sizsiz dunyo sirin anglamoq qiyin,***
***Hayot gulshanining mohir bog‘boni.***
***Siz bilan baxtimiz kulmog‘I tayin,***
***Sho‘x-shodon yashashning keldi davroni.***

***Nomingiz faxrla olamiz tilga,***
***Siz aytgan tariqa farzand bo‘lamiz.***
***Har ishga munosib Vatanga, elga,***
***Ustoz, sizga doim ta’zim qilamiz!***

**BOSHLOVCHI.**

Shuning bilan “Ustoz va murabbiy kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan bayram dasturimiz o‘z niyoyasiga yetdi. Xayr! Omon bo‘linglar!

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

________________shahar (viloyat)

________[illegible] tuman “____________” nomli

[illegible]gacha ta’lim tashkiloti

tay[illegible]rbiyachisining

20_[illegible]ili uchun

## 21-OKTABR “[illegible]zbe[illegible]iga davlat tili maqomi ber[illegible]’ga bag‘ishlab “Ona ti[illegible]m” mavzusida o‘tkazilgan [illegible]

# SSENARI[illegible]

NAMUNA

**“Tilingni avayla omondir boshing”**

**1-boshlovchi:** Ona tilim, buyuklikda eng baland tog‘san,
Ona tilim, suyuklikda Erami bog‘san.

**2-boshlovchi:** Ona tilim, jon tilim,
Yuragimning qo‘rida sayrab turgan bulbulim.

**1-bos**[illegible] - A[illegible]alomu alaykum, aziz ustozlar, hurmatli bolalar.

**2**[illegible]omu alaykum, davramiz ishtirokchilari va mehmonlar.

**1-boshlo**[illegible] Bugu[illegible]amlakatimizda katta tantana, ya’ni 21-oktabr - O‘zbek [illegible]avlat[illegible]erilgan kun.

**2-boshlovch**[illegible]abat bilan tayyorlov gurhlari “**Tilingni avayla omondir bosh**[illegible]nlang[illegible]adbir tayyorlab kelganlar. Marhamat, tinglab tomosha qil[illegible]

**1.-Madhiya**

- Jahondagi juda ko‘p [illegible] tiliga ega. O‘zbekiston Respublikasining ham o‘z dav[illegible]qda [illegible]espublikamizning asosiy qonuni – O‘zbekiston Respublikas[illegible]utsi[illegible] moddasida shunday yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasinin[illegible]”.

- Davlat tili deganda, shu davlat hududi[illegible]siy [illegible]tasi bo‘lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat ti[illegible]majli[illegible]umanlar, qurultoylar shu tilda olib boriladi.

- Har bir davlat o‘z tilining sofligini, uning boyib[illegible] va iste’mol doirasini kengaytirishga harakat qiladi, davlat ti[illegible] oqitish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qo[illegible] yil 21-oktabrda qabul qilingan. Shuning uchun xalqimiz har yili ush[illegible] bayrami sifatida nishonlaydi.

- Bu kunda biz ona tilimiz haqida she’r va qo‘shiqlar aytamiz. Tilimizning [illegible]oq va boy tarixini eslab, uni rivojlantirishga hissa qo‘shgan yozuvchilar, shoirlar, olimlar xotirasini yodga olamiz.

**2-boshlovchi:** Guruhdoshlarimiz Xurshid Davronning “Ona tilim” she’rini o‘qib berishadi.

NAMUNA

Kelib ketdi necha dunyolar,

Kuldi hayot, yig‘ladi o‘lim.

Sen deb qurbo[illegible]di bobolar,

Ular ketd[illegible]ng, tilim.

Bela[illegible]iy

Kuyla[illegible]o‘td[illegible]oni.

Va navqir[illegible]qlarin[illegible]

Dil qonini berdi N[illegible]

Samarqanddan Bo[illegible]

Dilda bo‘g‘ib hasrat sa[illegible]

Olib ketdi ona yurtidan,

Turkiy tilim, birgina seni.

Mashrabmas, sen osilding dorga,

Nodiramas, sensan so‘yilgan.

Hoziqningmas, sening, ey tilim,

Boshing ayr-u, ko‘zing o‘yilgan.

Ammo dushman o‘ldirgan botir

Tirilgandek yana qasosga.

Mangu borsan va mangu qodir

To‘ldirmoqqa yerni ovozga.

Vatan uchun baxsh etib jonni,

Kechib olov, kirib daryoga.

Farzandlaring to‘kkan har qonni

Shimirding sen o‘xshab giyohga.

Ona tilim, omon bo‘l mangu,

Sen borsan-ki men ham o‘lmayman.

Tildan qolsam seni Oybekday

Men ko‘zlarim bilan so‘ylayman.






NAMUNA

**2. "GO'ZAL VATAN" QO'HIG'I**

**1-boshlovchi:** - Davlat tili haqidagi qonun bizga nima uchun kerak?

"Bu qonun o'zligimizni saqlab qolish, tilimizni yo'qotib qo'ymaslik uchun, o'zbek degan xalqning yo'q bo'lib ketmasligi uchun kerak", - degan Erkin Vohidov.

- Yer yuzida qancha millat, xalq, elat bo'lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo'q, xalqsiz til ham bo'lmaydi. Bular egizak tushunchalardir. Ularni bir-biridan ayirib bo'lmas. Agar ayirib qo'yilsa, ikkisi ham o'zligini yo'qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo'shilib ketadi.

- Har bir millat o'z hayoti davomida aloqa quroli sifatida, asosan, bitta tildan foydalanadi.

- Farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishda onaning o'rni beqiyos. Bola ilk tovushlarni, so'zlarni onasidan eshitib, o'rgangani bois, ona tili deyiladi.

**3. "O'ZBEKISTON" RAQSI**

- Xalqimiz, ona tilimizga befarq bo'lmagan o'zbek farzandi borki, bugun chuqur iftixor va ehtirom bilan buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyni esga oladi. O'zbek tili va adabiyotining ravnaqi uchun hech kim Alisher Navoiychalik xizmat qilmagan.

Bobomiz go'zal tilimiz xazinasidagi betakror dur-u gavharlarning latofatini kashf etib, asarlarida shunday mohirlik bilan qo'lladilarki, uning dovrug'i butun Sharqqa yoyildi. She'riyat sultoni aytganlaridek:

Olibmen taxti farmonimga oson,
Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.

- So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdirki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilginki, guhari sharifroq yo'q ondin.

- Taniqli yozuvchilardan biri o'z o'rnida qo'llanilmagan so'zni yam-yashil daraxtga qoqilgan mixga o'xshatgan edi. Darhaqiqat, noo'rin ishlatilgan so'z xoh og'zaki muloqot bo'lsin, xoh matbuotda bo'lsin, erish tuyulishidan tashqari, tilga e'tiborsizlik hisoblanadi.

- "So'zning otasi aql, onasi til", - deyishadi keksalar. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan iftixor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo'lsa ham, suyakni tebratadi. Odamning odobi, dastavval, uning tilida, keyin tili orqali uning

bilimida ko‘rinadi. Odob doirasidagi muomala madaniyatini o‘zlashtirgan har bir inson, hayotda o‘z o‘rnini topa oladi.

**4. QO‘SHIQ . MUHAMMADSOLIH IJROSIDA “Obod Vatanim mening”**

**5. RAQS. “DO‘PPI” GULSANAM** Qizlar ijrosida.

**1-boshlovchi:** - Biz namoyish etmoqchi bo‘lgan sahna ko‘rinishi ham tilning nimalarga qodirlig[illegible] yana bir bor isbotlaydi.

**“S[illegible] VAZIR” SAHNA KO‘RINISHI**

[illegible] mi qatnashchilari. Azal-azaldan hikmatli so‘zlar, maqol-matallar [illegible]so[illegible]hli ta’sir qilgan. Bu ham tilimiz boyligining, kuch qudratining ramziy if[illegible]

- D[illegible]ko‘n[illegible]urakning tilsimi.
- Achch[illegible] ber[illegible]n javob kutma.
- Tildan qoqilga[illegible]ra, o[illegible]oqilgan afzal.
- Tilingni botir q[illegible], o‘[illegible].
- Yaxshi so‘zdan as[illegible] y[illegible]ahar tomar.
- Tilingda bo‘lsa boling, ku[illegible]
- Tilingni tiy – tishing sinm[illegible].
- Til zahri ilon zahridan yomon[illegible]

**6. RAQS: OMONYOR – LAZGI .**

**2-boshlovchi:** - Marhamat, navbatn[illegible]na[illegible]izni[illegible]adh etuvchi she’rlarga beramiz.

Sensiz na ilm bo‘lar,
Sen bo‘lmasang so‘zlaring
Bag‘ri ming tilsim bo‘lar,
Mening shohona tilim.
Bobolardan bizga meros ezgu til,
Avlodlardan xazinadir bebaho.
Qalbimizga, ruhimizga ko‘zgu til,
Bu tilimga bag‘ishlayman ming baho.
Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solurman.

NAMUNA

Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,

Men ham to‘ti bo‘lib qolurman.

Ona tilim, oq sut bilan

[illegible]ingigansan qonimga.

S[illegible]ursan hayotimning

[illegible]aqiqa, oniga.

[illegible]llatnin[illegible]san,

[illegible]msan.

[illegible]at[illegible]ini,

Aks[illegible]ko‘z[illegible]

Onam suti[illegible]ki[illegible]

Har band[illegible]d[illegible]al[illegible]

Ona tilim do‘vru[illegible]ka,

Jo‘sh ursin she’r[illegible]da [illegible]da u[illegible]

Tilimda – u, dilimda [illegible]onim[illegible]

Momolarim alla aytgan sen bilan[illegible]

Navoiy ham ijod etgan sen [illegible].

Istiqlol ham birga qaytgan sen [illegible]

O‘zbek tilim, singib ketding qonimga.

Ko‘rk berasan she’rlarim-u borimga.

Olis tarix , o‘zi shohid nishoning,

Men o‘zbekman, o‘zbekona lutfim bor.

Ona tilim - ona yurtim g‘ururi,

Ona tilim - muqaddas va beg‘ubor.

**7. RAQS: KAPALAK. Qizlar ijrosida**

- Alisher Navoiy ona tili xazinalarini ochib ko‘rgach, uni shunday ta’riflagan edi: “Tilimiz 18000 olamdan bayroq bo‘lgan shunday bir xazinaki, har bir dur-u gavhari, ya’ni so‘zlar osmon yoritgichlaridan ham porloq, shunday bir gul-u chaman lolalaridan go‘zalroqdir”. Aziz bolalar, siz mana shu buyuk xazinaning sohibisizlar. Uni asrang va qadrlang.

**“ONA TILIMSAN” she’ri . Kavsar Turdiyeva**

NAMUNA




**1-bola:** Navoiyning nazmi ila qanot bog‘lagan,
Boburshohning iztirobin xatga joylagan,
O‘z yurtida toptalsa ham sabot aylagan,
Ichimdagi asirimsan yoki pirimsan –
Podshohimsan, vazirimsan, ona tilimsan.

**2-bola:** Qulog‘imga ilk bor kirgan azoning bo‘ldi,
Ham o‘ylatgan, ham so‘ylatgan mezoning bo‘ldi.
O‘zligimni anglatuvchi lisoning bo‘ldi,
Qayg‘umsanmi, quvonchimsan yoki sirimsan –
Dardim bilmas tilmochimsan, ona tilimsan.

**3-bola:** Onam bo‘lib tunda alla aytarding o‘zing,
Yupanch bo‘lib dildan g‘amni haydarding o‘zing,
Duo bo‘lib ne baloni qaytarding o‘zing,
So‘zda kechgan oy-u kunim, necha yilimsan –
Tariximsan, taqdirimsan, ona tilimsan.

**4-bola:** Qayg‘uraman senda muddom ko‘zim yoshlansa,
Oh chekaman senda giryon dardim boshlansa,
Iydiraman yuraklarni dillar g‘ashlansa,
Yo‘qlovimsan, yig‘lovimsan, mening birimsan –
Yor-yorimsan, alyorimsan, ona tilimsan.

**5-bola:** O‘tda yonding, nurga to‘lding, goho muzlading,
O‘zbegimning taqdirini elga so‘zlading,
Ingrading-u, titrading goh, dodlab bo‘zlading,
Qodiriylar taqdiridan tilim-tilimsan –
Hayqiriqsan, chaqiriqsan, ona tilimsan.

**6-bola:** Sen borsanki men ham borman, el ham tirikdir,
Har farzanding g‘ururi ham ulkan, yirikdir.
Shundan millat, shundan qudrat, shundan birlikdir,
Volidamsan, Vatanimsan, ona yerimsan –
**Salomimsan, kalomimsan, ona tilimsan.**

**8. QO‘SHIQ. “Ardoqlayman, asrayman, yurtim”.**

**1-boshlovchi:** - Muhtaram mehmonlar, tadbirimiz qatnashchilari!

**2-boshlovchi:** - Shuning bilan bugungi “**Tilingni avayla omondir boshing**” bayram tadbirimiz o‘z nihoyasiga yetdi. Ishtirokingiz uchun o‘z tashakkurimizni bildiramiz.

**Ustoz:**

Siz tilni asra [illegible] ar nedan ortiq,
Yagona [illegible] aga simon.
Bo [illegible] u tortiq,
Toki avlod [illegible] in omo [illegible]



NAMUNA

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NAMUNA

## MAKTABG[illegible] MAKTAB TA'LIMI V[illegible]IRL[illegible]GI

________________[illegible] shahar (viloyat)

________________tu[illegible]________” nomli

__-maktabgacha ta[illegible]tash[illegible]ti

tayyorlov guruh tarbiy[illegible]

20__-20__-o‘quv yil[illegible]

# 18-noyabr bayrog‘imiz [illegible] qilingan kunga bag‘ishl[illegible] o‘tkazilgan tadbir

# SSENARIYSI



O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasdiqlangan kuniga bag‘ishlangan “Bayrog‘imiz faxrimiz” mavzusidagi tadbir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasini kuylanadi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz ustozlar, o‘quvchilar va bayram tadbiri mehmonlari!

2-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kuniga 33 yil to‘lganligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan tadbirimizga xush kelibsiz!

1-boshlo[illegible] Bayram tantanasini ochib berish uchun so‘z bog‘chamiz direkt[illegible]

2-[illegible] D[illegible]ga bog‘chaimizning faxrli yosh sportchilarni taklif [illegible]

(“Bayr[illegible]asi sad[illegible]ida sportchilarimiz qo‘liga O‘zbekiston Resp[illegible] Davl[illegible]‘ini ko‘tarib davrani aylanib chiqadilar )

1-boshlov[illegible]ro[illegible], madhiya… Bu uch so‘zni davlat tushunchasid[illegible]a[illegible]vur qil[illegible] qiyin. Mustaqillikni qo‘lga kiritib, bayrog‘i, gerbi v[illegible]iyasi[illegible]‘lgan xalq, avvalo, o‘z taqdirini o‘zi belgilaydi.Bayrog[illegible]z, g[illegible]madhiyamiz – davlatimiz ramzlari.

2-boshlovchi:. Bu uch[illegible]ing o‘tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, or[illegible]di mujassam. Davlatimiz ramzlariga sadoqat muqadd[illegible]

bola:

O‘zbekiston Respublikasi qon[illegible] tas[illegible], o‘z davlat ramzlari bayrog‘i,gerbi va madhiyasi ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiy[illegible]

bola:

Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g‘ur[illegible]iks[illegible]tirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslik[illegible]sidir.

bola: O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O[illegible]kiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘tkaz[illegible] 7-sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

bola: She’r: “Havas bilan qarashar”



Havorang, oq va yashil
Bordir qizil belbog‘i.
Shuning uchun chiroyli

NAMUNA



O‘zbekiston bayrog‘i
O‘n ikki baxt yulduzi
O‘ziga xo‘p yarashar
Unga dunyo xalqlari
Havas bilan qarashar
Mustaqil yurt deb atar
Yer yuzining har yog‘i
Bizga juda mo‘tabar
O‘zbekiston bayrog‘i1.

1-boshlovchi: Bayroq biror firqa, tashkilot, ummat, millat va uning davlatining belgisidir. Bularning orasida millat uchun eng muhimi va uning mustaqilligini va xalqaro hurmatga egaligini bildiruvchi bayroq – davlat bayrog‘idir. Davlar bayrog‘i muqaddas hisoblanadi va uni e’zozlab asraladi. Uni behurmat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, chunki davlat bayrog‘ini behurmat qilish, shu davlatning hamma aholisini behurmat qilish bilan tengdir.

2-boshlovchi: Bayroq odatda gazmol parchasidan iborat bo‘lib, bo‘yi enidan uzunroq bo‘ladi va enining bir tarafi bir dastaga biriktiriladi. Bayroqlar bir-biridan rangi va naqshlari bilan farq qiladi.

bola: Men moviy rang bo‘laman. – yurt osmonining bir parchasi. Bu – olamda tinchlik bo‘lsin deganimdir. Yana men tip-tiniq suvgayam o‘xshayman. Axir – hayot oqin daryo-da. Tilagim uning bag‘ri hamisha shaffof bo‘lsin. Hech qachon loyqalanmasin.

bola: - Men qizil rangdurman. Bamisoli tomirlarda oqqan qondurman. Hamma-hammani Vatan bayrog‘i ostida yashashga, mehnat qilishga, kurashishga chaqiraman.

bola: - Men oq rangman. O‘zim ham oq, ko‘nglim ham oq, qilar ishlarim esa pok. Shuning uchun ham maqtovim ko‘proq, uzoq-uzoqlarni ko‘rayin deb, elga “oq yo‘l” tilayin deb bayroqdan o‘rin oldim va unda mangu qoldim.

bola: - Men yashil rangdurman. U nima degani? Yashillik yasharish – yashnatish, ertangi kunga ishonish degani. Nonu-nasiba, sof ob-havo, sog‘u omonlik degani. Orzularim buyuk, yurt hamisha yashnab tursin. Dundul otdek kishnab tursin.

bola: - Oymomoman, oymoma. Ertaklarga boy momo. Ko‘rinishimiz uch yoki to‘rt kunlikdir. Niyatlarim odamlarga to‘kinlikdir. O‘y sursalar o‘ylariga sirdoshdurman. Yo‘l yursalar, yonlarida yo‘ldoshdirman. Tinch tunlarni tinch kunlarga ulayman. O‘zbekiston sharafini olam aro so‘zlayman.

bola: - O‘n ikki yulduz – o‘n ikki oymiz. Jamlasangiz, bir yilga joymiz. Kim qandoq yashadi, yaxshimi yomon? Hech ikkilanmay baholaymiz. Yana biz

o‘n ikki yulduz, o‘n ikki burjmiz. Oyu, quyosh bilan harakatdamiz. Fasllar o‘zgaradi. Yangi kun, yangi odamlar tug‘iladi, barida ishtirokimiz bor. Biz aks etgan yurt Bayrog‘i ham, o‘zi ham dunyo turgunicha tursin, deymiz.

1-boshlovchi: Vatanimiz mustaqillikka erishgach, Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan 1991 yilning 18 noyabrida "O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur hujjatda ta’kidlanganidek, milliy bayrog‘imiz davlat suvereniteti ramzlaridan biridir.

2-boshlovc[illegible]ekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida"gi qonun 1[illegible]ib[illegible] Hozir o‘quvchilarimiz shu moddalardan aytib berad[illegible]
bola: 1-mod[illegible]kiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining sxematik va rangli tasvi[illegible]plansi[illegible]
bola: 2-modd[illegible] O‘z[illegible]likasining Davlat bayrog‘i Respublika davlat suvereni[illegible]am[illegible]
bola: 3-modda. O[illegible]spubli[illegible]ining Davlat bayrog‘i xalqaro maydonda: O‘zbekisto[illegible]ubli[illegible]y delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safarlari[illegible]g‘i[illegible]ashkilotlarda, konferensiyalarda, jahon ko‘rgazmalarida, sp[illegible]ri[illegible]zbekiston Respublikasining timsoli bo‘ladi.
bola: 4-modda. O‘zbekiston Res[illegible]si[illegible]vlat bayrog‘i – bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘[illegible]o[illegible]og[illegible]a to‘q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘[illegible]ak s[illegible]matodir. Bayroqning uzunligi 250 santimetrga, kengli[illegible]nti[illegible]a teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning ke[illegible]r x[illegible]n en 40 santimetrga tengdir. Bayroqning o‘rtasidagi [illegible]a[illegible]g ch[illegible]ridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar [illegible]i.
bola: O‘zbekiston Davlat bayrog‘i BMT binosida, O‘zbe[illegible] elchixonalarida, hukumat uyida, viloyat va tuman hol[illegible] hilpirab turadi.
bola: Bayram kunlarida esa bayrog‘imiz hamma ma’muriy[illegible] peshtoqidan joy oladi.
bola: Respublikamizda o‘tadigan yirik sport musobaqalarida O‘z[illegible] bayrog‘i ko‘tariladi. Shuningdek, jahon chempioni bo‘lgan yurtd[illegible]i sharafiga ham Vatanimiz bayrog‘i ko‘tariladi.
1-boshlovchi: Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, [illegible] tinchligi va barqarorligi timsoli hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz ham yu[illegible] bayrog‘ini muqaddas bilib, uni ardoqlaganlar, ko‘z qorachig‘idek asraganlar. Davlatchiligimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq

NAMUNA

ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g‘alaba timsoli bo‘lgan
2-boshlovchi: Yer yuzida ikki yuzdan ortiq davlat, va, albatta, har bir davlatning o‘z ramzlari, bayrog‘i bor. Har bir bayroq ayricha rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon balqib turgan bayrog‘imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo‘lmasligimizni ko‘rsatib turadi.
1-boshlovchi:
Mustaqil Vatanim, ozod diyorim.
Qalbimiz baxshida zamonamizga.
Ilxomchim o‘zingsan. Kuylar qalb torim,
Jo‘r bol`ing azizlar , taronamizga.
2-boshlovchi:
Prezidentimizning xorijiy mamlakatlarga rasmiy tashriflari davomida bayrog‘imiz o‘sha yurt ko‘chalarini bezaydi. Yurtimizdagi bayram shodiyonalari, tantanalari chog‘ida ko‘chalarimizga ko‘rk bag‘ishlab turgan bayrog‘imiz har birimizda shukronalik hislarini uyg‘otadi.
1-boshlovchi:
Xalqaro miqyosida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishga qodir yoshlar safi tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, turli sport musobaqalarida g‘oliblikka erishgan yigit-qizlarimiz sharafiga yurt bayrog‘i baland ko‘tarilmoqda. Ana shunday lahzalarda qalblarimizda Vatan tuyg‘usi yanada kuchliroq jo‘sh uradi.
2-boshlovchi:Endi navbat Vatanimizni madh etuvchi she’rlarga
Bola: Moviy rang-osmondir,obihayot-chi Yashil rang-tabiat yangilanishi
Mangu tiriklikning mazmuni beshak. Yoshlik umidlari shodmonlik ramzi.
Oq rang-tinchligimiz,poklik oqligi Qizil chiziqlar bu-qalbda jo‘shgan qon
Orzu va xayollar sofligi demak. Navqiron yarim oy-hurlikning o‘zi.
. Bola: Qora o‘tmish qoldi ortda,
Dorilomon kunlar yurtda,
Mehr,-ko‘zda,muhabbatda,
Porla,millat bayrog‘i !
Bola:Osmon to‘la yulduz –oppoq, Mangulik hur yo‘lidasan.
Bir-biridan chaqnar biroq- O‘ngidasan so‘lidasan,
O‘n ikkisi eng yarqinroq. Ozod xalq qo‘lidasan,
Porla Millat Bayrog‘i Porla Millat Bayrog‘i.
Bola: TOPISHMOQ
U baxtimiz timsoli,
Quyosh kabi porlaydi.
Xalqimizni doimo
Zafarlarga chorlaydi.
Bola:O‘zbekiston. Orif To‘xtayev she’ri
Ozod vatan, hur Vatan,

Tuprog‘I zar, dur Vatan.
Ko‘zimizga to‘tiyo
Aylasak arzir Vatan
Serquyosh O‘zbekiston.
Beqiyos O‘zbe[illegible]ston!
Jilvalanar ja[illegible]
Yurtlarni[illegible]noli.
Bir V[illegible]or
Ha[illegible]

Serquyosh O[illegible]
Beqiyos O‘zb[illegible]!

Tenglar ichra tehg[illegible]
Eng muqaddas, eng b[illegible]
Ko‘pdir sarhadi kenglar,
Bunday bag‘ri kengi yo‘q-[illegible]

Serquyosh O‘zbekiston.
Beqiyos O‘zbekiston!



NAMUNA

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

________________________shahar (viloyat)

____________tumani "____________" nomli

__-maktabgacha ta'lim tashkiloti

tayyorlov guruhi tarbiyachisining

20__-20__-o'quv yilida

# O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbir

# SSENARIYSI



NAMUNA

Tadbir o‘tkaziladigan joy bayramona bezatilgan. Chor atrofga Konstitutsiyamizga bag‘ishlangan shiorlar, devoriy gazetalar ilib qo‘yilgan. Shuningdek, siyosiy adabiyotlar, bolalarning qomusimiz haqida yozgan ma’ruzalari, ijodiy ishlari ko‘rgazmasi tashkil etilgan.
(Magnitofon tasmasidan Vatan haqidagi kuy taraladi va sahnaga adabiy kecha qatnashchilari chiqadi).
1-boshlovchi — Qo‘lingda erk boshda yalov, tilingda shurud,
Vataning bor, bog‘cha-bog‘chang, or-nomusing bor.
2-boshlovchi:-O‘zbekiston deb atalgan muqaddas hudud,
O‘z Davlating, Qomusing, o‘z madhiyang bor
MADHIYA YANGRAYDI
1-boshlovchi: Shukrona aytamiz qutlug‘ kunlarga,
Ma’noga, mazmunga to‘liq kunlarga.
Farovon, nurafshon ulug; kunlarga,
Ey, ozod diyorim – O‘zbekistonim!
Ey, ozod diyorim – O‘zbekistonim!
2-boshlovchi: Yangi davrv keldi, o‘zgardi zamon,
Zamon zayli bilan o‘zgardi inson.
O‘zgardi jamiyat, o‘zgardi hayot,
O‘zgardi qo‘shig‘-u o‘zgardi hayot!
“Assalom “ qo‘shig‘i
1 – boshlovchi:-Assalomu alaykum, azizlar, qalbi otash, mehri quyoshlar. Mana bugun qomusimizning 15 yillik bayrami munosabati bilan Baxtnomamizni kuylash sharafiga ega bo‘lib turibmiz. Bayramga bag‘ishlangan tadbirni, marhamat, tomosha qiling
2 –boshlovchi
Baxtiyorman hur elimning
Adolatli shioridan,
Xalqim dildan ulug‘lagan,
Tafakkuri, qaroridan.
Qoyil qolsin ro‘yi zamin,
Odillikdan, adolatdan.
O‘quvchi-Shahzoda
Mana, ko‘ring, havas qiling,
Unib o‘sgan hidoyatdan.
Saodatli elga baxt yor,
Iymonu e’tiqodim bor.
Munisgina onam kabi,
Istiqlolim baxtimga yor.




bo‘ldi.
O‘zbekiston- ozod ,hur Vatan!
Quchoqlari to‘la nur Vatan!
Istiqloling abadiy bo‘lsin,
Dunyolar turguncha tur,
Vatan!
2-bola: 1991-yil 31-avgust O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qildi.
Mustaqillik kuni muborak bo‘lsin.
Toabad istiqlol oftobi kulsin.
Mustaqillik berdi bizga saodat,
Berdi e’tiqod-u, keng imkoniyat.
“Mustaqil Vatan “ qo‘shig‘i
3-bola: 1992-yil 2-mart O‘zbekiston Respublikasi BMT a’zoligiga qabul qilindi.
Sen ham endi tenglar ichida tengsan,
Bag‘ri butun yurtsan va bag‘ri




kengsan.
Sendek xalqimning ham bag'ri butundir,
Dunyo binosida bitta ustundir.
Millatlar uyida barcha qatori
Uning xos o'rni bor- qatorda nori
4-bola:
Yaxshilar tuf [illegible] zod diyorim,
Ozodlik t [illegible] diyorim,
Eng O [illegible] chekkanda imzo.
Ya [illegible] o' [illegible] rizo.
[illegible] u.
[illegible] u .
Isti [illegible] ngan ch [illegible] ida.
U tug'i [illegible] ning b [illegible]
Mustaq [illegible] gan o [illegible]
O'zbekka y [illegible] ash [illegible]
Konstitutsiya [illegible] ina [illegible]
U biz uchun eng [illegible]

1-boshlovchi: Mustaqil [illegible] onnin [illegible] tsiyasi, Prezidentimiz qayd etganidek, o'zining tu [illegible] i, fal [illegible] a ko'ra yangi hujjatdir. Undagi g'oya va printsiplar fuq [illegible] jam [illegible] y davlatni shakllantirishga asos qilib olingan.

2-boshlovchi: Asosiy Qomus [illegible] al [illegible] l omillari ko'rsatib berilgan. CHunki ham [illegible] ami [illegible] izda amalga oshirilayotgan barcha ishlar, siyosiy [illegible] madaniy islohotlarning hammasi xalq, inson manfaatlari, un [illegible] rm [illegible] yaxs [illegible] a xizmat qiladi. Har bir kunimizning baxtli, dasturxonimi [illegible] nado [illegible] ' bo'lishining negizini tashkil etadi.

5-bola: 1-modda: O'zbekiston suveren demo [illegible] atik [illegible] Dav [illegible] O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston degan n [illegible] xil [illegible] iradi
Karnay-surnay ovoz berdi jahonga,
Jahonni qaratdi O'zbekistonga.
Temurning ruhiga qilib qasamyod,
Yolboshchimiz etdi xalq dilini shod,
Yo'lboshchi so'zini ettirdi davom,
Dilida xalqiga chuqur ehtirom
Hech hazon bo'lmasin biz kezgan chaman,
Bizdan qolsin ozod va obod Vatan.
6-bola:
Marifat bo'stoni ezgu dostoni,
Dostligu tinchlikning metin qo'rg'oni,
Ey, ozod diyorim, O'zbekistonim.
Ey obod diyorim O'zbekistoni!

" Do'ppi tikdim" raqs

7-bola: 3-modda: O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini,davlat hokimyati va boshqaruv organlarining tizimini
belgilaydi, ichki va tyashqi siyosatini amalgam oshiradi. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir.
Dunyo xaritasin bezab shersimon,
Qulochini yoydi hur O'zbekiston.

NAMUNA

Xaritaga soling diqat nazarin,
Ko‘ring, havas qiling yurtim
manzarin.
U qaddin rostlagan sherga o‘xshaydi.
Pahlavon, bahodir erga o‘xshaydi.
Istibdod zanjirin uzib batamom,
O‘zligin olamga etdi namoyon.
Ozod nafas oldi bu jaho aro,
Va dunyo bog‘iga baxsh etdi oro.
8-bola: 4-modda: O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.
O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.
Shu tilda Temur bobo
Lashkarga buyruq bergan .
Navoiy tuzgan navo,
Bobur gavharlar tergan
“Til- xalqning shavkat- shoni”,
Bu bobolar kalomi
Ona tilim unvoni Davlat tili maqomi
9-bola: 5-modda: O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan o‘z davlat ramzlari- bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.
Olam ahli bilan qilib barobar,
Ayladi qadrdon, do‘st-u birodar.
Chiqardi millatlar uyin to‘riga,
Umr qo‘shdi O‘zbekiston umriga.
Mulki jahon bayroqlari qatori,
Shula sochdi bayrog‘imiz sharori.
Olam aro madhiyamiz yangradi,
Eshitganki, kishi joni yayradi.
Mustaqillik bergan oliy baxtdir bu,
O‘zbekka yarashgan toj-u taxtdur bu!
“Yurt bayrog‘i” qoshig‘i
10-bola: 6-modda: O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri.
Ey ko‘hna diyorim, ona Toshkentim,
Tarixda nomi Choch, gohi
Shoshkentim!
Binkentu, Banokat, ko‘zi yosh
kentim,
Egilgan, sinmagan, boshi
Toshkentim!
11-bola: 7-modda: Xalq davlat hokimyatining birdan-bir manbayidir.
Adolatning qo‘yib tamal toshini, Yo‘lboshchi ko‘tardi xalqning
boshini.
U tinim bilmasdan ishladi shoyon.
Konstitutsiyaga fido qildi jon.
Birnchi o‘ringa qo‘yib insonni,
Inson sharafiga baxsh etdi jonni.
Qonunlar insonga qilmasa xizmat,
Qonunlar insonni etmasa izzat.
Qonun emas, dedi undayin qonun,
Qonunda Insondir zori Humoyun.
Davlatning sharafi, shoni insondir,
Tanasi, yuragi, joni insondir.

12-bola: 29-modda.Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega.
Har kim o‘zi istagan axborotni izlash , olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi
konstitsiyaviy tizimga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa
cheklashlar bundan m[illegible]snodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat
davlat siri va bosh[illegible] taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan
cheklanishi m[illegible]
Fikrlash, so[illegible]
Erkinlig[illegible]
Tafakku[illegible]
Jo‘sh urar [illegible]
“Avval o‘yla”[illegible]
Fikrlaymiz o‘yl[illegible]
So‘zga navbat kelg[illegible]nda[illegible]
Odob bilan so‘zlaym[illegible]
13-bola: 31-modda: Ha[illegible]rkinlig[illegible]folatlanadi. Har bir
inson xohlagan diniga e’tiqod q[illegible]hech [illegible]a e’tiqod qilmasligi
huquqiga ega. Diniy qarashla[illegible]an s[illegible]l qo‘yilmaydi.
Tiklandi iftixor va milliy g‘uru[illegible]
Endi o‘zbekman deb ayturmiz
mag‘rur.
Tiklandi an’ana, urf-odatimiz,
Tiklandi qadriyat tarix va moziy,
E’tiqod, din-iymon, ilmiy ilohiy.
“Andijon polkasi” raqs
14-bola: 40-modda. Har bir inson malakali Tibbiy[illegible]dan f[illegible]
huquqiga ega.
Betob bo‘lib , botib g‘amga,
Yotib qolsk
nogahon.
Shifokorlar tez yordamga
Yetib kelar shu zamon.
Malakali tibbiy xizmat
Ko‘rsatadi shifokor
Elga xizmat – oily himmat
Sahna ko‘rinishi
13-bola: 41-modda: Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy
ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Bog‘cha ishlari davlat nazoratidadir.
Ilmli kishini qadrlar zamon.
Ne zamon qadrlar jumlayi jahon,
Ilm bilan bezar umrini bashar.
Ilm-katta boylik, ilm-siymu zar,
Ilm bilan bezar umrini bashar
Umri oqibatda topgaydir qadr,
Ilmdan yaratdi eng oliy qasr.
14-bola: 2004-yil 22-may “2004-2009-yillarda bog‘cha ta’limini
rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi. 2017
yil 15 martda “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizom” qabul qilindi.
15-bola: 49-modda Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va
madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat
muhofazasidadir
Obidalar, qo‘lyozmalar
Ham osori atiqa,
Bobolardan xabar berar,
NAMUNA

Har nafas,har daqiqa.
Yodgorlikni asrar bo‘lsang
Asraganday ko‘zingni,
Shunda saqlab qolajaksan
Kelajakni, o‘zingni
16-bola: 50-modda Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar
Bugun ekkan qalamchang
Ka-a-tta terak bo‘ladi.
Faqat uni avaylab
Asrash kerak bo‘ladi
Tog‘ go‘zal, o‘tloq go‘zal,
Sevamiz gulatrini.
Esda tutaylik, do‘stlar,
Tabiatning qadrini
Kamalak” qo‘shig‘i yangraydi
17-bola: 55- modda Yer,yer osti boyliklari , suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.
Yer,yer osti boyliklar,
Suv, o‘simlik dunyosi-
Umummilliy xazina,
Topilmaydi qiyosi.
Qanoat, insof darkor,
Tagi mo‘l bo‘lgan bilan,
Kelajakning haqqi bor,
Oqilona foydalan!
18-bola: 64-modda: Ota- onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdilar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va otaonalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.
Ko‘zlarida mehr bor, so‘zlarida sehr bor,
Beshik ustida bedor- mehribon onaizor.
Oq yuvib, oq taragan, yo‘limizga qaragan,
Ko‘nglimizga qaragan- mehribon onaizor.
Ota-oila suyanchi,tog‘dek ulug‘ tayanchi,
Biz tufayli quvonchi, baxtimizdan baxtiyor,
Sog‘-salomat yursinlar, kamolimiz ko‘rsinlar,
Ertaga ham bo‘lsinlar baxtimizdan baxtiyor
19- o‘quvchi: 66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z otaonalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar
Jonajon onajon!
Mehribon otajon!
Siz hayot ferdingiz,
Bol, novvot berdingiz.
Quyoshim, oyimsiz,
Bor bo‘ling doim Siz!
Ulg‘ayib albatta,
Bir umr xizmatda
Bo‘lamiz begumon,
Otajon, onajon
“Tinchlik bo‘lsin” qo‘shig‘i
20- o‘quvchi: 68- modda O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, qvullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan

iborat
Viloyatlar, t[illegible]manlar,
Shaharla[illegible]archalar,
Qishl[illegible]llar va
Q[illegible]on-
[illegible]bo‘[illegible]
[illegible]
[illegible]klardan
[illegible]o‘ston!
1-b[illegible]Konsti[illegible] andozasida yozilgan, ilg‘or va
takoi[illegible]ngan O[illegible]iy-demokratik davlatning eng asosiy
qonuni [illegible]izning qanchalar mukammal ishlab
chiqilishi, [illegible]a a[illegible]shi
2-boshlovchi[illegible]nfaatla[illegible]xizmat qilayotganligi yurtdoshlarimizning
ertangi kuni porloq[illegible]olat b[illegible]ustaqillik,
ozodlik va xalqpa[illegible]oyal[illegible]ib, kelajakda
O‘zbekistonning buy[illegible]avl[illegible] mi[illegible]lashga kodirdir.
Aql Adolatni etur ustuvor[illegible]
Adolatli jamiyatga bergan[illegible]
Qomusimiz nodir, tengsiz va[illegible]lo[illegible]
Vatan posbonimiz bo‘laylik hu[illegible]
Nifoq urug‘ini sochmasin ag‘yor,
Fidoyi bo‘laylik Mustaqillikka,
Bizni chorlamoqda haq ahillikka.
“Xorazmcha “ raqs
1-boshlovchi: Mana O‘zbekiston Respublikasi[illegible]lligi[illegible]ga
bag‘ishlangan tadbirimiz nihoyasiga yetib born[illegible]
2 boshlovchi: Hozirgi so‘zni bog‘chaimiz rahbar[illegible]
Inoyatxodjayevaga beramiz.
1 boshlovchi: Tenglarning ichida bugun teng o‘zim,
Jahoniy to‘nlarga yoqa, eng o‘zim,
Dunyolar bag‘rimda, bag‘ri keng o‘zim,
2-boshlovchi:Ey, mening o‘zligim — g‘ypyp, nomusim,
Konstitutsiyam — oliy Qomusim.
Aqlga tayangan Qomusimiz bor,
“Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston” qo‘shig‘i

NAMUNA

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

# M[illegible]ACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

___[illegible]________shahar (viloyat)

__________[illegible]_tu[illegible]n "_____________" nomli

__-m[illegible]kt[illegible] ta'lim tashkiloti

tayyorl[illegible] g[illegible]achisining

20__-20__[illegible] yi[illegible]hun

# 10-DEKABR MAD[illegible] QABUL QILINGAN [illegible]GA BAG'ISHLAB O'T[illegible]A[illegible]AN "MADHIYANI- KUYLA[illegible]OMI BAYRAM

# SSENARIY[illegible]

NAMUNA

Vatanimiz ravnaq topsin,
Shunday orzu -o‘yimiz
Osmonimiz musaffo,
Tiniq bo‘lsin suvimiz.

**MADHIYANI- KUYLAYLIK”**
**BAYRAM DASTURI**

Maqsad: Bundan [illegible] muqaddam «O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi» qabul qilingan edi [illegible] i[illegible] O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi dunyoda eng xaqchil, a[illegible] [illegible]si sifatida tan olindi. Bolalarga kichik yoshlaridan boshlab ular[illegible] o[illegible] [illegible]sh bu[illegible]ngi kunning asosiy talablaridan hisoblanadi. Chunki o‘z haq[illegible], erk[illegible] [illegible]burchlarini yaxshi bilgan har bir yosh hur fikrli, irodali va ma[illegible]iy[illegible] [illegible]i.



**1-boshlovchi:** *Shukron[illegible] qut[illegible] [illegible]larga,*
*Ma’noga, m[illegible] [illegible]kunlar[illegible]*
*Farovon, nurafs[illegible] [illegible] kun[illegible]*
*Ey, ozod diyorim – [illegible]bel[illegible]*
*Ey, ozod diyorim – O‘[illegible] [illegible]*

**2-boshlovchi:** *Yangi davrv keldi, o‘zgardi[illegible]*
*Zamon zayli bilan o‘zgardi ins[illegible]n.*
*O‘zgardi jamiyat, o‘zgardi hayot,*
*O‘zgardi qo‘shig‘-u o‘zgardi hayot!*

1-boshlovchi: Mustaqil diyor - xazonsiz bahor.
Bir munavvar kelajagi bor.
2-boshlovchi: Ey, bugun bag‘rimda chandon yig‘lagan
Dardlarda o‘ktam ming imkon tug‘ildi
O‘tmishni, ertamni suygan, alqagan
Mustaqil elimda yorug‘ yo‘l endi!

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, tadbirimizda ishtirok etayotgan [illegible]onalar davramizga fayz qo‘shib turgan hurmatli ustozlar va bilimga chanqoq bo[illegible] Ma[illegible] kun yurtimizda katta tantana, chunki 10- dekabr O‘zbekiston R[illegible] Madhiyasi qabul qilingan kun.

2-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi O‘zbekistonda yash[illegible] turgan barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi va burchla[illegible] belgilab beradi.

« Vatan » *qo‘shig‘i kuylanadi.*

1-bola: Qani menga ayt oshnam 10- dekabr qanaqa kun?
2-bola: 10-dekabr madhiya qabul qilingan kuni kim ham bilmaydi buni
1-bola: O‘z haqqi-huquqingni bilasanmi, o‘rtoqjon?
Aytchi Madhiyamiz qabul qilingan qachon?

NAMUNA

3-bola: (qo‘lida zarhal harflar bilan
O‘zbekiston Respublikasi
Madhiyasi deb yozilgan kitob.
Bu kitobda hammasi
To‘liq yozilgan bayon
O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi 1992 yil 10-dekabr kuni qabul qilingan.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.Shoir Abdulla Oripov va Mutal Burxonov tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasida o‘lkamizning

1- yoshlar ular hoxlagandek farzandlar bo‘lib yetishishga va’da beramiz.
Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyev ham yoshlar,keksalar uchun va jamiki xalq uchun koplab ishlarni amalga qisqa muddatlarda amalga oshirmoqdalar. Shu bilan birgalikda ,,Harakatlar strategiyasi,,ni ishlab chiqib undagi vazifa va ishlarni yo‘lga qo‘ymoqdalar. (strategiya haqida bolalar qisqa aytib beradilar.)
I.davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish.(Moviyrang-osmon va toza suv ramzi,buyuk A.Temur davlatining bayrog‘I rangi).
II.Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud xuquq tizimini yanada isloh qilish.
(Siyohrang-qonuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va or-nomuslik ramzi).
III.Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.
(Tillarang-iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi).
IV.Iqtisodiyot sohasini rivojlantirish.
(Qizil rang-xayot va aholining munosib turmush tarzini ta’minlash ramzi).
V.Xavfsizlik,diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik,o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.
(oq rang-tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi).
Aziz tengdoshlar! Yurtimizning barcha ramzlarini qunt bilan o‘rganaylik va unga amal qilaylik.

Xalq idrokida bayroqning yuqori qismi O‘zbekistonning doim moviy osmonini, bayroq o‘rtasi xalqimizning oq ko‘nglini va uning oq paxtasini, bayroqning tub qismi esa bizning cheksiz yashil dalalarimiz va tabiatimizni ifoda qiladi. O‘n ikki yulduz-keng va behad
O‘zbekistonimizning azaliy tariximizga sodiqligini bildiradi, yarim oy esa yurtimizning tarixiy an’analari bilan bog‘liq. Ayni paytda qo‘lga kiritilgan mustaqilligimizdan darak beradi, bayroqdagi ikki qizil yo‘l-mavjud birlik va buzilmas do‘stlikka erishish uchun yurtimiz farzandlari qon to‘kkanlariga ham ishora qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining  Davlat bayrog‘i mamlakat Prezidenti, Oliy Majlis,
O‘zbekiston hukumati, mahalliy davlat  idoralari,
O‘zbekistonning turli vakolatxonalari ish  olib borayotgan binolarda,
O‘zbekistonning rasmiy delegatsiyalari  qatnashayotgan xalqaro tadbirlarda ko‘tariladi.
Bu qoidalar alohida qonun asosida belgilangan.
O‘zbekiston Res[illegible]blikasi  Davlat bayrog‘iga  nisbatan hurmatsizlik
bildirgan sha[illegible] tashkilot  belgilangan tartibda jazolanadi.

Bayroq haqida qo‘shiqlar ijro etiladi.

2- [illegible] [illegible]n mehmonlar, tadbirimiz qatnashchilari! Konstitutsiyamiz zam[illegible] [illegible]larning kelajagi ko‘zlangan. Bu ishlar muhtaram Birinchi Preziden[illegible] [illegible] Karimov [illegible]oshchiliklarida  amalga oshirildi.

boshlovchi: s[illegible] [illegible] bobomizga rahmat aytamiz,biz ularni doim yodda tutamiz.Oxiratla[illegible] [illegible]
serquyoshligi xalq[illegible] [illegible]kengli[illegible] ajdodlarimizning buyukligi va boy tariximiz va butun dunyoni lol qil[illegible] [illegible]k m[illegible] [illegible]imiz madh etilgan.

Dunyoda bor turli ma’lu[illegible]
Samolarda izlardi hayot.
Ming taxminu, ming bir gumo[illegible]
Berolmasdi biror ma’lumot.
Ne donolar quyoshga shoshdi,
Yulduzlarchi insondan qochdi.
Galileydan oldin Ulug‘bek,
Falakiyot sirini ochdi.
Shundan tiniq, toza osmonim,
Ona yurtim – O‘zbekistonim.

Komil Sindarov

**1-bola: Ozod, erkinlikning**
Ramzi - bu qo‘shiq
Unda aks etgandir
Haq -huquqimiz
Yo‘limiz yoritar
Misoli  oftob
qo‘lda baland tursa
Agar tug‘imiz

**4-bola: Millionlar  taqdiri**
Unda mujassam.
qomuslar-qomusi
Deydi xalqimiz.
Yer sharin yoritdi
O‘zbekiston ham,

NAMUNA

Yurtga fido bo‘lsak,
Kular baxtimiz
5-bola: «Baxtimiz kitobimiz» qo‘shig‘ini kuylaydi
Hayotimiz qonuni
Baxtnoma kitobimiz
Olam-olam mazmunli
Baxtnoma kitobimi
O‘ylaydi yurt i
Baxtnoma kito
Ochdi yurtim jamolin
Baxtnoma kitobimiz
Yo‘qlar o‘zbek tilini
Baxtnoma kitobimiz
O‘ylar elim baxtini
Baxtnoma kitobimiz
6-bola: Prezident bobor
Bizga g‘amxo‘r, mehribon
Yurt tinchligin ko‘zlaydi
Xalq baxtidan so‘zlaydi.




7-bola: O‘zbekiston qo‘ynida
Har bir tuman, viloyat
Kunga -kunga yashaydi




Sohibqiron Amir Temurning yurishlarida lashkar oldida uning tug‘i- bayrog‘i olib yurilgan.

NAMUNA



Mustaqilsan onajon
Seni tan oldi  jahon

Hamma:           O‘zbekiston - erkin, hur
                 To dunyo turguncha tur!
O‘zbekiston onajon
Ne xizmat bo‘lsa, buyur!

Hilpira, bayrog‘im, hilpira mag‘rur,
Ozod, hur xalqimga bag‘sh etib surur.
Birlashgan millatlar koshonasida,
Hilpira bizlarga bag‘sh etib g‘urur.

Qadimdan ham jahon tarixida davlatlar mavjud ekanki, ularning ramzlari bo‘lgan. Bu ramzlar mazkur davlat fuqarolalariga go‘yoki ruxsatnoma yoxud hujjat hisoblangan. Buyuk Amir Temur bobomiz davlat ramzlariga juda yuksak siyosiy ahamiyat berganlar. Jumladan, jang maydonida lashkardan bir nafari omon qolsa ham, u mamlakat bayrog‘ini baland tutsin, deb farmon berganlar. Bayroqning egilishi mag‘lubiyat belgisi deb qabul qilingan.

Har bir davlatning o‘z bayrogi bo‘ladi.

Kamol topar, tiklar qad

**8-bola:  O‘zbekiston tayanchi**
Qurolli kuchlari  bor
U xalqning suyanchidir.
Dushman quturar bekor

9-bola: Mustaqil O‘zbekiston dadil tutib o‘zini,
Bormoqda o‘z yo‘lidan
Aytmoqda o‘z so‘zini.
10-bo[illegible]

**[illegible]i insonlarga**
[illegible] o‘z[illegible]ton
[illegible]nga
B[illegible]g‘i- do[illegible]n
*([illegible] kuyi [illegible]raqs ijro etiladi)*
To[illegible]iriq[illegible]
Madh[illegible]i k[illegible]t to‘g‘ri joylashtiring
Yashnag[illegible]fan, ij[illegible]
Shuhrating p[illegible]ki bo[illegible]

Serquyosh hur o‘lk[illegible]najot
Sen o‘zing do‘stlarga[illegible]ido[illegible]

Ajdodlar mardona ruhi se[illegible]ga y[illegible]
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbe[illegible]

Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon[illegible]
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!
Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,

Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash`ali, tinchlik posboni,

Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,

Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Olamni mahliyo aylagan diyor!
Bola: Lug‘at ustida ishlash.
Madhiya –kishi,narsa,biror voqea maqtab yozilgan she’r,nutq.
Najot-zarur yordam
to abad-umrbod,hamisha
*mangu-abadiy* *“SWOT”texnologiyasi*

NAMUNA

*S-Kuchli tomoni:O'quvchilarni davlatimiz madhiyasini hurmat qilishga undash.*
*W-Kuchsiz tomoni:Haddan tashqari ko'p ijro ,behurmatlikka olib keladi.*
*O-Imkoniyat:Tadbir, dars va boshqa yig'ilishlarda foydalanish.*
*T-Tahdid:Layoqatsizlik,beparvolik*

**Bola: O'zbekiston, onajon**
Mustaqilsan, erkin, hur
Baxt quyoshi istiqlol
Boshing uzra sochgay nur.
Ey, o'zbeklar vatani
To dunyo turguncha tur.

**Bola: Tarixing juda uzoq**
Ildizing juda chuqur SHirog'u,
Jaloliddin Farzandlaring mardu, jasur
Lol qoldirgan dunyoni
Jahongir bobom Temur.




Bola: Darding ko'p boshing uzra
Tinmadi hech jang, ur-sur
Ulug'beklar nomingni
Jahonga qildi mashhur
Bir umr seni qo'msab
Sog'inib o'tdi Bobur

**bola: Onajonim baxtimga**
Istiqlol bo'ldi shukur
O'zin tanib O'zbeklar
Uyg'ondi milliyg'urur
O'z gerbing o'z madhiyang
Tug'ing xilpirar mag'rur



bola: 41-modda- Har bir fuqaro bilim olish huquqiga ega.
Bola: 49-modda - Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy-ma’rifiy merosini avaylab-a[illegible]hga majburdirlar.

B[illegible]dd[illegible] fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda [illegible].

Bola[illegible]a - V[illegible]tgan, mehnatga layoqatli fuqarolar o‘z ota-onalariga g‘am[illegible]k qil[illegible]irlar.

*Hamma:* K[illegible]rgani[illegible]burchimizdir. *(«Ouvnoqlar qo‘shig‘i» kuylanadi)*

O‘qituvchi : Bo[illegible]gun[illegible]n O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi mualliflari bilan ch[illegible]M[illegible]hiya”so‘zi – Madh so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, maqtov, ulug‘la[illegible]ldiradi.Har bir davlatning madhiyasida o‘z xalqi, yurti va milliy bo[illegible]an. Madhiyamiz matni O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oropov q[illegible]bo‘l[illegible]hoir unda yurtimizning go‘zalligi va boyliklarini juda zo‘r ta’rifla[illegible]

Sizlar bilan bugun Abdulla Oripo[illegible]a M[illegible]noy[illegible]yoti va ijodi bilan tanishamiz.A. Oripov 1941 yilda Qashqa[illegible]tug[illegible]ta maktabni a’lo baholarga tugatib, Toshkent Davlat Unive[illegible]tin[illegible]tika[illegible]ultetiga o‘qishga kirdi. Oliygohni muvaffaqiyat bilan tugatib, [illegible]r yu[illegible] mehnat faoliyatini boshladi.Yillar davomida shoirning bir qanch[illegible]pla[illegible]ari bosilib chiqa boshladi . Bu to‘plamlar xalqimizni Vatanga, i[illegible]batli bo‘lishga, tabiatni sevish va ardoqlashga, imonli va v[illegible]onl[illegible]lug‘lashga o‘rgatdi. Hozirgi kunda Abdulla Oripov Hamza nomidagi [illegible]a Davl[illegible]foti hamda, “O‘zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvon ega[illegible].

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.

Nechun Vatan deya ona xalqimni
Muqaddas atayman , atayman tanho. Deb boshlangan she’rlari har b[illegible]zbek farzandining qalbidan mehr va faxr ila joy olgan.

Mutal Burxonov-musiqa, qo‘shiqqa qiziqish uyg‘onganda 5-6 yoshli bola eda.Otasi va amakisini yo‘qlab musiqachi do‘stlari tez-tez ularning uylariga yig‘ilib

NAMUNA

turishardi.Hovlilarida tonggacha musiqa ,kuy- qo‘shiq yangrab turardi. Kichkinagina Mutalning bu qiziqishini ko‘rgan amakisi uni “kichkina sozanda ” deb , unga tanbur sovg‘a qilibdi.Tanburdan chiqayotgan navolar shunchaki qiziqish emas, balki uning doimiy mashg‘ulotiga aylanib qoldi.

Yillar o‘tib “Ozbekiston xalq artisti” unvoniga ega bo‘lish va har tong o‘zbek xalqini tantan[illegible]ir qo‘shiq bilan uyg‘otish ulkan baxt edi.O‘zbekiston madhiyasi dunyodagi [illegible]nli madhiyalar safidan o‘rin egalladi. Bu muvaffaqiyatga erishish[illegible] o‘z[illegible]k xalqi ohanglarini yaxshi bilganidan va chuqur musiqavriy bili[illegible]edi. Davlat madhiyasi Mutal Burxonovni yashashga, kur[illegible]aati uchun xizmat qilishga undadi.

III Ya[illegible]gun ij[illegible]ri bilan tanishgan shoir va bastakorning she’r va qo‘shiql[illegible]lish vazifasi topshiriladi.

Yozgin , de[illegible]. A. Oripov

Shoir bir she’ri[illegible]gul[illegible]
Uni o‘qiganlar :-[illegible].
Yana bir she’rida yozdi[illegible],
Yani ham: Bu –eski a[illegible]edil[illegible]

Nahot odamlarda so‘ngan aqida,
Nahot she’r yo‘lidan ozgin , dedilar.
Shoir she’r yozgandi Ona haqida
Yozaver dedilar, yozgin !- dedilar.

Shoir kunlarini uladi tu[illegible]
Borliqni vasf etib, ayladi xo[illegible]
Parvo qilmadilar baribir unga[illegible]
Dedilar:-Bu gaplar hammasi tanis[illegible]

Shu bilan birgalikda O[illegible]kist[illegible]spubli[illegible] Konstitutsiyasi haqida ma’lumotberiladi. Bola:
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [illegible]o‘lim[illegible]28 [illegible]oddadan iboratdir.

Bola: 1-modda - O‘zbekiston suveren -[illegible]rati[illegible]lika. «O‘zbekiston Respublikasi» va O‘zbekiston degan nomlari b[illegible]no[illegible].

Bola: 4-modda- O‘zbekistonda Davlat tili - o‘z[illegible]

Bola: 5-modda - O‘zbekiston Respublikasi q[illegible] tas[illegible]an o‘z davlat ramzlari - bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.

Bola: 6-modda- O‘zbekiston Respublikasining poytaxti- To[illegible]t s[illegible]

Bola: 24-modda: yashash huquqi har bir insonning uzviy huq[illegible]

Bola: 37-modda- Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, [illegible] m[illegible] sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikda[illegible]n hi[illegible]sh huquqiga egadir.

Bola: 40-modda- Fuqarolar tibbiy malaka xizmatidan foydalanish huquqiga ega.

NAMUNA

# MAKTA[illegible]GACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

____________________________shahar (viloyat)

______________[illegible]an “______________” nomli

__-[illegible]cha [illegible]’lim tashkiloti

tayyor[illegible]gu[illegible]yachisining

20__-20[illegible] o[illegible]hun

## ”YANGI YIL[illegible]TA[illegible]Z”

## NOMLI TAD[illegible]

# SSENAR[illegible]I

NAMUNA

Musiqa xonasi qish libosida bayramona bezatilgan. Engil musiqa sadolari ostida bolalar kirib archa atrofida davra quradilar.

**Boshlovchi:** Yangi yilda olam uzra qorday yog‘sin tilaklar
Zafarlardan, baxtdan so‘zlab tog‘day o‘ssin yuraklar.
Olam go‘zal, xayot shirin, ko‘ngillar shod bo‘lgan chog‘
Qorning ajib ertaklarin tinglab dilda unsin bog‘.

Tinglangiz axli yoronlar dil tilak sizlar uchun, yurakda qutlug kalom siz aziz insonlar uchun, Olloxning kalomi ila, o‘zbekning salomi ila, bayram kechasini ochilishini sabrsizlik bilan kutib turgan, siz aziz insonlar uchun, «Yangi yilni kutamiz» deb nomlangan badiiy kechamizni ochik deb e’lon qilamiz. Yaqinlashib kelayotgan 2023-yangi yilingiz muborak bo‘lsin!

2023-yil quvonchlarga to‘ldi dil
Ko‘plarga bo‘ldi dalda, yurtda yangraydi yalla!

**Bola:** O‘rmondan kelgan mehmon salom senga archajon
Yil buyi kutdik seni biz yana kuvnok shodon.

**Bola:** Axil bo‘lib, shod bo‘lib xur yoshlikdan o‘rgilib
Ming ochilib, ming kulib yangi yilni kutamiz!

**Bola:** Dilimizda orzu mo‘l, yuzimizda kulgu mo‘l
Qayg‘uni unutamiz yangi yilni kutamiz!

***Ashula «Archa» qushig‘i M.Ikromova mus.***

**Boshlovchi:** Soat millarida oxirgi daqiqalar
Eski yilni kuzatib qolamiz bugun bizlar
Seni aslo unutmagay dil, xayr endi, xayr yilbobo
Kirib kelar bugun yangi yil,
Karnavalga Do‘stlar marxabo!

***(Musiqa ostida davraga bo‘ri va tulki kirib keladilar.)***

**Buri:** Tulkijon yur yangi yilga bayram dasturxonini tuzaymiz. Shu erdan Qorbobo va Qorkiz o‘tarkan. Kutvolib sovg‘a olamiz!

***(Bo‘ri qo‘shiq kuylaydi).***

Yomonlikdan yiroqman, hamma bilan inoqman
Qorbobo va Qorkizning sovg‘asiga mushtoqman.

**Tulki:** Voy, voy nima deyapsan? Sen sovg‘ani kutyapsan?
Yaxshisi qop olaqol, men bilan ov qilaqol!

Quyon, kirpi ovlaymiz, vaqtimizni chorlaymiz
Yangi yilni birgalikda mazza qilib qutlaymiz.

***(Musiqa ostida olmaxon kirib keladi)***

**Olmaxon:** Ayyor tulki unday dema bu bo‘rini yo‘ldan urma,
Quyon, kirpini ovlamang, yurak bag‘rini dog‘lamang!
Axir bu yil ajoyib yil yaxshilikka to‘lsin ko‘ngil
Sizdan qolsin yaxshi bir nom, mana yong‘oq bo‘ling mehmon!

***(Olmaxon ularga savatchada yong‘oq beradi. Ular quvnok kuy oxapgida bolalar oldiga oshiqadilar).***

**Qarg‘a:** Qor, qor, qor xali bir oz vaqt bor
Qorbobo va Qorqizning yo‘lin to‘sguvchilar bor!
Qochinglar, qochinglar bu erga burni qalmoq
To‘ni yamoq, beli bukri, qo‘li egri
Yalmog‘iz kampir kelyapti.. Qarrrr...

***(Musiqa ostida Yalmog‘iz supurgisini minib kirib keladi)***

**Yalmog‘iz:** Xa er yutkur balo qarg‘a, miyasi yo‘q qora qarg‘a!
Men Yalmog‘iz, Yalmog‘iz, Ishim juda ko‘p, tig‘iz.
G‘ashimga xech tegmangiz, mendan xafa bo‘lmangiz!
Kampir dema, oyqizman, go‘zallikka boy qizman,
Elkam juda chiroyli, yuzlarim to‘lin oydek
To‘nim yamoq, bo‘lsa ham burnim qalmoq emasdir.
Belim bukri bo‘lsa ham, qo‘lim egri emasdir
Kashshey meni sevgandi, xo‘p ortimdan yurgandi
Uni xarob ayladim, supurgimda xaydadim
Meni yorim qaroqchi juda mashxur aldoqchi
Ana o‘zi kelyapti, bir nimalar deyapti.

***(Musiqa ostida Qartovus kirib keladi)***

**Yalmog‘iz:** Keling, keling Qartovus kelishingiz ne bois?
Bir maslaxat qilaylik bayramlarin buzaylik!

**Qaroqchi:** Men Qartovus qaroqchi, tunda yurar zo‘r soqchi
Yaxshini yoqtirmayman ko‘zimga boqtirmayman.
Xo‘sh, xo‘sh o‘zi nima gap, nima deyapsan vaysab?

***(Yalmog‘iz erga qulog‘ini tutib jim ishorasini qiladi)***

**Yalmog‘iz:** Dupur, dupur ot kelyapti, oltin arava kelyapti
Usha faytun aravada Qorbobo, Qorqiz kelyapti.

**Qarg'a:** Qor, qor, qor bugun bayram bo'larmish
Hamma o'ynab, kularmish,
Qorbobo va Qorqizni
Bolajonlar kutarmish.

**Qaroqchi:** Nima? Nima? Bayram bo'lmaydi tamom
Boshka gap yo'q vassalom!
Agar gapga kirmasa Qorqizni o'g'irlayman,
Qorboboni boshiga ur to'qmoq to'g'irlayman!

***(Musiqa ostida olmaxon va boshlovchi kirib keladilar).***

**Olmaxon:** Sabr qiling Qartovus o'ylab oling vakt tig'iz,
Xech nima qilolmaysiz, bizni qo'rqitolmaysiz.
Yomonlikni unuting, yaxshilik tomon yuring
Tashna ojiz qalblarga mexr muruvvat qiling!

**Boshlovchi:** **Q**artovus sen o'ylab ko'r yomonlikni qilma qo'y
Bizda bayram o'yna kul, ko'ngling yozib xursand bo'l!
Ikkoviz o'ylab ko'ring biz bilan birga bo'ling
Sizga sovg'a beramiz birga o'ynab kulamiz!

**Qaroqchi**: To'g'ri aytding bolajonim, sen qalbimni yumshatding
Yomonlikni yo'q aylab yaxshilik urug'ing sochding.
Sho'x kuylar jaranglasin, hamma quvnab o'ynasin
Bayramga yig'ilganlar birgalashib kuylashsin.

***RAQS.***

**Boshlovchi:** Bolajonlar mana yomonliklar ham ortda qoldi kelinglar endi bobojonimizni davraga chaqiramiz!

**Bolalar:** **Q**orbobo, Qorbobo davramizga marxabo!

***(Musiqa ostida Qorbobo kirib keladi).***

**Qorbobo:** **S**alom bolajonlar, salom mehmonlar! Men sizning xuzuringizga o'rmonlardan, dengizlardan oshib keldim. Men sizlarga yuborgan archamni aslo tanimay qoldim, uni sizlar juda chiroyli qilib bezatibsizlar. Sizlarni kirib kelayotgan yangi yil bilan qutlayman!

**Qorqiz**: Men Qorqizman, Qorqizman



Osmondagi yulduzman
Uchib keldim davraga
Salom berdim hammaga!

**Qorbobo:** Qani turing bolalar davra quraylik
«Archa» qo‘shig‘ini aytib quvnaylik!

***«Bezangandir archajon» ashulasi.***

**B[illegible]:** Qorbobojon bolalarimiz siz bilan xazil o‘yinlar [illegible]ashmoqchi.

Davra o‘yinlari:
***«[illegible]avradan chiqarmaymiz»***
***«Qul[illegible]i extiyot qiling».***

**Qorbobo:** [illegible]uda[illegible] ketdim, qani mening qor parchalarim?

**Boshlovchi:** [illegible]larni burkab ol,
Q[illegible]pa[illegible]qilib o‘ynab qol.

***«Qor[illegible]ari r[illegible]***

**Boshlovchi:** Bobojon c[illegible]chog‘[illegible]ilg[illegible]r. Endichi sizga shirin-shakar bolajo[illegible] ashula, raqslarini ko‘rsatmoqchilar.

**Qorbobo:** Ha, ancha charchog‘i[illegible]. Qa[illegible]itaylikchi.

**Bola:** Bayramingiz muborak aylar [illegible]
Bayram sizga muborak bayra[illegible]tg[illegible]

**Bola**: Yangi yilda yangi omad, yangi zafa[illegible]isin
Elim, yurtim deganlar bir umrga bor [illegible]isin!

**Bola**: Qorbobojon oppoq peshonasi yalpoq
Qopingizni ko‘tarib bizga bering o‘yinchoq!

***«Qorbobojon» ashula M.Ikromova mus.***

**Bola**: Archa yaproqlarida ertakchalar berkingan
Oqqush suzib ko‘lda olmaxon yong‘oq chaqqan.

**Bola**: Soat 8 bo‘lyapti Qorbobojon kelyapti
Keling, keling Qorbobo davramizga marxabo!

**Bola:** Guppa, guppa yog‘ar qor guyo ko‘kda ini bor

NAMUNA

Tomda oppog‘u oppoq shox novdalar arg‘imchoq
Qarg‘a qag‘-qag‘ qiladi ko‘ngilni chog‘ qiladi.

**Bola:** Xech tinmasdan erinmasdan tuni bilan qor yog‘di
Uxlab qolgan dalalarga baraka-yu qut yog‘di!

**Bola:** Xar tomonda oppoq qor sovuq xukm suradi
Daraxtlar oq kiyimda xayol surib turadi.

**Bola:** Daryolarda suv muzlab to‘htab qolar qayiqlar
Qish uyqusiga ketar o‘z inida ayiqlar.

**Bola**: Salom archa bugun barcha dildan jo‘shib kuylaymiz
Shodligimiz sig‘may ko‘kka qish faslini qutlaymiz.

**Qorbobo:** Rahmat bolajonlar! Judayam chiroyli she’rlar bilar ekansizlar! Bolalar men sizlarga topishmoqlar aytaman kim topsa ularga sovg‘alar beraman. Diqqat bilan tinglang!

Ko‘lsiz oyoqsiz gul soladi (Ayoz).

O‘tda yonmaydi, suvda cho‘kmaydi (Muz).

Kim u sizlarga mehmonga kelgan shunday chiroyli, go‘zal.
Tepasida yulduzcha yonar, shohlarida qorlar yaltirar
Pastdan yuqorigacha xar-xil o‘yinchoqlari ancha
Bu nima bolajonlar? (Archa)

***RAQS.***

**Qorbobo:** Ie, ie kimning quloqlari ko‘rinyapti? Kim u archa ortidan bizga qaragan?!

***«Quyonchalar raqsi»***

**Qorbobo:** E-xa bular quyonchalar-ku!

**Boshlovchi:** Korbobojon siz quyonchalarni yaxshi ko‘rasizmi?

**Qorbobo:** Yaxshi ko‘raman!

**Boshlovchi:** Ular bilan kuvlashakam o‘ynaysizmi?

**Qorbobo:** O‘ynayman!

***«Quvlashakam» o‘yini.***

**Qorbobo:** Qani mening ayiqpolvonlarim, qani mening maymoqchalarim.

***«Ayiqchalar» raqsi.***

**Boshlovchi:** Korbobjon siz ayiqchalarni yaxshi ko'rasizmi?

**Qorbob[illegible]** Judayam yaxshi ko'raman!

**B[illegible]** Ular bilan quvlashakam o'ynaysizmi?

[illegible] O'ynayman!

***«Quvlashakam» o'yini.***

**Qorb[illegible]** [illegible]on va ayiqchalar judayam chaqqon ekanlar, ularni quvlab [illegible]olmadim. Endi sizlarga men sabzi beraman (qopini kavla[illegible]e sabzi ham bir dona kolipti-ku! Endi bu sabzini b[illegible]an! Bu oddiy sabziga o'xshamaydi. Negadir [illegible], pichoq bilan kesaman hammangizga beraman!

***[illegible]chidan shiqildoqlar chiqadi).***

[illegible]qar[illegible]iqild[illegible] raqsga tushamiz quvnoq! Qani mening [illegible]aboz[illegible]iqildoqni olingiz, barchani shod qiling[illegible]

***«Mash[illegible]ar»***

**Qorbobo**: Yashanglar m[illegible] kar[illegible]aringdan bir turib olinglar-chi!

**Masharabozlar**: Yo'q turmaymiz Qorbob[illegible]

**Qorbobo:** Unday bo'lsa men sizlarni o'zi[illegible]olama[illegible]

**Masharabozlar:** Yo'q baribir turmaymiz!

**Qorbobo:** E.. shunaqami?! Bularni qopga solib [illegible]ketamiz! Olib kel qopimni Qorqizim!

***(Qorqiz unga teshik qop beradi. Qorbobo ularni qopga soladi, masharabozlar qopdan tushib qolishadi)***

**Boshlovchi**: Masharabozlar tushib qolishiyabti-ku!

NAMUNA

**Qorbobo**: Iye tushib qolishiyabtimi? Sizlarni qarab turinglar!

***«Quvlashakam» o'yini.***

**Yalmog'iz**: Qorbobo halidan beri bolalar bilan o'yinlarni o'ynayapsiz, o'ynayapsiz biz ham qaroqchi qaylig'im bilan o'ynagimiz kelyapti.

**Qorbobo:** E... shunaqami?! Qani bir o'zlaringni ko'rsatinglar-chi..

Quvnoq o'yinlar:

***«Sharlar bilan o'yin»***

***«Arqon tortish o'yini»***

***Ashula va raqslar.***



**Qorbobo:** Men sizlar bilan o'ynadimmi?

**Bolalar**: O'ynadiz!

**Qorbobo**: Ashula aytib raqsga tushdimmi?

**Bolalar**: Tushdiz.

**Qorbobo**: Yana nima esimdan chiqdi?

**Bolalar**: Sovg'alar!

**Qorbobo**: Ie... sovg'alarimni kaerga qo'ydim ekan?

***(qopini kovlaydi va archa shohi oladi).***

Mana archa shohi, bu archa shohi sovg‘alarni topishga yordam beradi!

***(Musiqa ostida archa atrofida aylanadi, sovg‘alar archa tagida bo‘ladi)***

Mana bolalar sovg‘alarni ham topdik. Kel Qorqizim bolajonlarga sovg‘alarni tarqatib beraylik.

***(…a ostida sovg‘alar tarqatiladi).***

**Qorbobo:** …am endi boshqa bolalar bog‘chalariga borishim …ak. Y… yilda ko‘rishguncha hayr bolajonlar!

**1-bola:** … quv… kun archamiz atrofida.

**2-bola:** …yrla… sog‘liq tilaymiz.

**3-bola:** Hay… ya… o‘ris…uncha soq bo‘ling!

***…nma…***



NAMUNA

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

# MAK[illegible]ACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

______[illegible]______shahar (viloyat)

______[illegible]tuman "[illegible]____________" nomli

__-mak[illegible]n tashkiloti

tayyorlov g[illegible]isining

20__-20__-o[illegible]uch[illegible]

## 14-yanvar "Vatan [illegible]ari kuni"ga bag'ishlab o'tk[illegible] tadbir

# SSENARIY[illegible]

NAMUNA

# *14 – yanvar Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan bayram ertaligi*

Zal bayramona bezatilgan. Bolalar zalga “Marsh” musiqasi ostida kirib keladilar.Bayram “O‘zbekiston Respublikasining Madhiyasi” bilan boshlanadi.

**Boshlovchi:**

Bir kun katta bo‘lamiz,
O‘n ettiga to‘lamiz.
Mustaqil ona yurtga,
Komil farzand bo‘lamiz.
Siz hozir cha bolasiz,
Bog‘dagi gul lolasiz
Tinchliksevar halqimning,
Mard jasur o‘g‘lonisiz.
Bir kun katta bo‘lasiz,
Xuddi oydek to‘lasiz.
Ona yurt tuprog‘ini,
Hech ham yovga bermaymiz!



Assalomu alaykum dadajonlar, aka-ukalar, mehmonlar va bolajonlar. Bugun biz hayotimiz tinchligi, osmonimiz musaffoligini qo‘riqlab turgan “Vatanimiz himoyachilari” ni muborak ayyom bilan qutlash uchun yig‘ildik. Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin. Kechamizni ochib berish uchun so‘zni bog‘cha mudirasiga beramiz.

**Boshlovchi:**

Yanvar oyida bordir
Shunday raqam 14
Aytingchi nima bildirar
Ushbu raqam 14

**Bolalar:** Dadajonlar bayramin.

**Bola:**

Olg‘a bos, olg‘a bos ey mardu maydon,
Hur ozod Vatanga biz sodiq posbon.

**Bola:**

Gullasin, yashnasin Vatan erlari,
Bizni der erk sevar Vatan sherlari.

**Bola:**

Qadamla, qadamla zamin titrasin,
Azmingni ko‘rganda g‘amin titrasin.

*Bolalar “Askarlar” qo‘shig‘ini kuylab beradilar.*

**Boshlovchi:** Hurmatli mehmonlar, hozirgi kunda jamiyatimizni dadajonlarimizsiz tasavvur qila olmaymiz. Qaysi sohaga qaramaylik dadajonlarimizni fidokorona mehnatini kuzatamiz. Dadajonlarimiz ham hayotda, ham jamiyatda, ham ish o‘rinlarida o‘zlarining munosib mehnatlari bilan obro‘-e’tibor qozonmoqdalar. Bunday obro‘-etibor yoshlikdan berilgan tarbiya va o‘z harakatining mahsulidir. Bizning bog‘chada tarbiyalanayotg[illegible]igitlarimiz ham kelajakda ana shunday faol bo‘lish uchun hozirdanoq [illegible]g bilimdonliklari, chaqqonliklari, tirishqoqliklari bilan intilmoqd[illegible]
Bugu[illegible] bi[illegible]sini ko‘rsatish maqsadida faol yigitlarimiz ishtirokida “Va[illegible]tanlovini tashkil qildik.
Marha[illegible]t i[illegible] bilan t[illegible]ishing.

**1- raqamli** [illegible]tiro[illegible]___________ kutib oling. Bu yigitimiz chaqqon, epchil, sho‘x leki[illegible]igi[illegible]yaxshi ko‘rgan taomi lag‘mon, yaxshi ko‘rgan mashg‘uloti jism[illegible]iy[illegible]kda chegarachi bo‘lmoqchi.

**2- raqamli** - yigitimi[illegible]___[illegible]choq, uyatchang lekin bilimga chanqoq. Yaxshi ko‘rgan taomi [illegible] yax[illegible]mashg‘uloti musiqa kelajakda Prezident bo‘lmoqchi.

**3- raqamli** – ishtirokchimiz _____[illegible]miz epchil, ziyrak sho‘x.

**4- raqamli** – ishtirokchi yigitimiz _____[illegible]___ u[illegible]i ko‘rgan taomi osh, yaxshi ko‘rgan mashg‘uloti rasm, kelaj[illegible] aska[illegible]chi

**5- raqamli** – ishtirokchi yigitimiz ________[illegible]am[illegible]p, lekin zehnli. Yaxshi ko‘rgan taomi palov, yaxshi ko‘rgan ma[illegible]ulot[illegible]elaj[illegible] matros bo‘lmoqchi

Mana ishtirokchi yigitlarimiz bilan ham tanishib oldik. Hozi[illegible] yigitlarimizni ishtirokini baholab berish uchun hakamlar [illegible]n.

**Hakamlar hayati raisi:** 1.
**A’zolari:** 2.
3.

Marhamat hakamlar xay’ati va a’zolari o‘z joylaringni egallashlaringizni [illegible]

*Bolalar “Dadajon” raqsini ijro etib beradilar.*

**Boshlovchi:** 1-shart “Keling tanishaylik” – deb nomlanadi. Bu shartimizda yigitlarimiz o‘zlarini tanishtiradilar.

NAMUNA

*Yigitlar chiqishi.*

**Boshlovchi:** 1-shartimiz bo‘yicha yigitlarimizni baholagunga qadar bolajonlarimizning bayram dasturini tomosha qilamiz.

**Bola:** Chegaramiz saqlagan, oq sutini oqlagan,
Kechalar uxlamagan, bizning askar akalar.

**B[illegible]** Sizga qildik havaslar, omon bo‘ling askarlar,
Tinch bo‘lsin yurtim deya, bo‘ldingiz bizga soya.

**Bola**[illegible]gizda avtomat, sizdadur to‘la qomat.
[illegible]eysiz istiqlol, yovlar bo‘lib qolar lol.

**Bola:** [illegible]lutlar [illegible]siz, bulutlarni quchasiz,
[illegible]ch o[illegible]larda, mazza qilib suzasiz.

**Bola:** Y[illegible]z[illegible]anda qilmayin
Sizd[illegible]bor[illegible]n o‘zim sizga qondosh.

*Bolalar “Arm[illegible]ya” [illegible]hi [illegible]eradilar .*

**Boshlovchi:** 1chi shartimiz bo‘y[illegible]a yi[illegible]ga[illegible]olari.................
2 chi shartimiz “Zukkolar va donolar” d[illegible]nadi[illegible]imizda yigitlarimiz “Vatan nima ? ” degan savolga javob to[illegible]ri z[illegible]
Hakamlar 2chi shart bo‘y[illegible]izni b[illegible]nliklarini baholagunga qadar bolajonlarimiz o‘z dasturi[illegible]om e[illegible]

**Bola:** Sizga bo‘lsin sharaflar,
Bizning jasur askarlar.
Yoshlar qilar havaslar,
Bo‘lar deb sizday mardlar.

**Bola:** Sizning jasoratingiz,
Yoqar har xislatingiz.
Yovga bermaysiz bir so‘z,
Hech tegmasin sizga ko‘z.

**Bola:** Tinchlik istar qari-yosh,
Eganimiz bo‘lsin osh.
Omon bo‘lsin omon bosh,
To‘kilmasin ko‘zda yosh.



NAMUNA

***Bolalar "Yablochka" raqsini ijro etib beradilar.***

**Boshlovchi:** 2chi shart bo'yicha yigitlarimizning olgan baholari................
Hozir men sizlarni 3chi shart bilan tanishtiraman. U"Kim chaqqon" deb nomlanadi. Bu shartimizda bolalar kiyimlarini tez va chaqqonlik bilan kiyishlari kerak.
Marhamat ishga kirishishingiz mumkin.

***"Kim chaqqon" harakatli o'yinini yigitlpr ko'rsatib beradilar.***

**Boshlovchi:** Endi 3chi shartimizni hakamlar ha'yaati baholagunga qadar, bayram dasturimizni davom ettiramiz. Bolajonlar harbiy ilm mahorat askarlar haqida qanday hikmatlar bilasiz? Qani kim aytadi.

**Bola:** Askari baquvvat mamlakat boy bo'ladi.

**Bola:** Askarning intizomi armiyaning tayanchi.

**Bola:** Mashqda qiyin bo'lsa jangda oson bo'ladi.

**Bola:** Har bir askar, tinchlik posboni.

**Boshlovchi:** Barakalla bolajonlar! 3chi shart bo'yicha yigitlarimizning olgan baholarini hakamlar ha'yatidan so'raymiz.

**Boshlovchi:** Hurmatli mehmonlar, aziz dadajonlar, endi men sizlarga mamnuniyat bilan 4 chi shartimizni e'lon qilaman.
4 chi shart "Dadajonimga sovg'a" deb nomlanadi. Bu shartimizda ishtirokchilar aplikatsiya qiladilar va rangli qog'oz, qaychi, kleylardan foydalanadilar. 4 chi shartimiz bo'lgunga qadar mehmonimiz, zahiradagi oddiy askar Fozilov Nodirni davramizga taklif qilganmiz. U hozir o'zining armiyada hizmat qilgan ta'ssurotlaridan hikoya qilib beradi.

***Bolalar "Salyut" qo'shig'ini aytib beradilar.***

**Boshlovchi:** Ha'yat a'zolaridan 4 chi shart bo'yicha olgan baholarini so'raymiz. Mana bugungi dasturimiz qizigandan qizib ko'ngildagidek o'tib bormoqda. Men oxirgi 5 chi shartimizni e'lon qilaman. Bu shartimiz "Erkin mavzu" deb nomlanadi. Bu shartimizda yigitlar o'z qiziqishiga oid mavzuni aytib, ko'rsatib yoki ijro etib berishlari kerak bo'ladi.

***Bolalar" erkin mavzuni ko'rsatib "beradilar.***

**Boshlovchi:** 5 chi shartimizni baholari tayyor bo'lgunga qadar yana navbatni bayram dasturiga beramiz.

NAMUNA



**Bola:** Er yuzidagi amakijonlar,
Shunday iltimos bordir sizlarga.
[illegible]iqarmang qurol ,
[illegible]masin qonlar .
Kitob o‘yinchoq,
Be[illegible]zlarga.

**Bola:** [illegible]k er yuziga,
[illegible]in[illegible]ak olamga.
[illegible]so‘zi [illegible] qoqsin,
[illegible]atib[illegible]

**Bola:** B[illegible] k[illegible]ndi[illegible]tun.
Yu[illegible]
Musta[illegible]lil[illegible]
Yasha yu[illegible].

***Bolalar “Tinchlik” [illegible]ini [illegible]***

**Boshlovchi:** Hakamlar ha’yatidan 5 chi shart [illegible]y [illegible]arni e’lon qilib berishni so‘raymiz.

**Boshlovchi:** Biz bugun “Vatan o‘g‘lonlari” ko‘ri[illegible] o‘[illegible]zdan maqsad, bolajonlarimizni erkin fikrlashlarini, go‘zallikni his qilishlari[illegible] munosabatlarini, o‘zlarini erkin tuta olishliklarini, so‘zlas[illegible]i o‘rgatish, qolaversa O‘zbekistonimizning mard va jasur o‘g[illegible]ishida bir oz bo‘lsa ham hissamizni qo‘shdik degan umiddamiz.
Endi bog‘chamiz tomonidan ko‘rikda qatnashgan o‘g‘il bolalar[illegible]
Sovg‘alar bilan mukofotlaymiz.

***Bayram dasturi Ozodbek Nazarbekovning “Yagonamsan” qo‘shig‘i [illegible] bilan yakunlanadi.***



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# [illegible]GACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

______________shahar (viloyat)

__________ t[illegible]n “____________” nomli

__-m[illegible]im tashkiloti

tayyorlov[illegible]achisining

20__-20__ [illegible]un

## 30-YANVAR BIRINC[illegible]ENTIMIZ ISLOM KARIMO[illegible]DI KUNIGAGA BAG[illegible] “BUYUK YURTBOSHIM[illegible]TI- BARCHAMIZGA IBR[illegible] MAVZUSIDA O‘TKAZILGAN B[illegible]

# SENARIYSI

NAMUNA

**Buyuk Yurtboshimiz hayoti-barchamizga ibrat**

*(Sahna bayramona gullar va sharlar bilan bezatilgan.Islom Karimov rasmlari va kitoblari koʻrgazmasi tayyorlangan.Elektron koʻrgazma va shiorlar, bolalarlar koʻkragida Islom Karimov rasmi osilgan.)*

**Alisher Fayzning “Assalom” qoʻshigʻiga qizlar raqs ijro etishadi.**

**1-boshlovchi:**
Biz oʻzbek yoshlari, soʻz naqqoshlari,
Bu qadim Turonning tillaqoshlari
Gohida tinch daryo, goh beboshlari
Hatto maysangga ham titroq boʻlamiz,
Vatan, biz Toʻmaris, Shiroq boʻlamiz.




**2-boshlovchi:**
Toʻrt fasling ham gulzor, boychechak fasli,
Toʻrt fasling ham Vatan, bizniki asli,
Barkamol avlodning barkamol nasli,
Togʻlarni yiqitar bilak boʻlamiz!
Vatan, sen deb urgan yurak boʻlamiz.

**1-boshlovchi:**
Matonat olamida tengsiz ham, tanho
Asarlarin oʻqib yoshlardir shaydo
Vatanin tanitgan ellar aro
Qutlugʻ yosh muborak, Islom bobo!

**2-boshlovchi:**Assalomu alaykum, aziz mehmonlar,bilimdon bolalarlar hamda mehribon ustozlar.

1-boshlovchi:Bugun biz guruh bolalarlari Islom Karimov tavalludining 80 yilligiga atab **”Buyuk Yurtboshimiz hayoti-barchamizga ibrat”** mavzusida tadbir tayyorlab kelganmiz.

2-boshlovchi:Marhamat tinglab tomosha qiling.
Bugun sizsiz yuraklar gʻamga choʻmadi,
Qushlar ham Sizning qabringizga qoʻnadi,
Olloh Sizga jannatni ato qiladi,
**Hamma:Vatan deb yonib kuygan Islom bobom,**
**Boshimiz poyingizga egik bobom!**
Oʻzi uchun yashamas, bunday inson kam,
Elim deb, yurtim deb uyqu ne, bilmas
Kamtarlikda unga hech kim yetolmas,
**Hamma:Shu yurt deb jon bergan Islom Bobom,**
**Boshimiz poyingizga egik bobom!**
**Charos:**Kamolotga yoʻl ochdingiz, bizlar oʻqidik,
Yetuk, Olim ,farzand boʻlib yetishdik,
Urush-janjal bilmay hur yurtda oʻsdik,
**Hamma:Tinchlik farishtasi Islom bobom,**
**Boshimiz poyingizga egik bobom!**
Har fanda-jabhada sizdek topilmas,
Oʻzbek deb yurak yoqgan, odam topilmas
Topilsa topilar, sizdek boʻlolmas,
**Hamma:Kimligini koʻrsatgan Islom bobom,**

**Boshimiz poyingizga egik bobom!**
Ilmini-zexnini meros qoldirgan,
Kichikka-kattani e’zoz qildirgan,
Har jabhani mukammal, yetuk to‘ldirgan,
**Hamma:Buyuklardan-buyuk Islom bobom,**
**Boshimiz poyingizga egik bobom!**
K[illegible]u-kichikning mehrin qozongan,
[illegible] besh yilingiz Vatan deb o‘tgan,
[illegible]k el[illegible]i dunyoga tanitgan,
**[illegible]m[illegible]bekiston faxri Islom bobom,**
**[illegible]oyingizga egik bobom!**
[illegible]izdasi[illegible]iz yuraklarda,
[illegible]udan [illegible]iz, abadiy dilda,
[illegible]r bi[illegible]lbi to‘rida,
**Q[illegible]an Islom bobom,**
**Bos[illegible] egik [illegible]obom!**

Islom Ab[illegible]vich [illegible]938 yil 30 yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tu[illegible]n.
Millati - o‘zb[illegible]k [illegible]i, O[illegible]a Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo‘jaligi institutlarini tug[illegible] M[illegible]k va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Iqtisod fanlari nomzodi.
Oilali,ikki nafar farz[illegible]irasi [illegible]or.Rafiqasi T.A.Karimova mutaxassisligi bo‘yicha iqtisodchi,iqt[illegible]od f[illegible]nzo[illegible]ekiston Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot institutida katta ilmiy xod[illegible]b ish[illegible] paytda –nafaqada.
Mehnat faoliyatini 1960 yild[illegible] Tosh[illegible]oq [illegible]ik mashinasozligi zavodida boshlagan.
**1-boshlovchi:**Bizning qalbimizda[illegible]izd[illegible]
Sozimiz,nazmimiz,ko‘nglimiz[illegible]
Tinchlik osmonida oysiz,quyosh[illegible]
**Ey, Islombobo ,hamisha yoshsiz.**
**2-boshlovchi:**Bu dunyo ko‘p buyuk daholar[illegible]
Ular yulduz bo‘lib samoga uchdi.
Faqat Islom bobo hur quyosh bo‘lib
Basharning bag‘rida nurini sochdi.
O‘zbegim iftixori,
Istiqlol bayroqdori.
Tinchlik ahdi, shiori,
**Hamma:Islom bobo tashakkur.**
Ozod hayotni bergan,
Tolmas qanotni bergan.
Baxt-u sabotni bergan,
**Hamma:Islom bobo tashakkur.**
Kelajakni ko‘zlagan,
Ezgulikdan so‘zlagan.
Iqbol yo‘linizlagan,
**Hamma:Islom bobo tashakkur.**

NAMUNA

Ulug‘lab millat sha’nin,
Yashnatgan hur Vatanim.
Fidodir jon-u tanim,
**Hamma:Islom bobo tashakkur.**
**2-bo[illegible]chi:**Shahrizoda,siz Islom bobojonimizga atab she’r bitdim,degan e[illegible]yor bo‘lsa eshitsak.
**[illegible]vchi:**Ha dugonajon men tinchligimiz asoschisi-Islom bobomga atab she’r [illegible]mat tinglang.
Si[illegible]gizni hech kim bosolmas,
S[illegible] kim h[illegible]achon kamtar bo‘lolmas.
[illegible]amki [illegible]teng emas,
**Si[illegible] qalbi[illegible] Islom bobo!**
Dilin[illegible]og‘[illegible]oning qarog‘i,
Samarq[illegible] chiro[illegible]
Shu xalqning [illegible],suy[illegible]g‘i,
**Siz tinchlik[illegible]oschi[illegible]bobo!**

**Aziz:**1990[illegible] 2[illegible]zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida Islom Karimov O‘zbeki[illegible]ayinlandi.
1991-yilning 31-avg[illegible] ku[illegible]arixiy voqea-O‘zbekiston Respublikasining davlat[illegible] qildi.
1991-yil 29-dekabrda mu[illegible] o‘tk[illegible]n umumxalq saylovida Islom Karimov O‘zbekiston Respu[illegible]ylandi.
1995-yil 26 martda bo‘lib o‘tg[illegible] yakunlariga ko‘ra Islom Karimovning Prezidentlik vakolati 2[illegible]rildi.
2000-2007-2015-yillarda muqobillik[illegible]umumxalq saylovida Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi P[illegible]landi.

So‘zingiz buyukdir,o‘zingiz buyuk
Buyuk merosingiz,iftixoringiz.
Biz uchun har nedan ortiqroq,suyuk
Yozgan asaringiz,aytgan so‘zingiz.

Yurakdagi faxrim,g‘ururim sizsiz
Bobojon ruhingiz bizni qo‘llasin.
Avlodlar qalbida so‘nmas sham kabi
Nurli manzillarga bizni yo‘llasin.

**1-boshlovchi**:Akademik Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zidan b[illegible]niy, ijtimoiy-siyosiy meros qoldirdi.
**2-boshlovchi:** Islom Karimovning asarlari bizning qimmatbaho boy[illegible]izdir.
*(Bolalarlar qo‘llarida Islom Karimov kitoblari bilan chiqishadi va ma’lumot berishadi)*
**1-bolalar:** 1996-yil- "O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura"
**2-bolalar:**1996-yil - "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”
**3-bolalar:**1996-yil-"Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”
**4-bolalar:**1997-yil- "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi
**5-bolalar**:1998-yil- "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida”
**6-bolalar**:1999-yil "Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”
**7-bolalar**:2000-yil- "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz

NAMUNA

**8-bolalar**:2002-yil -"Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak”
**9-bolalar**:2006-yil-"O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi
**10-bolalar:**2008-yil- "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch
**11-bolalar:**2009-yil- "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari
**12-bolalar:**2011-yil-"O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida
**13-bolalar:**2015-yil- "Ona Vatanimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir

Islom Karimov matonat va jasorat ko‘rsatganligi uchun "O‘zbekiston Qahramoni" unvoni, "Mustaqillik" va ”Amir Temur” ordenlari bilan taqdirlangan.
Shuningdek, u kishi bir qancha xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlarning faxriy unvon, orden va medallari bilan ham mukofotlangan.

1- boshlovchi:Aziz bolajonlar Islom Karimovning qaynoq fikrlari hammamizga ibrat darsi bo‘lishi kerak.
2- boshlovchi:Islom Karimov fikrlariga amal qilsangiz hech qachon hech kimdan kam bo‘lmaysiz.

Inson avvalo oilasiga, xalqiga, vataniga sadoqatli, vafodoriga bo‘lishi zarur.
Inson dunyoga yaxshi ish qilish, yaxshi iz qoldirish uchun keladi.
Vatanni asl farzandgina himoya qila oladi.
Dunyodagi eng buyuk jasorat – ma’naviv jasoratdir.
Kuch bilim va tafakkurda.
O‘zbek qalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi.
Sherdil va o‘tyurak yigitlar millat ko‘rki, Vatan faxridir.
Bizga bitiruvchular emas, maktabgacha ta’lim va tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak.
Biz Beruniyga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Bobur-ga voris bo‘lamiz.
*(Bir bola qo‘lida Abdulla Oripov rasmini olib chiqadi)*

Bir xabar tarqaldi
Yarim tun edi.
Go‘yo g‘am seliga botdim yo‘qoldim,
Kimdir yo‘lboshchidan ayrildik dedi.
Men-chi,aziz do‘stdan ayrilib qoldim.
Foniy bu dunyoning baland-pastiga
Teran nazar tashlab o‘tdi bu Inson
Millat qadri deya yashab aslida
Xalqining dardiga bo‘loldi darmon
**O‘zbekiston Qahramoni,Xalq shoiri Abdulla Oripov**

1- **boshlovchi:**2017-yil 25-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori chiqdi.
2- **boshlovchi:**2016-yil oktabr oyida Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi tuzildi

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev qaroriga muvofiq har yili 30-yanvar kunini keng nishonlanadi, 2-sentabr kunini Xotira kuni sifatida yod etiladi.
Zarina:Toshkent shahar, Yashnobod tumanining Farg‘ona yo‘li ko‘chasida joylashgan jome masjidga “Islom ota jome masjidi” deb nom berildi

Samarqand shahrida Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etiladi.
Tanlovda g‘olib deb topilgan haykallarni mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida, Islom Karimov tug‘ilib o‘sgan Samarqand shahrida va u kishi birinchi rahbar bo‘lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida o‘rnatiladi
**1-b[illegible]shlovchi**:Samarqand shahrida Islom Karimov muzeyi tashkil etiladi;
**[illegible]lovchi**:Quyidagi tashkilot va obyektlarga Islom Karimov nomi beriladi
[illegible]nt davlat texnika universitetiga;
[illegible] sh[illegible]dagi avtomobil zavodiga;
[illegible]ridagi San’at saroyiga;
[illegible]alqaro aeroportiga;
[illegible]pog‘is[illegible]spublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi markaziy ko‘chalarga
**[illegible]na:**O[illegible]tlari talabalari uchun Islom Karimov nomidagi davlat
[illegible]
Is[illegible]lov[illegible]i aks ettirilgan maxsus pochta markalari chiqariladi
Janna[illegible]
Siz boshq[illegible]vlatd[illegible]
Xotirjam [illegible]g,Bo[illegible]
Dono,baxtli [illegible]
Siz boshlagan y[illegible]g:
Undan shahdam y[illegible]am[illegible]
Xuddi siz istaganday[illegible]
Buyuk Davlat quramiz.
**Sahna ko‘rinishi:Prezid[illegible]g‘asi**
*Endigina 1-sinfga qadam q[illegible]ayot[illegible]itov[illegible]tab formasida xomush chiqadi va yig‘laydi.*
**Oyi:**Iye qizalog‘im,nega yig‘laya[illegible]
**Qizcha:**Oyijon,akam aytdilar,prezi[illegible] kari[illegible]fot etibdilar,endi Prezidentimiz menga sovg‘a bermaydi[illegible]
**Oyi:**Qizim,Prezidentimiz hamisha har bir ishni [illegible]las[illegible]ib,puxta o‘ylab,tayyorlab yurganlar.
**Dada**:U kishi O‘zbekistonning 1-sinfga chiqa[illegible]i b[illegible]iga o‘z sovg‘alarini tayyorlab qo‘yganlar.
*Oyisi va dadasi qizaloqqa birinchi marotaba makta[illegible]otga[illegible]ovg‘a tayyorlaganligini aytadi va sovg‘ani beradi.*
**Dada:**Qizalog‘im maktabda a’lo baholarda o‘qigin,ustoz[illegible]o‘zi[illegible]kattalarni hurmat qil,o‘rtoqlaring bilan bir-biringizga mehribon,g‘am[illegible]
**Oyi:**Qizim,borib buving va buvangdan ham duo ol,axir aytishadi[illegible]i bilganni pari bilmas” deb,ular ham seni kutib o‘tirishibdi.
**Qizcha:**Xo‘p bo‘ladi,oyijon.
Assalomu-alaykum,buvijon,buvajon,yaxshi dam oldingizmi?
**Buvi:**Rahmat,qizalog‘im.Bugun sening ilk maktabga boradigan kuning,bayraming muborak bo‘lsin,ota-onang orzu qiladigan a’lochi bola bo‘lib,o‘z burchingni ado et.
**Buva:**Ilohi omin,shu qizalog‘imiz a’lochi bo‘lsin,olima bo‘lsin,”Zulfiyaxonim qizi” bo‘lsin.Hammamizga baxt-omad olib kelsin.
*Qizcha hamma bilan xayrlashib maktab tomon yo‘l oladi.Maktabdan keladi va*

NAMUNA

**Qizcha:**Oyijon maktab borganim uchun buvijonim,siz,dadam,buvam-hammalaringiz menga sovg‘a berdingiz.Lekin menga eng yoqqani bu-Prezidentimiz sovg‘alari bo‘ldi.Chunki men olgan papkaning ichi sovg‘aga liq to‘la ekan.
**Oyi:**Aytmabmidim,yurtboshimiz hamma ishni puxta o‘ylaydilar,-deb.
**Buvi:**Qani qizim,bizga yod olgan she’ringdan ayta qol.
**Qizcha:**Ushbu darslik,o‘quv-qurol uchun
Chiroyli maktab uchun,
Bizga e’tibor uchun.
**Rahmat sizga Islom bobo**
**Hurmat [illegible]izga Islom bobo.**
**Islo[illegible] (Qo‘shiq) Sh.Yormatov musiqasi,M.Rahmon she’ri.**
U[illegible] yer, osmon uchun
[illegible]o[illegible]on uchun
[illegible]ron uchun
**[illegible]slom bobo**
**H[illegible]a Islo[illegible].**
Bo[illegible]ding[illegible]
Erish[illegible]
To‘lar b[illegible]ot [illegible]
**Rahmat si[illegible]o**
**Hurmat sizga [illegible]obo**
Yashnar endi O[illegible]sto[illegible]
Baxtga makon, do[illegible]stli[illegible]
Kamoliga qoyil jaho[illegible]
**Rahmat sizga Islom b[illegible]o**
**Hurmat sizga Islom bob[illegible]**
Kundan-kunga turmush go‘[illegible]al
Bizlar sizga qandu asal
Deysiz doim xalqim yuksal
**Rahmat sizga Islom bobo**
**Hurmat sizga Islom bobo**
Siz bor joyda shodlik bisyor
Dilda iymon, poklik shior
Bizga murod kelajak yor
**Rahmat sizga Islom bobo**
**Hurmat sizga Islom bobo**
*(Bir bolalar qo‘lida gul bilan chiqib,Islom Karimov port[illegible] borad[illegible]*
Sizdan duo so‘rayman,
Rasmingizga termulib.
Bobo,sizni eslayman,
Gohi juda sog‘inib.
Endi mudom bizlarga,
Ruhingiz bo‘lsin madad.
Nomingiz qalbimizda
Unutmaymiz toabad!
O‘zbekning otasi o‘ldi dedilar,
Yurti ko‘z yoshlarga to‘ldi dedilar,

NAMUNA

Balki qalbda zavqi so‘ldi dedilar,
Millionlar qalbin zabt etgan inson,
**Biz uchun o‘lmaydi,o‘lmas hech qachon.**
Og‘ir judolikdan egildi boshlar,
O‘zbekning ko‘zida qalqidi yoshlar,
Hatto titrab ketdi tog‘larda toshlar,
Millionlar qalbin zabt etgan inson,
**Biz uchun o‘lmaydi,o‘lmas hech qachon.**
**Laziz:**Yuzingizda ajib bir m[illegible]or edi,
Bir bora ko‘rishga kimla[illegible]
Allohning o‘zi ham si[illegible],
Bobolar o‘gitin yo[illegible],
**Bunday zot o‘l[illegible]hon.**
Yurtim o‘glonlari [illegible]ga[illegible]
Mard bo‘lsin,hayotda [illegible]masin
Siz ko‘rsatgan yo‘ldan [illegible] tash[illegible]
Ajdodlar ruhini shod etga[illegible]
**Biz uchun o‘lmaydi,o‘lmas [illegible]ch[illegible]**
Shoxrux:”Baraka topkurlar” de[illegible]
Baraka urug‘in sochib ketdingiz,
Bizlarga porloq yo‘l ochib ketdingiz,
Millionlar qalbin zabt etgan inson,
**Bundaylar o‘lmaydi,do‘stginam ishon!**
Ko‘pning duolari ijobat bo‘lgay,
Pokiza qabringiz ziyoga to‘lgay,
Kun kelib ming yillik chinorlar so‘lgay,
Ona xalq boshini silagan inson,
**Bundaylar o‘lmaydi,ey xalqim ishon.**
Hayot yo‘lingizdan o‘rnak olamiz,
Har bir o‘gitingiz qalbga solamiz,
Xuddi o‘zingizdk yurt deb yonamiz,
Elim deb,yurtim deb yashagan inson
**Bundaylar o‘lmaydi,o‘lmas hech qachon.**
Samolardan bizni qiling duolar,
Hech ham xavf solmasin yurtga balolar,
Judolik dardiga bormu davolar?
Millionlar qalbini zabt etgan inson,
Biz uchun o‘lmaydi,o‘lmas hech qachon.
**Bundaylar o‘lmaydi,o‘lmas hech qachon.**
Suxayl:Bugun xalqqa tirgak shogirdingiz bor,
Hech kimdan kam bo‘lmay, yashasin diyor,
Ruhingiz shod bo‘lib, ko‘llasin bisyor,
Xalq uchun jonini baxsh etgan inson,
**Bundaylar o‘lmaydi, o‘lmas hech qachon.**
Xalqim tinchligiga ko‘z tika ko‘rmang,
Bu  yurtning  obro‘si ko‘kka yetgusi.
Andisha qilganni qo‘rqoqqa yo‘ymang.

NAMUNA

Jim turib yengmoqlik mardlik belgisi.
Chorak asrdirki mustaqil bo‘lgan,
Mustahkam qurilgan bizning poydevor.
Shu yurtda umrini,jonini bergan,
**Arshi a’loda o‘z suyanchig‘i bor.**

**1-boshlovchi:**Aziz ukajonlar,singiljonlar!Biz bugungi tadbirimizni Muhtaram Birinchi Prezidentimizning yuraklarni titratib yuboradigan bir samimiy so‘zlari bilan yakunlamoqchimiz.Chunki bu so‘zlar aynan bizlarga-yoshlarga bag‘ishlangan.

**2-boshlovchi**:Ey bolam, sening Vataning bitta-barchamizga aziz, betakror mana shu O‘zbekiston. Ota-bobolaringning xoki shu yerda yotibdi. Shu muqaddas zamin seni dunyoga keltirgan, sen uni obod etishing, himoya qilishing
shart. Nafaqat sening O‘z hayoting, balki senga umid ko‘zini tikib turgan ota-onang, opa-singillaring, yosh go‘daklar, nuroniy qariyalarimizning hayoti ham ana shu burchingni nechog‘liq ado etishingga bog‘liq.

1- boshlovchi:Shuning bilan bizlarga ajratilgan vaqt,o‘z nihoyasiga yetdi.
2- boshlovchi:E’tiboringiz uchun rahmat.salomat bo‘ling.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# M[illegible]TABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

_____________________________

_____________________shahar (viloyat)

__________________tuman “____________” nomli

[illegible]ma[illegible]a ta’lim tashkiloti

tay[illegible]rbiyachisining

20__[illegible]qu[illegible]li uchun

## ALISHER NAVO[illegible] UDINING 583 YILLIGIG[illegible]AB

*“Navoiy qalblarda [illegible]adiy”*

**mavzusida o‘tkaz[illegible]bir**

# SSENARI[illegible]

NAMUNA

## G‘AZAL MULKINING SULTONI

**1-boshlovchi:** Buyuk mutafakkir,g‘azal mulkining sultoni-Mir Alisher Navoiy tavalludi tantanasisiga yig‘ilgan aziz mehmonlar, Assalomu alaykum!
**2-boshlovchi:** ”Davron elining jismida jon bo‘lg‘on”mo‘tabar ustozlar Assalomu alaykum!
**1-boshlovchi:** Jahonki muqaddas neni ko‘ribdi,
Bariga onasan, ey qodir xayot.
Asrlar [illegible]idan boqib turibdi,
Nu[illegible]zlarga nuroniy bir zot.
**2-bos[illegible]** [illegible]nu buyuk o‘g‘ilni ardoqlab dildan
[illegible]a’[illegible]sang arzigay tamom.
[illegible] birga bitilgan
D[illegible]ga o‘zb[illegible]k degan nom.
**1-bos[illegible]** [illegible]oqoni[illegible]aqom Shoxrux sultoning podsholik davrida izzat va iqbol gulshan[illegible]onli[illegible]alari beradigan bir daraxt ko‘kardi.Martaba va ulug‘lik osmonda ba[illegible]z[illegible]tuvchi bir yulduz porladi.
**2-boshlovch[illegible]** [illegible]m[illegible] hidoyat nasabli,pozikiza tabiyatli,sof niyatli saltanat suyanchig‘I m[illegible]a[illegible] Xo[illegible] davlatining yordamchisi 17-ramozon oyi 844 xijriy tovuq yilida [illegible]uny[illegible]q olamiga qadam bosib o‘zining go‘zalligi va porloq chehrasi [illegible] yer[illegible].Kelajak nasllar ul zotni turkey til asoschisi she’riyat sultoni-Mir Alish[illegible]eht[illegible] ila tilga oladilar.

**[illegible]hi:**

Domla, farzand muborak! G‘[illegible]lari, iloho umri uzun,tolei baland bo‘lg‘ay!
G‘iyosiddin kichikina:-Qulluq, taqsi[illegible]o‘zi[illegible] aytib otaliq vazifamni ado etmoqqa ko‘maklashursiz.
Domla:-Bu, albatta, biz uchun ham qa[illegible], ha[illegible]
G‘iyosiddin janoblari bu go‘dakka xu[illegible]aza[illegible],buni men qalbim bilan his etib turibmen,buni go‘dak yuzidagi iloh[illegible]rda[illegible].
Qani,O-omin, o‘g‘lingiz xudo hohlasa el na[illegible]uni[illegible] saodati yo‘lida xizmat qilg‘ay va yer yuzida undan dilobar ins[illegible]nag[illegible]akbar.Bizga endi javob (ular chiqib ketadilar).
**1-boshlovchi:** Alisher Navoiy Xurosonning bo‘lajak [illegible]bilan juda yaqin do‘st bo‘lib bir madrasada ta’lim olishgan.Yo[illegible] Al[illegible]ligidan kitob o‘qishni, she’r yod olishni sevgan.
**2-boshlovchi:** Har yerda bahor bo‘lsa,chaman bo‘lsa kerak,
Har yerda chaman, gulu-suman bo‘lsa kerak,
Har qayda xazon bo‘lsa, tikon bo‘sa kerak,
Har qayda tikan mihan bo‘lsa kerak.

**Sahna ko‘rinishi:**

**Alisher:** Assalomu-aleykum, ustoz.
**Mavlona Lutfiy:** Valeykum assalom o‘glim,kimning o‘g‘lidursiz,bag‘oyat t[illegible]biyali oila farzandi ko‘rinasiz ?
**Alisher:**-Men G‘iyosiddin (kichkina) Bahodirning o‘g‘lidurmen, ustoz.
**Lutfiy:**-Ey shunday deng, barakallo.Meni taniysizmi, kaminani ustoz deb hurmatlashingizga ne sabab?

NAMUNA

**Alisher:-**Siz haqingizda eshitmagan,sizning g‘azallaringiz ila sehrlanmagan kishi bo‘lmasa kerak.Mavlono Lutfiy nomi oilamizda juda hurmatlanadi,men sizning go‘zal g‘azallaringiz-la tanishmen, she’riyatga havasim baland,o‘zim ham gohi-gohi mashq qilib qog‘oz qoralaydur men.

**Lutfiy:-**Balli,balli bo‘tam qani marhamat aylang, kaminaga ijodingizdan namunalar o‘qib lutf aylang-chi.

**Alisher:-**Orazin yopmoq kozimdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylaykim paydo bo‘lur yulduz,nihon bo‘lg‘och quyosh

Lutify-(Bayntni [illegible]kroran qaytaradi) Voolloh,agar muyassar bo‘lsa edi o‘zimning 10-12 ming fors [illegible] baytlarimni ushbu g‘azalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqishin[illegible]affaqiyat deb sanardim.

**1-bos[illegible]**65[illegible]amarqand tomon yo‘l oladi va shoir sifatida juda katta shuhrat top[illegible] yozgan she’riy kitob “Ilk devon” nomi bilan mashhurdir.Shu bilan [illegible]ir [illegible]oir (14[illegible]9-1472)yillari saroyda muhrdor,(1472-1476) yillarda vazir,(148[illegible]llarda [illegible]dda hokimlik qilgan.

**2-boshlov[illegible]**okil[illegible]Navoiy hasharni amalga oshirdi, lekin Vatan va yurtiga bo‘lg[illegible] ham unga tinchlik bermadi va yurtini qo‘msab bir qancha asarlar y[illegible]




Yorabki,inoyatingni y[illegible]ang[illegible]
Yo‘qlukka xidoyatning[illegible] ay[illegible]
Har qahri kifoyatingni do[illegible] ay[illegible]
Har duri inoyating nisor ayla[illegible]a

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lma[illegible]
El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emis[illegible]
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshyon bo‘lmas emish
O‘n sakkiz ming olam oshubi agar boshindad[illegible]
Ne ajabkim sarvinozim, o‘n sakkiz yoshindadu[illegible]
Desa bo‘lg‘aykim,yana ham o‘n sakkiz yil husni[illegible]
O‘n sakkiz yoshinda bunchakim fitna boshindadur.

Boshni fido qilg‘il ato bo‘shig‘a
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a
Tun kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla,birisin quyosh.

**1-boshlovchi:-**Navoiy bobomiz hatto shohning vaziri bo‘lg[illegible]an[illegible] uchun ko‘p yaxshi ishlar qilganlar.Maktab va madrasalar quris[illegible]a[illegible] bo‘lganlar. O‘zlarining insonparvarliklari tufayli elning nazari va mehriga t[illegible].

**2-boshlovchi:-**Alisher Navoiy bobomizning hikmatli so‘zlarini tinglay[illegible]

Odami ersang demagil odami,
Oning kim yo‘q xalq g‘amidin.

Bu gulshan ichra yo‘qdir baqo guliga sabot,

NAMUNA

Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik birla ot.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,
Aylam[illegible]oson emas haqqin ado yuz ganj ila.

[illegible]abon netgumdir oxir
[illegible]ketgumdir oxir.

Ch[illegible]ig'onga chulg'ama
C[illegible]lur ti[illegible]onga bulg'ama.
U[illegible]oye[illegible]
Meh[illegible]bil.



**Raqs**

**1-boshlovchi**. [illegible]yilda turkiy tilda birinchi bo'lib Xamsa yozishga kirishdilar va jud[illegible]besh yirik dostondan iborat "Xamsa"ni yozib tugatdilar. Ilm va ij[illegible]dlik bilan qarshi oldi .Abdurahmon Jomiy Navoiy "Xamsa"siga yuk[illegible]usayin bayqoro buyuk shoirini oq otiga mindirib,unga jilovdorlik [illegible]lantirgan.

Xamsa asari haqida.

Hamsaning birinchi d[illegible]abror"(Yaxshi kishilarning hayratlanishi),falsafiy axloqiy-ta[illegible]yt 63 bob bo'lib ularning 21 bobi muqaddima 20 bobi maqolat 20[illegible]lar,oxirgi 2bobi xotimadan iborat.

Xamsaning ikkinchi dostoni "Farhod va Sh[illegible]5782 bayt.Dostondagi voqea insonni poklaydi,ezgulik sari yetaklay[illegible]tanitadi,komillik sifatlarini tarbiyalaydi.Dostonda Navoiyning k[illegible]u –o'ylari ham ifoda etilgan.

"Layli va Majnun" "Xamsa"ning uchinchi dostondir.[illegible]'lgani kabi zaminiy muhabbatning ilohiy muhabbatga eshligi o[illegible]asini topgan. U mazkur doston bilan o'zbek adabiyotida bu mavzu[illegible]

"Sab'ai Sayyor"dostoni yetti iqlim shahanshohi Bahrom taqdiri ma[illegible]ritadi. Navoiy asar voqealarini o'z Vatani Xuroson,Movaraunnahr hayo[illegible]n bog'lashga harakat qildi. Shuningdek, bu mashhur qissaga turkona ruh berdi.

"Xamsa"ning yakunlovchi "Saddi Iskandariy" dostoni dunyoning mashhur siymolaridan biri jahongir Iskandarga bag'ishlangan. "Saddi Iskandariy"dostoni hajmi jihatidan eng katta asardir.U89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan.

**2-boshlovchi:-** Navoiyning shoh qoshida oshib borayotgan mavqe'-e'tibori saroydagi Majididdin boshliq bir guruh el haqida hazar qilmaydigan amaldorlarni tashvish solib qo'ydi.Ular shohning adolat talab amirini ko'zdan uzoqroqqa jonatish yo'lini izlay boshladilar va bunga muvaffaq bo'ldilar.Shoir 1487-1488-yillarda Astrobodga hokim tayinlanib,poytaxtdan uzoqlashtirildi.

NAMUNA

Sahna ko‘rinishi
Uch yomonning ta’rifi.
Sulton Husayin bir kuni o‘z vazirlarining aql farosatini donishmandligini sinab ko‘rish uchun ularni huzuriga chaqiribdi:
**Podshoh:**- Menga uch yomon odam topib kelinglar ,topganinggizga yuz tillo mukofot, topa olmaganingizga 70 darra, sizlarga uch kun muhlat .
**Boshlovchi:**- Vazirlar zir yugurishib uch yomon odam topa olmabdilar .
**Alisher Nayoiv:**-Jallod,qassob va sayyodni boshlab podsho huziriga kelibdi.
**Podshoh:**- Mana do‘stim Alisher sizga yuz tillo donoligingizga tassanno.
Endi mana shu uch yomonga ta’rif berishingizni so‘raymen.
**2-boshlovchi:**-Vazirlar podshoning bu savoliga ham javob bera olishmabdi.Shunda
**Alisher:**-Jallodga faqat farmon bo‘lsa bas, haqmi nohaqmi baribir to‘g‘ri kelgan odamni qilichdan o‘tkazaveradi.Qassob hayvonlarning eng yaxshisini so‘yadi.Sayyod jonivorlarni ovlaydi,chiroyli qushlarni tutib qafasda saqlaydi.Ularni hayot go‘zalliklaridan mahrum qiladi.
**Sulton Husayin:**- Do‘stim Alisher, aqlu farosatingizga, donolingizga yana bir marotaba qoyil qoldim.

**BAHRU-BAYT**

Mehr ko‘p ko‘rguzdim,ammo mehribone topmadim.
Jon base qildim fido oromi jone topmadim.

Meni ishqdin man etar sodda shayx,
Dema sodda shayx,aytkim loda shayx.

Har necha dedimkim kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,
Vahki, kun-kundin battarroq mubtalo bo‘ldim sanga



Ahli ma’ni guruhida zinhor ,
Hech or aylama gadolig‘indin.
Ki bularga gadolig‘ ortug‘dur
Ahli suratka podsholig‘indin.

Navoiy tiling asragin zinhor,
Desang kim, yemay dahr ishindin afsus.

Siri ishqimni ko‘ngul ko‘zi birla etmak ne tong,
Qalbi tor domanni men chun sohib asror istadim.

Munglug‘ boshim ostidagi toshimnimu dey?
Tosh ustidagi g‘arib boshimnimu dey ?
Hayrat suyidin sa’brok maoshimnimu dey?
**1-boshlovchi:** -Alisher Navoiy betakror va boqiy siymodir.U yaratgan asarlar samodek tiniq, tongdek shaffof, musiqiy ohanglar bilan yo‘rilgan.Asarlarini o‘qir ekanmiz har bir satrda o‘z xalqiga insoniyatga cheksiz mehr bilan bir jon bir tan ekanligini anglash qiyin emas.
Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranju g‘urbat havas aylama.

**2-boshlovchi:**-Aziz bobomiz jozibador baytlari bilan insoniyatga so‘zning sehrini, hayotning ma’nosini, saodatning eshigini ochib berayotgandek.Bu gulshanda saodatning kaliti odamlarga yaxshilik qilish ekanligini anglatadi.

**Sahna ko‘rinishi**

Yaxshidan bog‘ [illegible]ladi.

Ko‘klam ku[illegible] birida sulton Husayn saroyda yolg‘iz o‘tiraverib zerikibdi.Ancha vaqtdan [illegible] Alisherni ko‘rmaganligi tufayli do‘sti yashaydigan mahallaga yo‘l olibdi[illegible]

Bo[illegible]shimarib bog‘da ishlayotgan ekan.

**Husa[illegible]**-H[illegible]stim! Nega shoirlar majlisida ko‘rinmay qoldingiz desam, bog‘bonli[illegible]libsiz[illegible]

**Alisher:-** [illegible]k” - degan ekan mashoihlar. Shu bog‘dagi qurigan olmalarni qo[illegible]ch-to‘rt tup yong‘oq ekayapman.

**Husayn:**-Ey do[illegible] qa[illegible]og‘ingizda bog‘ qilishni nima keragi bor axir?

Bu yong‘oqlar qa[illegible]iradi[illegible] mevasini qachon yeysiz? Undan ko‘ra shu bog‘da tinchgina gaz[illegible] tira[illegible]i?

**Alisher:-** Do‘stim,ya[illegible] degan naqlni eshitganmisiz? Men bu ko‘chatlarni o‘zim uchun e[illegible]alla[illegible]lakaylari uchun ekayapman.Bir kun kelib “Bu bog‘Mir Alisher[illegible]uning o‘zi har qanday ne’matdan lazzatliroqdir.

**Husayn:-** Bo‘lmasa, shu tillolarni olib [illegible]o‘sti[illegible]hat olursiz!

**Alisher:-** Ana ko‘rdinggizmi, do‘sti[illegible]tga[illegible] hozirdanoq hosil bera boshladi.

**1-boshlovchi:-** Mir Alisher o‘z davridanoq [illegible] mustahkam o‘rin olib, o‘zbek nomini jahonga mashhur qilib, x[illegible]ylan[illegible] Uning ummon qadar bepayon ijodidan har kim o‘z iste’dodig[illegible]lmoqda. Zero Navoiyning har bayti hikmatli bir kitob.

**2-boshlovchi:**-Biz shunday ulug‘ mutaffakir shoirimiz bo[illegible] iftixor qilamiz, bugungi adabiy kechamiz Navoiyga, [illegible]o‘lgan ehtiromimizning bir ko‘rinishidir.

**1-boshlovchi:**-Birin- ketin o‘tib borar asrlarning karvonlari
Oh, ne choqlik xatarlidir uning oshar dovonlari,
Inson zoti murodiga azal-abad yetar edi,
Ushalsa gar umidvor zot Navoiyning armonlari.

**2-boshlovchi:**-Fursat keldi do‘stu g‘anim kimligini bilay bu kun,
Jami bashar farzandiga saodatlar tilay bu kun,
Ko‘kka boqib sahar chog‘i iltijolar qilay bu kun
Nurga to‘lsin aziz bobom Navoiyning makonlari.

Bugun oz bo‘lsa ham Navoiy bobomizni ruhini shod eta olgan bo‘lsak o‘zimizni baxtiyor hisoblaymiz. Biz ham bobomizdek o‘qish, ilm olish, o‘rganish, komil inson bo‘lishga harakat qilamiz. Navoiy bobomizga bag‘ishlab tayyorlangan bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetdi.

**E’tiboringiz uchun rahmat!**

NAMUNA

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI ______________________shahar (viloyat)

__________________tumani "_____________" nomli __-maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov [illegible] tarbiyachisining 20__-20__-o'quv yili uchun

# ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

## tavalludining 541 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan [illegible]

# SSENARIYSI

NAMUNA

# SHOH VA SHOIR BOBOMIZ

Sahna chiroyli qilib did bilan bezatilgan. To‘rida Bobur Mirzoning portreti, uning ruboiylaridan namunalar yozilgan plakatlar osilgan.
Mayin musiqa sadosi ostida sahnaga boshlovchilar kirib keladi va salomlashadilar.
1 – boshlovchi: – Bugun biz sizlar bilan bu yerda temuriylar avlodining iste’dodli vakili, atoqli shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining tavallud ayyomini nishonlashga yig‘ilganmiz.
2 – boshlovchi: – Shoh va shoirning suronli hayot yo‘li, uning Hind tuprog‘ida amalgam oshirgan buyuk ishlari, jahon adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi birin – ketin gavdalanadi.
1 – boshlovchi: – Hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar hamda bolalar. Bugun biz sizlarga “Shoh va shoir bobomiz” nomli tadbirimizni e’tiboringizga havola etamiz.
Raqs ijro etiladi.
2 – boshlovchi: – Z. M. Bobur 1483-yil 14-fevralda o‘zining “Boburnoma” asarida mahorat bilan tasvirlagan go‘zal Farg‘ona viloyatining poytaxti Andijonda tug‘iladi. Otasi – temuriylar avlodidan bo‘lgan Umarshayx Mirzo o‘sha davrda Farg‘ona viloyati hokimi edi.
1 – boshlovchi: – 1495 yil Umarshayx Mirzo fojeali ravishda vafot etadi. Viloyatni boshqarish 12-yoshli Bobur zimmasiga tushadi.
2 – boshlovchi: – Toju taxt,, saltanat ishlari, jangu jadallar – bularning bari uning murakkab hayotidan dalolat beradi.
1 – boshlovchi: – Bobur Shayboniyxon qo‘shinlari qamal qilgan Samarqandni tashlab, Afg‘oniston orqali Hindistonni egallaydi va umrining oxirigacha Hindistonda yashab, ijod qiladi, saltanatni boshqaradi.
2 – boshlovchi: – O‘g‘li Humoyun, nabirasi Akbarlar uning faoliyatini davom ettiradi.
1 – boshlovchi: – Boburiylar sulolasi bir necha yuz yillar davomida Hindistonda hukmronlik qilishadi.
Bolalar shoir ijodidan namunalar keltirishadi.



1 – bola: Davlatga yetib mehnat elin unutma,
Bu besh kun uchun o‘zingni asru tutma.
Borg‘onni kel emdi, yod qilma, ey do‘st,
Boorish – kelishingni lutf etib o‘ksutma.
2 – bola: Eshitsa kishi bu sho‘ru shevan ne degay,
Doim bu tariq ichguni ko‘rgan nedegay,
Dushman so‘ziga kirma, eshit do‘st so‘zin,
Eshitmasa so‘zni do‘st, dushman ne degay.
1 – bola: – O‘zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qisqa va murakkab hayoti davomida sermahsul ijod qila olgan buyuk iste’dod sohibi edi.
Uning barcha asarlari bizgacha to‘liq yetib kelgan emas.
2 – bola: – Shoirning to‘liq bo‘lmagan devoni, “Mubayyin” nomli she’riy risolasi, “Volidiya” deb atalguchi kitobchasi, Bobur tuzgan “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan alifbo hamda yirik me’muar asar “Boburnoma” ana shular jumlasidandir.
3 – bola: – “Boburnoma” asarining mazmuni rang – barang bo‘lib, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston, Eron xalqlari tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga

olgandir.
4 – bola: Tili va uslubi ravon hamda go‘zal asarning asl nomi “Boburiya” bo‘lsada, u “Voqenoma”, “Voqeati Boburiy”, keyinchalik “Boburnoma” deya atala boshlagan.
5 – bola: – Asarni o‘qir ekanmiz, o‘sha davr Afg‘oniston va Hindistonga taluqli bo‘lgan geografik atamalar, o‘simlik va hayvonot olami, tarixiy shaxslar bilan tanishamiz.
6 – bol[illegible] Farg‘ona viloyati poytaxti bo‘lmish Andijon haqida “Boburnoma”da juda keng ma’[illegible]erilganini guvohi bo‘lamiz.
[illegible] Oshl[illegible]‘I mo‘l, mevasi farovon. Qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Pishiqchilik mashali poliz [illegible]rasm emas” kabi go‘zal vodiy tabiati va qadriyatlari haqida ham bilib olamiz.
[illegible]XX asr o‘zbek romanchiligida adibimiz Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” (“[illegible]imoyun[illegible]kbar” (“Avlodlar dovoni”) kabi tarixiy asarlari muhim rol o‘ynaydi.
2[illegible]vchi: [illegible]ur hayoti, uning Hindistondagi faoliyatini, buyuk sarkarda tuzgan ulka[illegible]salt[illegible] davomchilarini romanlarida g‘oyat mahorat bilan tasvirlab bergan.
1 – bosh[illegible]sa[illegible]ekanmiz, buyuk siymo Zahiriddin Muhammad Boburning dastlab Andijondag[illegible]hay[illegible]bilan [illegible]al tanishamiz.
Bolalar ijrosida [illegible]qida [illegible]adi.
1 – boshlovchi: – [illegible] lirik janrlar rivojiga katta hissa qo‘shgan xassos shoirdir. Uning lirikasini g‘aza[illegible]iy va muammolar tashkil etadi. Bobur she’riyatida ona yurtga muhabbat, va[illegible] o‘rin egallaydi. U ushbu kechinmalarini, ayniqsa ruboiylarida keng k[illegible]lar Z. M. Bobur ruboiylaridan namunalar o‘qishadi.

NAMUNA



Davron meni o‘tkardi sar-u, somon[illegible]
Ayirdi meni bir yo‘lda xon-u mondin.
Gah boshima toj gah baloyi ta’na,
Nelarki boshimg‘a kelmadi davrondin.
Tole yo‘qe jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yorab netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.
Hijron qafasida jon qushi dam qiladur,
G‘urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav`bitay firoqu g‘urbat shahrin,
Kim ko‘z yoshi nomaning yuzini nam qiladur.
Ko‘pdin berikim yoru diyorim yoqtur,
Bir lahza – yu bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.
2 – boshlovchi: – Shoir buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ananalarini davom ettirib vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, yorga muhabbat g‘oyalari bilan sug‘orilgan ajoyib asarlar bitdi.
1 – boshlovchi: – U axloq – odob mavzusiga e’tiborni qaratdi. Yaxshilikni ulug‘ladi, xalq manfaatlarini o‘yladi. Inson qadr – qimmatini yuqori tutdi. Odamlarni kamtarin, ko‘rkam fazilatlar egasi bo‘lishga da’vat etdi.



Bolalar shoir ijodidan namunalar o‘qishadi:
Bu zamonni naf`y qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko‘rmadim hargiz netayin, bu zamondin yaxshilig‘.
Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma,
Kelmadi jonimg‘a hech oromijondin yaxshilig‘.
Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yomonlig‘ asru
Emdi k[illegible]oq ne ya’ni har yomondin yaxshilig‘.
Bor[illegible]lig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q,
[illegible]dah[illegible] qoldi falondin yaxshilig‘.
[illegible]istama Bobur kibi
[illegible]im [illegible]ko‘ngul ahli jahondin yaxshilig‘.

1 – [illegible] – O‘z[illegible] – 47 yillik umri davomida naqadar buyuk ishlarni amalgam oshirgan qudra[illegible]vlat [illegible]sarlari bilan dunyo ahliga tanilgan bobomiz bilan qancha faxrlansa[illegible]

2 – boshlov[illegible] bir ya[illegible] odati bor, qayerga borsa bog‘ yaratadi, go‘zallik bunyod etadi. 1504 yili Bob[illegible]i egal[illegible]rda ham u bog‘u rog‘lar yaratishga kirishdi. Aytishlaricha Bobu[illegible]ida [illegible]qilgan. 1508 – 1509 yillarda esa Odinapur qal`asi yaqinida “Bog‘I Vafo” [illegible]

1 – boshlovchi: – Aytishla[illegible]istonga birinchi bo‘lib Bobur keltirgan ekan. Bobur Mirzo tabiat go‘zalligini [illegible]digan inson bo‘lgan. U o‘zining “Boburnoma” asarida Dashti Sh[illegible]sadig[illegible]laning 33 xilini aniqlab, yozib qoldirgan.

2 – boshlovchi: – Zahiriddin Muhamm[illegible]bur i[illegible]r q[illegible]a xavas qilsa, undan har qancha saboq olsa arziydi. Bobur hayotida qanday bo‘[illegible], yo[illegible]da ham shunday: mard, rostgo‘y, tabiiylikni nihoyatda qadrlovchi, sam[illegible]vak[illegible]sohibidir.

1 – boshlovchi: – Bobur xalqimizning har jihatda[illegible] far[illegible](1521) “Zakot bayoni” asari, (1525) “Muxmasar” nomli risola “Xarb ishi”, [illegible]mi” [illegible]ri nafaqat o‘zbek adabiyoti balki jahon adabiyotining nodir namunasi sanaladi. B[illegible]m shoh, ham shoir, ham olim, ham oshiq, ayni paytda g‘urbat o‘tida bag[illegible]so‘zlashadi biz bilan.

2 – boshlovchi: – Zahiriddin Muhammad Bobur bor yo‘g‘I 47 yil u[illegible]bo‘ls[illegible]6 yilini uch mamlakatda: Movarounnahrda, 22 yili Qobulda va 5 yili H[illegible]

1 – boshlovchi: – Zahiriddin Muhammad Bobur biz uchun mahobatli bir[illegible]n umri hech qachon so‘nmaydi. Ana shu musaffo nur sizu bizning ong va idro[illegible]izmat qiladi. Bundan qarib 5 asr muqaddam shunday bo‘lgan. Hozir ham shunday, keyin[illegible]day qolajak.

2 – boshlovchi: – Uning asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Vatanim[illegible]zning eng diqqatga sazovor joylari shoir nomi bilan ataladi. Bu kun uning haykali poyida anvoyi gullar yashnab turibdi.

Boshlovchilar: – Mana azizlar! Shu bilan ulug‘ sarkarda iste’dodli shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga bag‘ishlangan kechamiz o‘z nihoyasiga yetdi. Xayr, omon bo‘ling!

NAMUNA

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

________________________shahar (viloyat)

__________________ tumani “____________” nomli

__-maktabgacha ta’lim tashkiloti

tayyorlov guruhi tarbiyachisining

20__-20__-o‘quv yili uchun

# Zulfiyaxonim tavalludiga bag‘ishlab “Zulfiyaxonim izdoshlari” mavzusida o‘tkazilgan tadbir

# SSENARIYSI

NAMUNA

Biz Zulfiyaxonim nabiralarimiz

bog‘chaning tadbir o‘tkaziladigan katta zali sharlar va gullar bilan bezatilgan.

Sahnada Zulfiyaxonim portreti. She'rlari tushirilgan rangli bukletlar. Iqtidorli bolalar tomonidan tasvirlangan rasmlari.

Musiqa sadolari ostida qo‘llarida sharlar bilan tayyorlov guruh bolalari sahnaga chiq[illegible]

[illegible]n:— Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, mehribon ustozlar! [illegible]shlari bo‘lgan qizlar va bilimdon bolajonlar! O‘zbekiston xalq sh[illegible] jamoat va davlat arbobi Zulfiyaxonim Isroilova tavalludining 109 [illegible]g‘ sa[illegible]abati bilan tashkil etilgan tadbirimizga xush kelibsiz!

E[illegible]axo[illegible]alqimizning atoqli farzandi, O‘zbekiston xalq s[illegible]ilu[illegible]avoharl'al Neru nomidagi xalqaro mukofotlar sohibasidir.

Zamiraxon:- Z[illegible]oni[illegible]martda Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida [illegible]

Gulhayoy:-Zulfiyaxo[illegible]ozon atrofida bezovta yurgan otasining ortidan e[illegible], “[illegible]ga q[illegible]‘irchoq yasab bering!” deb iltimos qilardi.

Zaynabxon:- Zulfiyaxonimning o[illegible] Xa[illegible]p[illegible]o‘shiq va afsonalarni, doston va ertaklarni bilardi[illegible]

Asadbek:-Zulfiyaxonim 1996-yil 1-avgu[illegible]81[illegible]a hay[illegible]rk etdi.

Gulmiraxon: Umr uzun karvon, yelkada yuk[illegible]

Goh xira, goh yorug‘, tonglardan o‘tar.

Shu karvon yo‘lida, bir azim daraxt

Baland shoxlari chirmashib o‘sar.Iqboloy:-Zulfiyaxonim [illegible]id Oli[illegible]o‘st, ijodiy izlanishlarida eng

yaxshi ko‘makchi bo‘lgan.

Normatjon:-Buyuk shoir Hamid Olimjon Zulfiyaga hamma narsada o‘rnak bo‘ldi.

Dinaraxon: Zulfiya ko‘nglini Hamidga soldi.

Go‘zal hayot zavqin diliga soldi.

Lek shodligi cho‘zilmay yiroq,

O‘lamini qopladi, ayriliq, firoq.

Shodiyorbek:-Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda yo‘l-transport hodisasi

NAMUNA

oqibatida Zulfiyaxonim va bu olamni tark etadi.



Sahna lolaqizg 'aldoqlar maketi bilan bezatiladi.

Shabnamoy: Ona turgan xonaga,
Qizi kirdi, yugurib.
Go‘yo [illegible] y olamga,
D[illegible] -ko‘pirib.
[illegible] im [illegible] nim, tez yuring!
[illegible] gul,
Hu[illegible] omini
Lola [illegible] abdi[illegible]
Zulayxo[illegible] ina [illegible] qizim,
Onasidan so [illegible] ang[illegible]
Ruxsat bersa, c[illegible]
Ko‘zingizga qarang[illegible] r

Gulmiraxon:-Zulfiyaxo[illegible] ar[illegible] monga, nabirasi
Ulug‘beklara bag‘ishlab ha[illegible] yo[illegible]

Nilufarxon: Hulkar degan qizcham[illegible]
Gul ichida o‘saman.
Ko‘kda uchsa kapalak,
Yo‘llarini to‘saman...Charosxon: Ukam bo[illegible] O[illegible]
Jonlari jonimga jon.
Yurt bo‘lsin omon-omon,
Yayraganimda...

Farruxjon: Nevaram quyunday otilib kirib,
Qalamim tagidan qog‘ozni yular.
Damda varrak yasab,
Ko‘kka uchirib,
Izidan qop-qora ko‘zlari yurar...

Gulmiraxon:-Zulfiyaxonim tabiat kuychisi, tong kuychisi.

Munisaxon: Men erkin Vatanda qushdayin ozod,
Emin-erkin o‘sdim, undim, gulladim.
Shu hayotda cheksiz quvnoqman, ham shod,
Butun borlig‘imni shunga yo‘lladim.

Irodaxon: Havo ko‘m-ko‘k, unda yo‘q beg‘ubor,

NAMUNA

Quyosh nurin behad sochadi.

Yerda ajib to‘lishib bahor,

Har kun yangi chehra ochadi.





Zilolaxon: Yomg‘ir, sen tabiat sahiy farzandi,

Menga ko‘rsat yo‘l.

San'ating sevadi yer-u ko‘k gardin,

Ezguliging mo‘l.

Hilo[illegible]n: Mehnat bergan oltin shodlikday,

[illegible]adi shalola.

[illegible] ill[illegible]dan yorliqday,

Y[illegible] tarona.

[illegible]:-Ona[illegible]muqaddas va buyuk zot. U bir qo‘li bilan beshikni, [illegible]ni qo‘[illegible] tebratadi. Ona qalbi-insoniyat qalbi. Uning haya[illegible]lari[illegible]ik ishonch bor. Zulfiyaxonim ona, sadoqatli ayol siymosini madh etib, ko[illegible]zgan.

Zaynabxon: [illegible]menin[illegible]ehribon onam,

Qalbimda ovoz[illegible]g, o‘[illegible]

Quyosh og‘ushiga [illegible]ni

Shu'laday odiming qaysi [illegible]

Asadbek: Kim tanimas biz[illegible]ng o[illegible]

Siz qayda sezmaysiz issiq nafa[illegible]

O‘lchab bo‘larmikin ona mehrini,

Tugatib bo‘larmi aytib qissasin?

Gulmiraxon:-Shoira Zulfiya Oybek, G‘af[illegible]bdul[illegible], Mirtemir kabi shoirlar bilan mushoiralar o‘tkazar edi. G[illegible]r G[illegible]om, Abdulla Qahhor, Mirtemirning she'rlarini tinglab, [illegible]ardi. Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir Zulfiya[illegible]a ta'rif bitganlar.

Elveraxon: G‘afur G‘ulom “Zulfiyabegimga” she'ri

Umrlarcha davom etsin,

Vatan ufqida parvozing,

Zamon aksi sadosidek,

jaranglab tursin ovozing.

Asrlarning nidosi yangragan

NAMUNA

har parda satringkim,

Hayotiy shoshmaqomlardir

yurak zarbiga teng sozing.

Zamiraxon: Erkin Vohidov “Vafo” she’ri

Meni barhayotsan,

Deding, shoiram.

Yorug‘ dunyodagi,

Hayotim o‘zing...



Gulhayooy: Hamid G‘ulom “lltijo” she'ri

Shahar markazida ko‘rkam bir uy bor, To‘rt tomon xiyobon, gullar doira.

Bu yerda yashashni etmish ixtiyor,

Ardoqli bir inson, buyuk shoira.

Normatjon: Gulchehra Jo‘rayeva “Eng yaqin yulduz” she'ri

Eng yuksak, eng yorqin, eng yaqin yulduz,

Ko‘kning zuhrosi-yu, she'r Zulfiyasi.

Ikkingiz egizak bir yolqinli so‘z,

Mangulikning sevgan juft madhiyasi.

Dunyoda yagona bo‘lgan bu mukofot yurtimizdagi iste'dodli qizlarimizning adabiyot, san'at, fan, madaniyat va ta'lim sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun berilmoqda. Zulfiyaxonim izdoshlari yurtimiz nomini ulug‘lab kelmoqdalar.

Gulmiraxon:-Zulfiyaxonim o‘z she'rlari bilan barchamizni hayotni, go‘zallikni, tiriklikni, istiqbolni ulug‘lab yashashga da'vat etadi.

Barchangizga eng yaxshi tilaklar hamroh bo‘lsin!



**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VA[illegible]LIGI ___________________________shahar (viloyat)**

**_____ _______tuman "______________" nomli [illegible]bgacha ta'lim tashkiloti**

**ta[illegible]lov[illegible] tarbiyachisining**

**20[illegible] o'[illegible] yili uchun**

# "8-mart [illegible] x[illegible]tin-qizlar bayrami[illegible]ga[illegible]g'ishlab o'tkazilg[illegible]

# SSENAR[illegible]SI

NAMUNA

Zal bayramona bezatilgan. Bolalar kirib kelishadi.

Boshlovchilar:

Kulib issiq yuzimiz
Porlab turar ko‘zimiz
Assalomu alaykum
Eng birinchi so‘zimiz.

Mehribon onalarga
Jonkuyar onalarga
Qadrdon ustozlarga
Assalomu alaykum.

Ayamagan vaqtini
Bizga bergan pandini
Ham asal ham qandini
Onajonlar assalom.

- Assalomu alaykum bayramimizning aziz mehmonlari.
- Bugungi Onajonlar bayramiga bag‘ishlangan bayram ertaligimizga xush kelibsiz.

Birgalikda: Barchangizni kirib kelayotgan 8-mart Onajonlar bayrami bilan chin yurakdan muborakbod etamiz.

Butun hafta tinmasdan
Bizlar harakat qildik.
Shoshib-pishib tinmasdan
Kecha zo‘rg‘a tugatdik.
Bayramga onalarga
Nima sovg‘a qilamiz
Hayollar turli-tuman
Har bir bola boshida.

Kutilmagan sovg‘alar
Qiziq bo‘ladi juda
Tog‘orada xamir qorsam
Pechkamiz chidab bersa
Pirog, somsalar yopsam.

Men esa onam uchun
Devorga gul chizaman.
Ozgina bo‘yim o‘ssa
Qandillarni yuvaman.

Hal qilaylik onalarga
Nima sovg‘a qilishni.

Ha, men o‘ylab topdim
Jonim bilan aytaman.
Hammangiz keling yaqin
Men sizlarga aytaman.

Aziz onajonlar qabul eting tabrigimiz, barcha qo‘shiq kuyimiz sizga atalgan.

“Onajonlar ashulasi”

Sakkizinchi mart kuni
Onajonlar bayrami
Yo‘llariga poyondoz
Dasta gullar boylami.

A’lo baho sovg‘amiz
Onajonlar assalom
Hamisha ta’zimdamiz
Mehribonlar assalom.

Boshlovchilar:

Bugun bahor nafasi
Chor-atrofni bezadi
Bolajonlar bog‘lardan
Boychechaklar uzadi.

Ilk bahorning quyoshi
Sizlargadir onajon
Onalarga muhabbat
Dilimizda bir jahon.

Bu jahonni qo‘lida
Ushlab turar onalar
Xursand qilsak biz bilan
Birga kular onalar.

Onajonlar yuzingiz
Tabassumdan porlasin
Baxtimizga onalar
Hech xastalik ko‘rmasin.

Ma[illegible]a navbatni she’rga beramiz.

[illegible]basan
Sen[illegible]hiqmaydi
Se[illegible]elgan b[illegible]
S[illegible] qayt[illegible]
Sen [illegible] za[illegible]
Otabek[illegible]
To‘maris [illegible]
Ko‘kning mohi[illegible]

Ilk davrimda Onajonim
Men ko‘chaga chopardim
BIr zumdayoq o‘yinchog‘u
Ham o‘rtoqlar topardim.
Qo‘llarimdan ushlab doim
Kuzatsangiz bo‘gchaga
[illegible]ch ajratgim kelmay doim
[illegible]edim xarxasha.

Endi ba’zan ukal[illegible]n
Qilganida injiqlik
Unday qilma, bo‘lgin o[illegible]
Ukajonim sen eslik.

[illegible]onlar bizga bergan
[illegible]ir umr
[illegible] deymiz
[illegible]akkur.

NAMUNA

Onajonim mehribonim
Bayramingiz muborak
Onajonim nur jahonim
Bayramingiz muborak.



O‘g‘il bolalar qizlar ijrosida raqs tomosha qilan[illegible]

“Assalom raqsi”

Boshlovchi: Yana navbatni she’rga beramiz.

Ortingizdan taqlid qilib
Qo‘g‘irchog‘im boqaman
Uy-joylarni yig‘ishtirib
Sizga chandon boqaman.

Xolakasi o‘ynaganda
Oyisi men bo‘laman
Hamma ishda oyijonim
Sizga taqlid qilaman.

Kechalari boshim uzra
Ertak aytib berdingiz
Xafa bo‘lsam yig‘ladingiz
Men kulganda kuldingiz
Qo‘lingizga kitob olib
Qiziqtirib kitobga
Chehrangizdan nur yog‘ilar
Tenglagayman oftobga.

Buvijonim borlar
Hammadan ham mehribon
Boshimizda parvonalar
Kasal bo‘lsak nogahon
Ertaklari juda qiziq
Qiqir-qiqir kulamiz.
Ba’zan esa yonlarida
Mudrab uxlab qolamiz.



Onajonim katta bo‘lsam
Ishingizni olaman
Dam oling deb t[illegible]gingizga
Ko‘rpachala[illegible]an
Shul saba[illegible]im
Bo‘li[illegible]oma
On[illegible]r
Sh[illegible]ax[illegible]

Boshlov[illegible]amat[illegible]sahna ko‘rinishiga.

Dilbar: Dilsho[illegible]im[illegible]sizlar?
Bolalar: Assalo[illegible] opa. B[illegible]z onajonimizga sovg‘a tayyorlayapmiz. Hali ishdan kelsalar tabrikla[illegible]
Dilbar: Uylar yig‘isht[illegible]i, ha[illegible]ilib yotibdiku. Onajonimizni bunday ahvolda xursand qilib b[illegible]ayd[illegible]

Bolalar nima qilish kerak?

Dilbar: Dilshod sen o‘yinchoqlarn[illegible]sht[illegible] sen[illegible]urgini olib kel. Men uy va pollarni supurib beraman. Sizlar uyning[illegible]ing[illegible]arting. Hamma yoqni tozalab so‘ngra oyimizga sovg‘a tayyo[illegible]day[illegible] o‘ylab ko‘ramiz.

Bolalar: Xo‘p boladi Dilbar opa.

Dilshod: Yo‘q-yo‘q bu ishlar sizlarning ishlaring[illegible]oyim[illegible]qa sovg‘a tayyorlayman – deb yugurib chiqib ketadi.

Qizlar o‘zlari yig‘ishtirmasang yig‘ishtirma deb hamma jo[illegible]
Onasi kirib keladi.

-Assalomu alaykum oyijon. Yaxshi keldingizmi?
Dildora: Oyijon bayramga-chi sizga she’r yod oldim.
Oyisi: Qani eshitaylik-chi?

Onajonim mehribonim
Bayramingiz muborak
Onajonim nur jahonim
Bayramingiz muborak.



Oyisi: Rahmat Dildora qizim juda xursand bo‘ldim.
Shu payt eshikdan Dilshod kirib keladi va raqsga tushib ketadi
Onasi raqs tugagach Voy bu kim bo‘ldi? Qizlarim tanimayapman.
Dilshod oyisiga o‘zini tanishtiradi.

NAMUNA

Oyisi xursand bo‘lib: - Meni juda xursand qildinglar. Hammasi uchun rahmat. Lekin hammasidan ham uylarni saranjomlab, ahil-inoq o‘tirganinglarni ko‘rib yanada xursand bo‘ldim.

Dildora: -Oyjon buni bizga Dilbar opam o‘rgatdilar.

Dilshod: Ha Dilbar opam ko‘p ish qildilar. Bizlar ham ozgina qarashdik.

Oyisi: Rahmat Dilbar qizim. Doimo shunday bo‘linglar, - deydiyu sovg‘alarini bolalariga tarqatadi.
Yana navbat she’rga.

Qo‘shiq aytmang shamollarga siz
Yuz tutmang hech zavollarga siz
Baxt ulashing ayollarga siz
Shirin sozlar ayting kamida
Sakkizinchi mart bayramida

Tinglang ko‘ngil kitoblarini
Oching tarix kitoblarini
Ko‘ring ayol shitoblarini
Lazzat bo‘ling hayot ta’mida
Sakkizinchi mart bayramida.

Aritmang hech labda kulguni
Yurak sevar bunday tuyg‘uni
Oling do‘stlar qo‘lga cholg‘uni
Nur tarating umr shamida
Sakkizinchi mart bayramida.

Yiroq ketsang zor kutgan ular
Azob chekib dard yutgan ular
Siz deb o‘zin unutgan ular
May tutaylik bir ishq tomida
Sakkizinchi mart bayramida

Ana endi marhamat ashula tinglaymiz.

“Ona qo‘llari” ashulasi

Boshlovchilar: Keling endi navbatni “Keling bir kulishaylik” sahnasiga beramiz.

1-bola: -Botirjon, gulmisiz, rayhonmisiz, jambulmisiz?
2-bola: -Akajon aytganingizman.
1-bola: -Ertalab hovliqib bayramga 1-bo‘lib kelibsiz, bilganlar Botirjon deydi.
2-bola: -Bilmaganlar-chi?
1-bola: -Bilmaganlar bahorning birinchi guli boychechak ekan deydi.
2-bola: -Menku mayli, aka, bayramga birinchi kelib, boychechakdek ajralib turibman. Sizning og‘zingizni ochib kelishingizni ko‘rib karnaygulmi debman.
3-bola: -Men ham ertalab kelib qoqio‘t ochilibdi deb yuribman, keyin bilsam Botirjon bilan sizlar ekansiz.
4-bola: -O‘rtoq, to‘g‘ri aytasiz. Men ham sizlarni ko‘rgan edim. O‘shanda nima uchundir gulga emas chaqirtikanakka o‘xshatib yuribman.
5-bola: -Chaqirtikanakka o‘xshagan bo‘lsak bordir, lekin men ham sizga qarab bu gulbeor bu yerda nima qilib yuribdi deb o‘yladim.
1-bola: -Mayli o‘rtoqlar Navro‘z bayrami davrasida hammamizning shu turishimiz gultojixo‘rozga o‘xshaydi.
2-bola: -Og‘ayni, siz bizni gultujixo‘rozga o‘xshatdingiz, men boshqa narsaga o‘xshatib turgan edim.
3-bola: Nimaga ekan, og‘ayni?
2-bola: -Bizning bu turishimiz turli gullardan tuzilgan guldastaga o‘xshaydi.
4-bola: -Hammasi mayli, bizni ko‘rib bog‘bon gulqaychi ko‘tarib kelib qaychilab qo‘ymasinda deb turibman.

5-bola: -Akalar, gulqahqah bo‘llib  bir oz kulishdik. Keling gulzorga kirib o‘z o‘rnimizni topib olaylik, bo‘lmasa, bizni sassiq alaf nima qilib yuribdi deb yulib tashlashmasin. ( kulishadi, bolalar joyiga borib o‘tirishadi.)

Nima uchun yoqut olmas
Sovg‘a qiladilar oddiygina gul
Nahotki qadrli dur-gavhardan ham
Atirgul, chuchmoma, rayxonu sumbul

Onalar bayrami kirib kelmoqda
Nima qilsam ekan boshim qotmoqda
Qanday sovg‘a tayyorlay onajonimga
Nima yoqadi o‘zi mehribonimga.

[illegible]ir hovuch olmos beraymi
[illegible] yulduzli samolar
[illegible]arixdan saboq olaylik
Ni[illegible]gan bobolar.

Andijonlik onalar
Xush ko‘rishgan oltinni
Yoki duru gavhar
Balki billur solishgan.

[illegible]ovchilar: Ana endi Andijonlik yigitlar ijrosida raqs tomosha qilamiz.

On[illegible]nim
[illegible]gi[illegible]ak
[illegible]im[illegible]onim
[illegible]yi[illegible]uborak
Onai[illegible]zan [illegible]
Yosh[illegible]ech[illegible]
O‘yinq[illegible]or l[illegible]
Tosh bu d[illegible]o‘[illegible]
Darhaqiqat i[illegible] yo[illegible]

Bayram bilan qutlamoqlik
Bizga sharaf-shon bo‘ldi.
Ona mehri farzandlariga
Hech tuganmas kon bo‘ldi.
Мама очен а люблю
Раставитса не хочу
Абнимала славила

Boshlovchilar: Bu[illegible]ngi [illegible]izga [illegible]onlarimiz tashrif buyurishgan. Kutib oling. O‘zbekiston madonna[illegible] Us[illegible] Ruslan Sharipovlar.

Boshlovchilarning xayrlashuv[illegible]



NAMUNA

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# MAKT[redacted]GACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

______[redacted]______shahar (viloyat)

______[redacted]man "[redacted]____________" nomli

__-ma[redacted]og[redacted]im tashkiloti

tayyorlov g[redacted]ru[redacted]hisining

20__-20__-[redacted]q[redacted]i u[redacted]n

# 21-MART NAVRO[redacted]Z[redacted]XALQ BAYRAMI MUNOS[redacted]BA[redacted]BI[redacted]AN O'TKAZILGAN T[redacted]DBI[redacted]

# SSENARI[redacted]



NAMUNA

## NAVRO‘Z – BAHOR BAYRAMI ERTALIGI

Saxna bayramona bezatilgan, gullar, kaldirgochlar, daraxtlar, urtada «Assalom Navruz» deb yozilgan yozma. Saxnaga milliy musiqa ostida jarchi kirib keladi.
Sho‘x musiqa ostida bolalar zalga karsaklar bilan kirib keladilar.

**Jarchi:**
Bor-xo, kel-xo
Hamalim-xa, amalim-xa.
Sayl bayda tezda etib kel
Uynagani kel, kuylagani kel.
Kuvnagani kel, kelmasang ham
Kel-oooooooooooo!




**Boshlovchi:** Xa, xa nima gap tinchlikmi uzi?

**Jarchi:** Elimizga Navruzi olam keldi, xali xabaringiz yukmi?

**Boshlovchi:** Bulmasa urtoklaringni hammasini chakir, boychechak topaylik. Boychechak kuklamning ilk elchisi. Birgalikda boychechakni olib xonadonlarga kirib olgan kishni xaydaylik. Uni omonlik-somonlik deb kuzlariga surtish uchun momolarimiz va bobolarimizga etkazaylik.

**Boshlovchi:**
Boychechak chikibdi bugun Navruz ekan.
Hamma bir-biriga jigar Suz ekan.
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan.
Boychechak chikibdi bugun Navruz ekan.
Assalom yuzlari yorug Navruzim
Assalom tong kabi otgan Navruzim

**«NAVRUZIM SHO‘X SOZIM» AShULASI.**

**Ayamajuz kampir:** Xa xali boychechak termokchimisizlar, chuchvarani xom sanabsizlar. Terib bupsiz. Men hozir Sarik Sumalak, Axmon Daxmon, Xezim Kurbon, Nozim Navruz kabi do‘stlarimni shunday ishga solayki, nish urayotgan kukatlaru maysa giyoxlar unmay kuysin. Axir fasllar ichida eng a’loasi bulgan kish tugab kolsa biz nima qilamiz. Kelinglar meni yordamchilariim uz xunaringizni kursating.

**Buron:** Xukmimni utkazaman, zaxmatlar etkazaman.

**Jarchi:**
Yuk, yuk buron shoshmagin kup xaddingdan oshmagin.
Xech kachon engolmaysan zaminni ololmaysan.
Urtoklar birgalikda Ayamajuzni xaydaylik
Do‘stlari bilan birga zamindan chikaraylik

Ushanda kunlar isib yurtda mul-kul buladi
Maysalar ham nish urib baxor kulib keladi.
Kani-kani boshladik.

(musiqa ostida xaydashadi, musiqa ostida kuyosh kirib keladi)

NAMUNA

**[illegible]sh:** Salom aziz bolalarim gulu-rayxon lolalarim
Navruzingiz muborak bayram shodlik muborak
Men kuyoshman nurlarim bilan ilik, issik taftlarim bilan
Xar tong men ham shoshaman yayrab nurim sochaman.
Baxor keldi zaminga daraxtlaru gullarga
Insonu-jonzotlarga ayniksa dexkonlarga

([illegible]obo [illegible]echak yotgan joydan aylanib utadi. Asta-sekin issik taftidan ok [illegible]yshab kor tagida yotgan boychechak kuzgala boshlaydi.)

**Jarchi:** [illegible]uyosh bobo nuringizdan boychechak ham uygondi.

**Bola:** [illegible]ng bolasi kulogida donasi
[illegible] yugurib chiksin onasi.

**Bola:** B[illegible]ak g[illegible]lir Navruz faslin naslidir.
[illegible]echa[illegible]hak kutib olay xushchakchak.

**«BO[illegible]IAL[illegible]ASI.**

**Boshlovchi:** Kup utm[illegible]lib Y[illegible]llurdek balkdi
Jonivorlar y[illegible]ishn[illegible]oklar zarmunchok takdi.
Barcha xushnud RAO[illegible]r s[illegible]yning sho'x sadosi
Navruzning shodl[illegible]si.

**«SURNAY NAVOSI»**

**Boshlovchi:** Salkin saxarlarda bodom g[illegible]da
Binafsha labida erlarda baxor
Kushlarning parvozi ellarning n[illegible]
Baxmal vodiylarda kirlada baxor.

Aziz bolajonlar va mehmonlar davra[illegible]izga guzal Baxoroy tashrif buyuryapti. Kani Baxoroyni karsaklar bilan kutib olaylik.

**«BAXOR VALSI» MUSIQASI.**

**Boshlovchi:** Xush kelibsan guzal baxor chin kungildan assalom
Xush kelibsan Yana bir bor sengadir shirin kalom.

**Baxoroy:** Xush vakt buling bolalar gulu rayxon lolalar.
Navruzingiz muborak bayram shodlik muborak.
Men Baxoroy gullarim bilan ilik kuyosh nurlarim bilan
Kushik aytib sho‘x irmoklarim elday uynab Kuk yaproklarim
Mehmon bo‘lib keldim bolalar olib keldim gulu lolalarim.





Bolajonlar men sizlarga topishmoklar olib kelganman men ularsiz guzal Baxoroy bula olmayman. Topasizlarmi?

**TOPIShMOKLAR.**

1. Toshu kumlarni surib togdan kelar yugurib. (Suv)
2. Baxorda usib chikdim yam-yashil bo‘lib chikdi. (Maysa)
[illegible] Nur sochar utli yashar bokay desang kuz kamashar. (Kuyosh)
4. Uz[illegible] kizil guzal biram, kirga yozar guzal gilam. [illegible]lalar).
[illegible]yoksiz eshik ochar. (Shamol)
[illegible]anda dala - qir kuladi qiqir-qiqir. (Yomgir)

Raxmat bolajonlar [illegible]sizlar. Bolajonlar men yanachi sizlarga gullarni olib kelganman [illegible]adi.

(«Uzbekiston gulzor[illegible]iga [illegible]b kelib saf tortib turadilar)

**Hamma gullar:** Keldi baxor[illegible]r bi[illegible]rinng elchisi
Bizni baxo[illegible] k[illegible]orning elchisi

**Chuchmoma:** Men ut[illegible]an [illegible]or gullola
Men baxor yuld[illegible] men[illegible]a chuchmoma.

**Boychechak:** Ochildimi boyche[illegible]ak [illegible]gul dem[illegible]k.
Chunki baxor elchisi men mi[illegible]chech[illegible]

**Kokigul:** Kimniki bor chorbogi usib yotar gul[illegible]
Barglarim kungarador sap-sarik gu[illegible]r.

**Binafsha:** Binafshaman binafsha navbaxorning guli[illegible]
Erta baxor ochilib sizni xursand qilaman.

**Lola:** Bargim yashil va tarang shapalokday xar biri,
Lolaga siz bir karang gullarning eng dilgiri.

**Atirgal:** Atirgulman atirgul, yayrab, kuvnab uynab kul.
Mendan yasab guldasta meni hamma sevadi.

NAMUNA

Gullar ichra uktamman, xar insonga hamdamman.
Ana shunday atirman hamma yokka tatirman.

**Kungirokgul:** Buyim baland kungirokgul bargim yashil gulim kukich
Shamol deydi kulib nukul gul yuzingdan bergil upich.

**«GULLAR RAQSII».**
**«BAXOR GULLAR» AShULA.**

**Bola:** Baxor keldi gulbaxor etagida gul tutib
Bizga intik lolazor kirlar bagrida kutib

**Bola:** Atrof tula xar xil gul chuchmomayu, binafsha
Bizning kuklamlar butkul chiroylidir hamisha

**Bola:** Gul bogcham keng kuchogi jajji gulga tulibdi.
Kumush duppilar kiyib bochechaklar kulibdi.

**Bola:** Kuyosh jilmayar Yana boshimizdan sochib nur
Gullari kup Vatanda xayotimiz kuvnok, xur.

**Baxoroy:** Bolajonlar endi lola sayliga marhamat.

**«LOLA SAYRI» AShULA.**

**Baxoroy:** Bolajonlar ulkamizga men bilan birgalikda kushlar ham uchib kelishgan. Kim kushlar tugrisida she'rlar biladi.

**Bola:** Baxor keldi elimizga kuvonch tuldi dilimizga,
Keling kushlar, uching kushlar, bizlar do'stmiz doim sizga.

**Bola:** Baxorni kutdik juda soginchimiz gul buldi.
Kushlar sayragan chogda kalblar shodlikka tuldi.

**Baxoroy:** Endi men sizlarga kushlar xakida topishmoklar aytaman.

Kasbi doim takir-tukir, kayda ilon kursa chukir. (laylak)

**Laylak:** Men kushlarga sozanda soz chalaman azonda.
Dala dashtda yuraman yoz gashtini suraman.

**Baxoroy:** Gul ustida usta ashulachi. (bulbul)

**Bulbul:** Bulbul derlar otimni surishtirsang otimni
Mittigina kushchaman oshiyonim bog-chaman
Sizga aytsam ochigin men guzallik oshigi.

**Baxoroy:** O'yning shiftida uyi, kuylab berar xar kuni
Baxorda kutib olib kuzatamiz kuz kuni (kaldirgoch)

**Kaldirgoch:** Kaldirgochman kaldirgoch eshigingni tezrok och
Uyga kirib dam olay sung uzimga in solay
Aslida kuruvchiman pashshani kiruvchiman
Odamlarga kulsa baxt men ham shodman hamma vakt

**[illegible]:** Baxorda ochib kuchok kukka sodi argimchok. (turna)

**[illegible]** Men turnaman turnaman makonim issik ulka
Solib doim argimchok kur-kur deb utamiz
Tizilishib xar safar baxor bulsa kaytamiz

**Bax[illegible]:** A[illegible] bolajonlar kushlarni doim avaylab-asrang. [illegible]ch ham nobud bulmasin.

**Bola:** [illegible]dirlada, tol novdasida
[illegible]labida kuklarda Navruz
[illegible]sh[illegible]ing ufirishida
[illegible]a, dillarda Navruz!

**Bola:** [illegible]a, yalpiz bargida
Bod[illegible]gida [illegible]da Navruz!
T[illegible] bogl[illegible]unchasida
B[illegible]on d[illegible]a N[illegible]ruz!

**Bola:** Do'stlar[illegible]
Kushikla[illegible]an[illegible]da N[illegible]z!
Momolar d[illegible]asid[illegible]
Kungil sururida [illegible]arda [illegible]

**«KELINChA[illegible]**

**«KELDI YaNA BAX[illegible]»**

**Boshlovchi:** Bolalar davramizga de[illegible]ko[illegible]ptilar!

**«DILXIROJ» MUS[illegible]**

**Dexkonbobo:** Salom bolalar Kuzi munch[illegible]
Keltirdim sizga kukat va gullar
Eksangiz uni yashnagay dillar.
Navruzingiz muborak bayram shod[illegible]ik n[illegible]

**Boshlovchi:** Raxmat bobojon sizning bayramingiz [illegible]borak bulsin.

**Dexkonbobo:** Bolalar bir topishmogim bor topasizlarm[illegible]

**Bolalar:** Topamiz!

**Dexkonbobo:** Kecha-kunduz kaynaydi dillarni u xushlaydi
Vitaminga juda boy esang bilasan misli toy.

**Bolalar:** Sumalak!

**Dexkonbobo:** Judayam tugri bolajonlar. Bu sumalak. Kani menga Kim sumalak tugrisida she'rlar va ashulalar aytib beradi.

**Bola:** Doshkozonda kaynagan esang taning yayragan
Elni birga jamlagan do'st kadrdon aylagan

NAMUNA

Sumalagu, sumalak!

**Bola:** Tanga darmon sumalak dilga armon sumalak
Eganlar bilar ta'min bordir yuz xil vitamin
Sumalagu.sumalak!

**Bola:** Buvim soldi sumalak pishirolmay biz xalak
Suyulib ketgan ekan, un tashladik bir chelak.
Mexnat Zoe ketmapti shirin bupti sumalak
Endi biz kushnilarga sumalak tashib xalak.

**«SUMALAK» AShULASI.**

**Dexkonbobo:** E…Raxmat bolajonlar! Meni xushnud ettinglar. Endichi bolajonlar «Kim chakkon» uyinini uynaymiz. Men sizlarga momolarimiz pishirgan sumalakdan olib kelganman. Shu sumalakni Kim birinchi yalab tugatsa u golib buladi.

**«KIM ChAKKON» UYINI.**

**Dexkonbobo:** Raxmat bolajonlar! Judayam chakon, kuvnok, zukko bolalar ekansizlar. Men ham boray, ishlar boshlanyapti. Tuprok ilib koldi. Dalalar meni chorlamokda. Baxor esa kutib turmaydi. Sizlarning rizku - ruzingiz baraka urugini Ayni erga sepish vakti. Kani Baxoroy yuring ulkamizni kezaylik butun borlikni jonlantiraylik. Xayr bolajonlar kuz faslida uchrashguncha xayr!!!

**Bola:** Bogda uynaymiz kuvnab gul tutadi gulbaxor
Shu yashnagan Vatanda biz a badiy baxtiyor.

**Bola:** Bogchamizning bogida kul ushlashib uynaymiz,
Vatanimiz sha'niin kushik qilib kuylaymiz!

**«YURTIMDA BAYRAM BULSIN» ASHULA**



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

__________________shahar (viloyat)

________________tuman “_____________” nomli

[illegible]cha ta’lim tashkiloti

tayyo[illegible]gur[illegible]rbiyachisining

20__-2[illegible]li uchun

# Buyuk sark[illegible]ur Temur tavalludining 68[illegible]iligiga bag‘ishlab “Buy[illegible]arda” mavzusida o‘tkazilgan [illegible]ir

# SSENARIY[illegible]

NAMUNA

# *“Amir Temur buyuk sarkarda”*

**1-boshlovchi**:



Tarixlarga ko‘mdim men ham o‘zimni
Xalqim senga bergan ekan so‘zimni
Dedim tunlar tinglab qora ko‘zimni
Bitarmikan hech dostoni o‘zbekning

**2-boshlovchi**:

Oltin yoqur sochgan turkiy sadolar
Xobi bitik toshidagi pidolar
Bugun buyuk bilsin bo‘lgan imlolar
Kechmishlardan bir pishoni o‘zbekning

**1-boshlovchi**:

Mag‘ribga ham yetgan dunyo talashib
O, yeldirim haling nadir adashib
Tarix ichra keldi doim almashib
Goh tantana, goh armoni o‘zbekning




**2-boshlovchi**:

Yunon keldi kulgi bo‘ldi oqibat
Mo‘g‘il uning mulki bo‘ldi oqibat
Qolgan arab turkiy bo‘ldi oqibat
Bor Temurbek bir o‘g‘loni o‘zbekning
Amir Temur sharaf shoni o‘zbekning

**1-boshlovchi**: Assalomu alaykum, zaminimiz, yurtimiz, tariximiz bir bo‘lgan yurtdoshlar.

**2-boshlovchi**: Assalomu alaykum bu ulug‘ kunda nafaqat o‘zbek xalqi tarixi balki jahon tarixida ismi zarhol harflar ila yozilgan buyuk bobokalonimiz tavallud topgan.

**1-boshlovchi**: Qayta dunyoga kelgan o‘zbegimning farzandi
Olti yuz yetmish 7 yoshli, tetapoya dilbandi.
Mag‘ribdan mashriqqacha, yodga oldim zabt etgan
Sarkardani ushbu kun, yodga oldim amirim.

Keling, 688 yil orqaga qaytamiz. Bundan 688 yil oldin Qashqadaryo vohasi, hozirgi sh[illegible]xrisabz, qo'xna Kesh bekligidagi Xo'ja ilg'or qishl[illegible]mir Tarag'ay, Barlos va Takinaxonim [illegible]and[illegible]nyo keldi.




[illegible]yoshi ulug'lar olloh o'zingga shukur. Uni[illegible]bordin[illegible]onlardan himoyasiz go'dakni o'zi[illegible]a d[illegible]hdi. O'sha kun 1336 yil 9 aprel sa[illegible]

**Amir Te[illegible] otas[illegible]**hu jigarbandimga umrimni berdim[illegible]

**Onasi:** – Oll[illegible]n.

**Otasi:** - Bo'lmasa[illegible]or[illegible]

**Onasi:** -Ketmas davl[illegible]sin.

**Otasi:** -Jonimni berdim, [illegible]g' a[illegible]ng shonini, barlos urug'ining or-nomusini berdim.

**Onasi:** - Yo'q, sizmas men beray[illegible]y ha[illegible]onimni.

**Otasi:** - Hech bo'lmasa oromimni u[illegible]m s[illegible]ndimga.

**Onasi**: - Ertaga beshik to'yi ne maslahat berursi[illegible]

**Otasi**: - Butun Kesh axliga jarchi jo'natdi[illegible] to'yidek to'y xali ko'rmagan bo'lsin bu axli jahon.

**1-boshlovchi**: Ha o'zbek xalqi boshiga ne-ne sitamla[illegible]sa [illegible]urf-odatlarini esdan chiqarmagan lekin, o'sha paytda xalq juda ez[illegible]ullar bosib olgan edi.

**1-boshlovchi**: tomonidan "Sohibqironim bor manim" raqs.

**2-boshlovchi**: Ruxingizni shod etmoq uchun dostonlar kamlik qilur

Sizga kelgan sa'nalarga avlodlar qolgan bo'lur

Nurli tuzuklaringiz dunyoni yo'lga solur

Farzandingiz bugun sizni yodga oldi amirim.

-----------------------------_________________ *tomonidan Amir Temur o'gitlari.*

------------------------------------------------------------------------------------------

NAMUNA

**1-boshlovchi**: Darhaqiqat, bu ko‘xna dunyoda jahongirlar ko‘p o‘tgan. Ularning aksariyati faqat buzgan. A.Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. SHu sababdan u muborak zot o‘z hikmatlarida “Qay bir joydan bir g‘isht olsam o‘rniga o‘n g‘isht quydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim” deb, yozib qoldirgan edilar.

*Endigi navbat___________________________A.Temur haqida she’r.*

**1-boshlovchi**: ____________________________ tomonidan raqs.

2-boshlovchi: Necha yillar ta’nalarni yutgan tubsiz ummonim
Avf etdingiz bag‘ri kengim cheksizlikda osmonim
Millatimga qalqon bo‘lgan tog‘lar yang‘lig‘ posbonim
Avlodingiz bugun sizni yodda oldi amirim

Endi marhamat tarix kursi tinglovchilari tomonidan Buyuk shaxslarning sohibqiron A.Temur haqidagi fikrlari.

-Sohibqiron A.Temur Osiyo va yevropa jug‘rofiy o‘lkalarni yagona makon deb xis etdi. SHu sababli Usmonli Turklar imperiyasini batafsil yo‘q qilishni maqsad qilmadi.



-Nihoyat sarxusht qo‘rqinchli zamonlar bo‘lishiga qaramay Temur xokimiyatining soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo sotiq jonli va havfsizdir. (Xerman Vamberli nemis tarixchisi)

-SHarofiddin Ali YAzdiy (Zafarnoma) A.Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko‘rar edi. SHuning uchun uning yurtida hamma ishlar adolat yuzasidan amalga oshirilar edi. U kishi ilm fanni ilm ahlini nihoyatda hurmat qilar edilar. U kishining maqsadi mamlakatda madaniyat, adabiyot san’atni rivojlantirish edi va bu maqsadga erishdi.

**raqs.**

**1-boshlovchi**: Tarixim osmonida yongan yorug‘ yulduzsiz
Yo‘llarni ravon qilgan charaqlagan kunduzsiz

SHon-shavkatli qudratli saltanatli saroyli

Podshohimni ushbu kun yodga oldim amirim

**Muallif**: - A.Temurning qizidan nabirasi Xusayn o‘ziga meros tegmagani bois Misr va SHom sultoni Faraj bilan A.Temurga qarshi ittifoq tuzadi.

**Mulozim:** - G‘aroyib xushxabar, a’lohazrat!

**Faraj:** - Xushxabar?

**M[illegible]lozim**: SHunday,a’lohazrat!... G‘anim podshosi Amir Temurning Husayn otliq bir [illegible]evarasi mingta navkari birlan hozirgina biz tomong‘a qochib o‘tdi!

**(SHa[illegible] olib kiriladi)**

[illegible]im sizda, shahzoda?... Maqsadga ko‘ching?

[illegible]omning ulug‘ sultoniga sidqidildan xizmatg‘a keldim!

F[illegible]bab?

H[illegible]: - [illegible]z bobomdan norizomen!

**Faraj:** [illegible]si nedur norizolikning?

**Husayn**: [illegible] Muxammad sultonni o‘z valiaxti etib e’lon qildi. Boshqa nab[illegible]ga [illegible] mu[illegible]nom qildi. Men qizidan tug‘ilg‘onim uchunmu bilmadimu amm[illegible]ng b[illegible]nasib qoldim. Men endi o‘z ulushimni kurashib qo‘lga kiritmoqchiman.

**Muallif:** - A.Te[illegible]ngd[illegible]o‘ldi. Misr sultoni qochib ketdi. Husayn qo‘lga olindi. Ammo A.Te[illegible] alab[illegible]sand emas. CHunki uning qalbiga xiyonat o‘z xanjarini urgan.

**SHoxmalik:** - A’loxazra[illegible]g‘alaba shodiyonalari yangramoqda. Kuch-qudrat[illegible]din [illegible] To‘xtamishlarning qolishmayturg‘on [illegible]rli g‘animingiz sulton Faraj bugun mag‘lub etildi. [illegible] SHohruh Mirzo Husaynni asirga olib o‘z cho[illegible]ng[illegible] kelturdi.



**Amir Temur**: - (azobda) G‘alaba, ulug‘ zafar. Hech bir g‘alaba, hatto mag‘lubiyatdin keyin ham men bunchalik mahzun holatda bo‘lmag‘on erdim. O‘z nevaram o‘z qo‘limda asir! Ne-ne sinovlarg‘a duchor qilmadi-ya meni

NAMUNA

Ollohim. Jangdan chiqqan sarkardalar biroz nafas rostlab olg‘onlaridan so‘ng, amirzoda SHohrux Mirzo Husaynni huzurimga olib kirsin.

**SHoxmalik:** - Bosh ustida (husaynni olib keladi)

**Husayn:** - Bobo!... Bobojon!... Meni afv eting? Tavbamga tayandim, bobojon... Kechiring, me[illegible] beandishani, kechiring?

**A[illegible]ur**: -Sen uchun bobong allaqachon o‘lgan!... Qarshingda ersa Tur[illegible]oni[illegible]ir Temur turibdi!

[illegible]al, O‘shal Turonzamin sultoni huzrati Amir Temurga iltijo qilaman[illegible]uxabb[illegible]fayli yo‘ldin adashg‘on men osiy bandasig‘a bir bora shafqat q[illegible]ylar?

**Amir** [illegible]Sev[illegible]abbat dedingmu?...

**Husayn:** [illegible]ojon!

**Amir Temur:** [illegible]ida [illegible]qilsin?... Qalbida Vatan, ona zamin sevigisi bo‘lmag‘on murtadda mu[illegible]mu?... Vatanni sevmoq iymondandin erkonin unutg‘on olchoq ki[illegible]a a[illegible]bat kalomin tilg‘a olmoqqa?

**Husayn**: - Ona Vatanimni[illegible]man[illegible]

**Amir Temur:** - Yashashni ist[illegible].

**Husayn**: - Ha, ha istaymen.

**Amir Temur**: -Shuncha gunoxlardan[illegible]a

**Husayn**: - Ha qiblagohim, qilgan g[illegible]i y[illegible]hun yashashni istayman.

**Amir Temur**: - Bas! Barchaga saboq bo‘lishi u[illegible]is[illegible]ari butun lashkar oldida yerga yotqizilib 20 darradan urilsin.

**1-boshlovchi**: Kutubxonachilar kursi tinglovchisi tomon[illegible]

**2-boshlovchi**:Ollohim baxsh etmish shunchalar shukuh
Komilu yetukdir shajara zoti
Bir yon Bibixonim bir yonda SHoxrux
Bir yonda Ulug‘bek sinmas qanoti

*Endi navbat “Avlodlar chiqishi” sahnaviy ko‘rinishi.*

**Bibixonim**: - Mehnat malikasi Bibixonim
Sadqa bo‘lgaydir sizlarga jonim.
SHundayin bo‘linki yurt o‘g‘lonlari
Desinlar sizni faxru-iftixorim.

NAMUNA

**Ulug‘bekman**: Ziji ko‘ragoniy jadvalin tuzgan!
YUlduzlar ilmini suv qilib ichgan
Ilm fan deb rohatdan kechgan- Ulug‘bekman.

**Gulbadan-** Gulbadan begimman Boburning qizi.
Xayo yo‘llarida bitilgan so‘zi.
Gar bir zum dillashmoq istar bo‘lsangiz
Xumoyunnomada bitilgan so‘zim.

**1-boshlovchi**: Jahonni mo‘g‘ullar iskanjasidan
Qutqarib qalolgan barlosiy botir
Qocholmay taqdirning taqozosidan
Fotix deb nom olmish o‘zi ham oxir
Eng ulug‘ binolar mujassam bo‘lmish
Olamda tengi yo‘q Samarqand-ku bor
Temurbek jang-jadal shovqiga to‘lmish
Qo‘lida shamshiri tagida tulpor.

**2-boshlovchi**: SHu bilan bugungi Sohibqiron Amir Temur bobomizning 679 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tadbirimiz o‘z poyoniga yetdi.ushbu kecha orqali sizlar bilan ozgina bo‘lsada Amir Temurning ruxini shod etganimizdan behad minnatdormiz.

***E'tiboringiz uchun rahmat*.**



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

[illegible]___________________shahar (viloyat)

___________[illegible]uman “____________” nomli

__[illegible]ta'lim tashkiloti

tayyo[illegible]iyachisining

20__-[illegible]uchun

# “9-May Xotira [illegible]rlash” kuniga bag‘ishla[illegible]zilgan tadbir

# SSENAR[illegible]SI

NAMUNA

**“XOTIRA MUQADDAS”**



**1-boshlovchi:** Assalomu alaykum ey vatandoshlar
Muborak kunlarda ko‘rishdik diydor
Parvardigor o‘zi bizga madadkor

**2-boshlov[illegible]** [illegible]u soylarda suvlargal urgil yuzingga sen,
[illegible] bor nazar solgil bosgan izingga sen,
[illegible]lni berib ko‘rgil o‘zingga sen,
[illegible] do‘sdim nima qildik Vatan uchun.

**1-boshlov[illegible]** As[illegible]m bizlarni ilm sarchashmalaridan bahramand qilayotgan az[illegible]r.

**2-boshlovchi:** As[illegible] al[illegible]hri daryo, qalbi qaynoq, tinib-tinchimas muhtarama [illegible]

**1-boshlovchi:** Assalomu alay[illegible]mizning asosiy mehmonlari bo‘lmish hurmatli faxriylar.



**2-boshlovchi:** A[illegible]ohn[illegible] in’om etgan ajoyib go[illegible] kunida siz bilan diyd[illegible] ko‘rishganimizdan g‘oyat mamnunmiz. Xush kelibsiz “Xotira aziz-qadr muqaddas” mavzusidagi adabiy-badiiy kechamizga.

**1-boshlovchi:** Xotira o‘zlikni anglashga o‘tmishni doimo yodd[illegible] da’vat etib turadigan muqaddas tuyg‘udir, u orqali inson o‘ziga ya[illegible] xislatlarni qaror toptirib boradi.

**2-boshlovchi:** Muqaddas tushunchalarning barchasi xotira bilan tirik. Xotira nafaqat o‘tmishni unutmaslik, bugungi kunni to‘g‘ri tasavvur etish hamdir.

NAMUNA

**1-boshlovchi:** Xotira insoni keljakka ochiq ko‘z bilan qarashga o‘rgatadi.

**2-boshlovchi:** Qadrlash esa xonadonimizga fayzu-baraka bag‘ishlab, qilayotgan ezgu ishlarimizga oq fotiha tilab turgan pir-u badavlat qariyalarimizning hurmatini joyiga qo‘yishdir.

**1-boshlovchi:** O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning farmoyishiga binoan, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon fido etgan bobolarimiz xotirasini abadiylashtirib, bugun ham el-yurtimiz farovonligini yuksaltirishga, yoshlarni tarbiyalashga  hissa qo‘shayotgan faxriylarni hurmatini joyiga qo‘yish maqsadida 9-may xotira va qarlash kuni keng nishonlanmoqda.

**2-boshlovchi:** O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ustozlarni ulug‘lab shunday deydi.

Shoirga dedilar sen baxtli inson
Xalqingiz ardoqlar, hamma taniydi.
Shoir javob qildi menga bor armon,
Muallim desalar mni qaniydi.

**1-boshlovchi:** Inson xotirasi azizdir. Xalqimiz qadim-qadimdan o‘tgan avlodlarni munosib xotirlab, qadrlab kelgan. Xotira millat tarixi, uning qadriyatlarini madaniyat va ma’naviyatini, bir so‘z  bilan aytganda mujassam etadigan buyuk qadriyat.

**2-boshlovchi:** Xotira o‘zlikni anglashda o‘tmishni doimo yodda tutishga bot-bot da’vat etib turadigan muqaddas tuyg‘u. Inson o‘zining kim ekanini xotira va qadr tuyg‘usi orqali chuqurroq anglaydi.

**1-boshlovchi:** Bizning tinch va baxtiyor yashashimiz hamda yurtimiz mustaqiligi uchun kurashgan va bu yo‘lda jonini fido qilgan insonlar hurmati, faxriylar xotirasi uchun bir lahza sukut saqlaymiz.

Do‘stim bir lahza sukut saqlaylik,
Baxtimiz qurboni bo‘lganlar haqqi,
Nomlarin yod etib bir-bir yo‘qlaylik,
Xalqim deb, yurtim deb o‘tganlar  haqqi.

**1-2-boshlovchilar:** Kel do‘stim bir lahza sukut saqlaylik.

**1-boshl**[illegible]

**2-boshlo**[illegible] davran[illegible]ng‘ Vatan urush qatnashchisi faxriylarimizga so‘z navbat[illegible] be[illegible]

**1-boshlovchi:** Yurtin[illegible]o‘lm[illegible]onlaring bor,
Toshla[illegible] lat[illegible]ring bor.
O‘tmishingni[illegible]ydi[illegible]im,
Ko‘ksing to[illegible]ab[illegible] bor.

**2-boshlovchi:** Bag‘rim o‘rtar bir o‘y[illegible]yyo[illegible]
Oy botgan yoqlarda, t[illegible]ib s[illegible]
Aybin bilmay ketgan Akmal[illegible]ar,
Fayzullodek mardu-maydon[illegible]g b[illegible]

NAMUNA

**1-boshlovchi:**



Vatanni aslida vatan qilganlar,
Erk uchun jonlarin gulxan qilganlar,
Tillarin kessalar, ko‘zlarin o‘ysa,
Bir-biriga dil bilan suxanlik qilganlar.
Vatanni aslida vatan qilganlar,
Yovning yaxshisi yo‘q degan ham ular,
Zog‘ning yaxshisi yo‘q degan ham ular,

Millatning ko‘ksida bo‘y chozgan chinor,
Har dilda ko‘klamdek ko‘karib kelar.
Vatanni aslida vatan qilganlar,
Maqtov malham bo‘lmas, bil qurbonlarga,
Oyatda orom bor shahid jonlarga.
Qo‘laring duoga katta och elim,
Shukrona joizdir erkli onlarga
Vatanni aslida vatan qilganlar,

Erk uchun jonlarin gulxan qilganlar,

**2-boshlovchi:** Urush hech bir xonadonni chetlab o‘tmadi. Kimningdir sevikli yori, kimningdir singlisi, kimningdir otasi, akasi halok bo‘lgan.

**1-boshlovchi:**

**2-boshlovchi:** Odobnoma kursi tinglovchilari tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishini birgalikda tomosha qilamiz.

Raqs. ________________________________

**2-boshlovchi:** Ushbu kun o‘tganlarni yana bir bor yod etib, osmonimiz musaffoligi, xalqimiz tinchligi yo‘lida jonlarini fido etgan ajdodlar xotirasi oldida bosh egamiz.

**1-boshlovchi:** Yillar umrimizga qilarmu shafqat
Biror ish bormikan aylagali yor
Qayta tiklash mumkin barchasin faqat,
Qayta tiklanmagay o‘sha xotirot.

**2-boshlovchi:** Shuning bilan “**Yoshlar e’tiborda-keksalar e’zozda bo‘lgan yurt**” mavzusidagi adabiy-badiiy kechamiz o‘z nihoyasiga yetdi. E’tiborlarinigiz uchun rahmat.

Qo‘shiq. “Sizni unutmoq osonmas”

**1-boshlovchi:** Istardikki, xotira va qadr tuyg‘usi hech birimizdan yiroqlashmasin, hamisha qalbimizda aks-sado berib tursin.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NAMUNA

# [illegible]BEKISTON RESPUBLIKASI [illegible]TAR[illegible]ACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

________________________shahar (viloyat)

____________[illegible]man "____________" nomli

__-[illegible]'lim tashkiloti

tayyorl[illegible] t[illegible]achisining

20__-20__-[illegible] yi[illegible]hun

# "BIZ YOSH SPORT[illegible]RMIZ" MAVZUSIDA O'T[illegible]GAN BAYRAM[illegible]

# SSENARIYSI

pageborders.org

# “Biz yosh sportchilarmiz”.

***(tayyorlov guruhlari uchun sport ko‘ngilochar  ssenariysi)***

**Tadbir mavzusi: “Biz yosh sportchilarmiz”**
*(Tayyorlov guruhlari uchun sport ko‘ngilochar ssenariysi)*
**Maqsad:**
**Ta’limiy –** Bolalarning O‘zbekiston sportchilari haqidagi bilimlari oshirish. Bolalarga o‘z tanasining shaxsiy gigiyenasiga rioya qilish zarurati haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Sport turlari, ularning salomatlik uchun ahamiyati to‘g‘tisida tushunchalarini kengaytirish.

**Tarbiyaviy** – sog‘lom bo‘lish, o‘ziga etiborli bo‘lish istagini tarbiyalash. Sog‘lom turmush tarziga odatlanishni singdirish. O‘z salomatligi uchun mas’uliyat hissini tarbiyalash. Sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish.

**Rivojlantiruvchi** – olingan bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish. Mantiqiy fikrlashni va nutqni rivojlantirish.

**Kutilayotgan natija:** O‘zbekiston sportchilari haqida bilimlari oshadi.  Sport turlari, uarning turli-tumanligi va har bir sport turning o‘ziga xos xususiyati  haqida bilimga ega bo‘ldilar. O‘z tanasining shaxsiy gigiyenasiga rioya qilish zarurati haqidagi tushunchalari  mustahkamlanadi. Sportning salomatlik uchun ahamiyati to‘g‘tisida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Sog‘lom bo‘lish, o‘ziga etiborli bo‘lish istagi  tarbiyalanadi. Sog‘lom turmush tarziga odatlanadilar. O‘z salomatligi uchun mas’uliyat hissi ortadi.

**Kerakli jixozlar:**
1. Sportchilardan Hasanboy Do‘stmatov, Bektemir Meliqo‘ziyev,  Fazliddin G‘oyibnazarov, Shaxram G‘iyosov,  Ruslan Nuriddinov va boshqa sportchilarning suratlari yoki monitor orqali ko‘rsatish uchun AKT.
2. Sportchilarning: chavandoz, kurashchi, polvon, gimnastikachi, tennischi, langarchi, mergan, yengil atletikachi, shaxmatchi, qilichboz,  futbolchi, xokkeychi, velopoygachilarning kiyimlari va kerakli jihozlar.

*(Musiqa sadosi ostida bolalar sport kiyimida zalga kirishadi)*

**Boshlovchi:**

Assalom, bolajonlar,
Shirintoy, qaqajonlar!
Siz istiqlol erkasi,
Yurtimizning ertasi.

Sog‘lom, barkamol avlod,
Hur Vatanda erkin, shod.
Unib, o‘sgan, ulg‘aygan,
Vatan mehrin ilg‘agan.

Ko‘nglimiz muddaosi,
Doimo sog‘lom bo‘ling.
Botir bo‘ling, pahlavon,
Faxr etsin O‘zbekiston!




Assalomu - alaykum aziz bolajonlar.  Bugun siz bilan uchrashishga Polvonjon va Sog‘lomjon mehmon bo‘lib kelgan.

*(Musiqa sadosi  ostida Polvonjon va Sog‘lomjon kirib keladilar, salomlashadilar).*

**Polvonjon:** Salom bolajonlar! Siz o‘sib, ulg‘ayib, pahlavon bo‘lishingiz, el yurtga posbon bo‘lishingiz kerak.
**Sog‘lomjon:** Buning uchun siz avvalambor sog‘lom bo‘lishingiz kerak. Sog‘lom bo‘lish ucnun tozalikka rioya qilishingiz kerak.

Qanday yaxshi, bolalar,
Tozalik, orastalik.
Go‘zal xulq, odob bilan,
Hamisha payvastalik.



[illegible]ahar turib uyqudan,
[illegible]zday suvda yuz yuvmoq.
[illegible]ziguncha to badan,
[illegible] o‘[illegible]ada yugurmoq.

[illegible]r-ikki” – deb egilib,
[illegible]qlar qil[illegible]iz yana,
[illegible]hahd bi[illegible]k kerib,
Yu[illegible]

[illegible]u o[illegible]
[illegible]sog‘ bo[illegible]g,
Ko‘rg[illegible]havas[illegible]
Doi[illegible]hog‘[illegible]

**Boshlovchi:** [illegible]ing[illegible]ajakda mashhur sportchi bo‘lishmoqchi. Chunki sport salomatlikni mu[illegible]tah[illegible]ga b[illegible]si davlatni olamga mashhur qiladi. Buning uchun Bolajonlarimiz qa[illegible] or[illegible]klarini namoyish etadilar.

*(Musiq[illegible]ad[illegible]havandoz, kurashchi, polvon kiradi )*

**Bola:** Ot yeldirsa **chava[illegible]**
Kimlar qilmaydi ha[illegible]
Uloq, ko‘pkari, poyga,
Bizlarga otameros.



Alpomish bobomizning
Boychibori bizlarda.
G‘ayrati, shijoati,
Nomus – ori bizlarda.

Tarab tulpor yolini,
To‘siqlardan o‘tgaymiz.
Ko‘zlab yurt iqbolini,
Maqsadlarga yetgaymiz!

**Bola:** **Kurash**imiz dovrug‘ soldi,
Butun jahonga.
Olam ahli ofarin der,
G‘olib polvonga.

Yelkamiz yerga tegmas,
Biz botirtoylar,
Shon-u sharaf keltiramiz,
O‘zbekistonga!

**Bola:** **Polvon**lar, hoy polvonlar,
Eldan olqish olganlar,
Qudratingiz siri ne?

NAMUNA

So‘rar hayron qolganlar.

Polvonlar der: - Kuch berar,
Ona diyor tuprog‘I,
Hilpirab tursa agar,
Dilda Vatan bayrog‘i.

Yurtning sha’n, dovrug‘in deb
Tushsa agar maydonga.
G‘oliblik toji nasib
Bo‘lar o‘sha polvonga!

**Polvonjon:** Barakalla, bolajonlar! Yurtimiz iste’dodli farzandlari bilan, ularning sport maydonlaridagi katta yutuqlari bilan faxrlanadi. Siz sportchilardan kimlarni bilasiz?

*(Sportchilarning suratlarini ko‘tarib musiqa sadosi ostida bolalar chiqishadi)*

**Bola:** Hasanboy Do‘stmatov.

**Bola:** Bektemir Meliqo‘ziyev.

**Bola:** Fazliddin G‘oyibnazarov.

**Bola:** Shaxram G‘iyosov.

**Bola:** Ruslan Nuriddinov……

**Sog‘lomjon:** Barakalla, siz ham sport bilan chin dildan shug‘ullansangiz, albatta chempion bo‘lasiz.

*(Musiqa yangrab davraga gimnastikachi, tennischi, langarchi qizlar qo‘llarida she’rga oid jixozlar bilan kirishadi).*

**Bola:** **Langar** cho‘pdan madad olib,
Ko‘kka sakraymiz.
Balandlikni zabt etamiz,
Tikka sakraymiz.

Landovur va lapashanglar
Bizga do‘st emas.
Biz hamisha epchil, chaqqon
Mardni yoqlaymiz.



**Bola:** **Tennis**ning barcha turi,
Bizlar uchun qadrdon.
“Prezident turniri”,
Dunyo bo‘ylab topgan shon.

Hozircha bizlar voris,
Zafar quchgan avlodga.
Bahsga chorlar kordimiz,
Keling O‘zbekistonga!

**Bola:** Go‘zallik, nafosat
Bu – **gimnastika.**
Ko‘rkamlik, nazokat
Bu – gimnastika!

Chapdastlik, chaqqonlik,
Gimnastikadir.

Zukko va epchillar,
Topajak qadr!

*Gimnastikachi raqsi.*



**Sog‘lomjon:**
O‘yinlarning xili ko‘p
Harakatli, ta’sirchan.
Ba’zan yolg‘iz, ba’zan to‘p,
Bahsga tushamiz chechan.

**Polvonjon:**
“Oq terakmi, ko‘k terak”,
“Quvlashmachoq” yo “Beshtosh”,
Hammasi birdek kerak,
Salomatlikka yo‘ldosh.

**[illegible]vchi:**
Yurtimizda el sevgan,
O‘yinlar ko‘p olqishda.
Ke[illegible] birga o‘ynaymiz,
[illegible]hib ko‘ramiz.

**[illegible]rtar”.**

*[illegible] mergan, yengil atletikachi, shaxmatchi, qilichboz kiradi).*

**[illegible]:** [illegible]olar
[illegible]
[illegible]igi
B[illegible]onni[illegible]

Ko‘[illegible]n qo[illegible]n,
“Balli, me[illegible]er.
“O‘z ishig[illegible]ura[illegible]
Mehrin berg[illegible]



**Bola:** Yengil, yengil dey[illegible]
Yengil emasdir zinhor.
**Yengil atletika**da,
Og‘ir jihatlar bisyor.

Sakrash, yugurib – yelish,
Yo yadro uloqtirish.
Marafonda shamoldek,
Marraga yetib kelish.

Uzoqlikka, balandga,
Sakrash-u kross – bari,
Bilsangiz, bolajonlar,
Shu sport talablari….

**Bola**: **Shaxmat**ni qadim bizda,
Shatranj degan ekanlar.
O‘yinmas, aqlimizga
Qo‘shilgan ganj deganlar.

Bu o‘yinni shohlar-u

NAMUNA

NAMUNA

…ygan.
…arda,
…dek za…ygan.

…bek o…
…aho…
Sh… …i ki…
Qoyi…



**Bola:** **Qilichboz**lik ko…
Ermak emas.
Qilichbozlik – har yi…ga
Ko‘rk-u havas.

Bugun esa sportning bu
Go‘zal turi,
Barchasidan qiziqarli
Va mashhuri.

**Sog‘lomjon:**
Sportni suyib jondan,
Bardam, salomat bo‘ling.

**Polvonjon:**
Bahra olib har ondan,
Oqil, alpqomat bo‘ling!

Keling bolajonlar, bir o‘yin o‘ynaymiz. *(O‘yinning shartini … …di).*

**Oyin: “Kim chaqqon”**

*(Davraga futbolchi, xokkeychi, velopoygachi kiradi…*

**Bola:** **Xokkey**ni kim bilmaydi,
Kim ham havas qilmaydi?!
Egri gavron suyanib,
Muz ustida sirpanib,

Shaybani olib chaqqon,
Raqibni qilib hayron,
Darvozasiga simto‘r,
Gollar ursang – qanday zo‘r!

Qayga borsang – sen mashhur,
“Yashavor, qandingni ur!”
Chet elliklar der: “O – key!”
Hammasidan zo‘r xokkey!



**Bola:** Velosiped deganlari –
Uchqur ot ekan.
**Velosport** – hech tehgi yo‘q
Bir hayot ekan.

Qo‘shg‘ildirak sohiblari
Velopoygada.

Kerak bo‘lsa chiqib kelar
Hatto Oyga – da.

Bu poyga hech tinim bilmas,
To‘xtamas bir zum.
Manzillari olis – olis,
Parij, London, Rum….



**Bola:** Sport – tinchlikka posbon,
**Futbol** esa qanotdir.
Unda muxlis keng jahon,
Zavqidan dillar shoddir.

Futbol bilan dunyoga,
[illegible]nilgan ne ellar bor.
[illegible]rt sharafin oqlagan,
[illegible]‘t y[illegible]akli sherlar bor.



[illegible]sevar bizda,
[illegible] ota – onalar.
[illegible]qsin, d[illegible]izdan,
Pele, [illegible]

**Sog[illegible]**
[illegible]‘l[illegible]n doim
[illegible]ayr[illegible]
Kuch[illegible]jur’at[illegible]
Yura[illegible]ir.

**Polvonjon:**
Jism-u jonin[illegible] – o[illegible]
Bo‘lsin desang gar[illegible]
Bilgin, do‘stim, sa[illegible] –
SPORT demakdir!

Shunday dovyurak bolajonlarg[illegible]ajoyib[illegible]bor. Qani saflaning.

*(Musiqa sadosi yangrab bolalar y[illegible]a[illegible]radilar. Ragbat sifatida barcha ishtirokchilarga medallar topshiradilar)*

**Bolalar:**
Biz hali sizni ko‘p,
Hayron qilamiz.
Elimiz dovrug‘in
Doston qilamiz!

NAMUNA

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

_______________shahar (viloyat)

_______________tuman “____________” nomli

[illegible]abgacha ta’lim tashkiloti

[illegible]ruh tarbiyachisining

20[illegible]__ [illegible]uv yili uchun

## “BUNI B[illegible] KERAK” MAVZUSID[illegible] O‘T[illegible]ZILGAN BA[illegible]

# SSENAR[illegible]SI

NAMUNA

# “Buni bilishimiz kerak?”

*(tayyorlov guruhlari uchun ko‘ngilochar ssenariysi)*




NAMUNA

***(Hovli, so‘rida dasturxon tuzatilgan, qizcha gullarga suv qo‘yapti. Buvi kirib keladi)***

**Qizcha:**

Bizlar aka-singilmiz,
Doim ochiq ko‘ngilmiz.
Urushmasdan yuramiz,
Doim ahil inoqmiz.
Shuning uchun quvnoqmiz.

(Buvi kirib keladi)

Assalomu – alaykum buvijon!
**Buvi:** Vaaleykum salom, bolam.
**Ona:** (Eshikdan kirib keladi, qo‘lida savat) Assalomu – alaykum, mana issiqqina non yopdim. Qani, kelinglar.
(Eshikdan bobo va ota kirib keladilar, salomlashadilar.)
**Bobo:** Qani, erkatoyimiz hali uyqudan yug‘onmadilarmi?
**Dada:** Qizim, ukangizni uygotib chiqing-chi.
**Erkatoy:** Uf, uyqumni nega buzasan?
**Bobo:** Qani o‘g‘lim, tez yuzingizni yuvib keling-chi.
**Dada:** O‘g‘lim, bobongizni so‘zlariga nima deyishingiz kerak edi?
**Erkatoy:** (Indamay turadi)
**Bobo:** O‘g‘lim, opangni qara, hovlimizdagi buving ekkan gullarga suv qo‘yipti. Oying non yopdi, dadang bilan men tomorqani sug‘ordik. Hovlimizga chiroy kirib yashnab ketdi. Bir so‘z bilan aytganda obod bo‘ldi.

- Obodlik nima degani, bilasanmi?
- Obodlik bu - tinchlik, totuvlik, salomatlik, mehr degani.

Obodlik avvalambor ko‘ngildan boshlanadi. Katta bo‘lganingda kim bo‘lmoqchisan?
**Erkatoy:** Uchuvchi.
**Bobo:** Buning uchun sen yalqov bola bo‘lmasliging kerak. Bir kasbni egallash uchun, avvalambor aql, bilim kerak bo‘ladi.
**Erkatoy:** Unday bo‘lsa, haydovchi.
**Bobo:** Buning uchun ham sen o‘qib o‘rganishing, kattalarni aytganlariga quloq solishing kerak bo‘ladi.
**Qizcha:** Bizga bog‘cha opam bu haqda aytib berganlar. Bobojon, bugun bizning bog‘chamizda tadbir bo‘layapti. Shunga birgalikda boraylik. Ukam kasb o‘rganish uchun nimalar qilish kerakligini o‘rganib olar edi.
**Bobo:** Bo‘pti, hammamiz birgalikda boramiz. Ketdik bo‘lmasa.

*(Barcha oila a’zolari birgalikda bog‘cha tomon yo‘l olishadi, zaldagi tomshabinlar qatoriga o‘tirishadi).*

**Qizcha:** Assalomu – alaykum aziz mehmonlar. Bugun bizning bog‘chamizda bayram, biz ozod va obod Vatanda yashayotganimizdan faxrlanamiz, siz kattalarning bizga bo‘lgan mehr – muhabbati tufayli biz baxtiyormiz. Kelajakda albatta sizga munosib farzand bo‘lishga harakat qilamiz. Yurtimiz doimo gullab yashnayversin.

*(Musiqa sadosi ostida guruh bolalari kirishadi)*

**Bola:**
Vatanim o‘z onamsan
Senda ulg‘aymoqdaman
Mehribon, mushfiq, munis
Boshimda parvonamsan.
**Bola:**
Mehring doim yo‘llarim
Yoritadi bo‘lib nur
Tan-jonim sog‘, mehringdan
Mehringdan sog‘lom shuur.
**Bola:**
Senga sodiq bo‘lmoqlik
Sharaf erur, farz erur
Farzni bajarmoq bizga
Qiyomatli qarz erur
**Qo‘shiq “Vatanjonim”.**
**Bola:**
Rohatbaxshdir havosi
Tog‘u - adir, daryosi
Borsangiz yoz chog‘lari
Meva tugar bog‘lari.



**Bola:**

Odamlari ko‘p ahil
Shirin so‘z, ochiq ko‘ngil
Issiq shirmoy nonidan
Yesangiz yayraydi dil.

**Bola:**

Baxti to‘kis makondir
Ta[illegible]bir jahondir,
[illegible]rga boramiz
[illegible]ni ko‘ramiz.

[illegible]

[illegible]qilar
[illegible]galari
[illegible]bor topa[illegible]
[illegible]u – de[illegible]

*(Yurtim[illegible]da [illegible] ne’matlar solingan savatlarni bolalar kirgizib qo‘yishadi, Dehqon b[illegible]i ki[illegible]).*

**Dehqon:** “Mehnat – [illegible]ng ta[illegible]eb bejizga aytmaganlar. Mana mehnatimning mahsuli sekin-ast[illegible]o‘rin[illegible]

**Raqs:** ***(Vals musiqasi osti[illegible] o‘[illegible]ni ifodalovchi raqs)***

**Dehqon:** Mana, ko‘rdingizmi, bog[illegible]hnatlarim zoye ketmaydi.
**Bog‘bon:** Ha, mehnatning tagid[illegible]tsevar, irodali, sabrli bo‘lishi kerak.
**Dehqon:** Kasbi, hunari bor bo‘lg[illegible]nson [illegible]on x[illegible]lmaydi.
**Bog‘bon:** Kasb-hunarning yaxshi-yom[illegible]aydi.
**Dehqon:** Bolajonlar sizlar kasb-hunar [illegible]nima[illegible]ar.
**Bog‘bon:** Qani, eshitaylik-chi.
**Bola:** Kasb – hunar inson uchun zarur faoliy[illegible]unar [illegible]zoq, u o‘lmas mo‘jiza, tugalmas boylik, javohirdir. Chunki u avloddan[illegible]ga [illegible]
**Bola:** O‘z kasb hunarini yaxshi bilgan kishining [illegible]di. X[illegible]ida obro‘-e’tibor topish, halol mehnat sirlarini mukammal egallash [illegible]
**Bola:** Shuning uchun ham xalqimiz “Mehnat qilgan – [illegible]ziz” [illegible]tma[illegible]an.
**Bola:** O‘zbek xalqi azal-azaldan kasb-hunari, halolligi [illegible]a tanilib kelmoqda.
**Bola:** Xalqimiz zargarlik, naqqoshlik, duradgorlik, kulolchil[illegible]uzlab kasb-hunar bilan shug‘ullanib kelmoqdalar.
**Bola:** Yuzlab kasb-hunar mahsulotlari va ulardagi amaliy [illegible]n’ati bezaklarning betakrorligi, go‘zalligi bilan dunyo xalqlarini lol qoldir[illegible]moq[illegible]
**Bola:** Biz ham ota-onalarimiz, tarbiyachi ustozlarimizning berayotga[illegible] egallab, kelajakda mohir kasb-hunar egalari bo‘lib yetishamiz.
**Dehqon:** Barakalla, bolalarim.
**Bog‘bon**: Qoyilman, yog‘ochga til kiritgan, tuproqqa jon ato etgan – bu mo‘ji[illegible]siri nimada?
**Dehqon:** Hunarda-da, hunarda. “Hunari borning – davlati bor”.
**Bog‘bon:** “Hunari yo‘qning – hayoti xor”. Bolalarim, hunarda sir ko‘p. Qani bolalarim, kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?

**Bola:**

**O‘sib – o‘sib, yildan-yil**
**O‘n yettiga kiraman.**
**Kasblar juda xilma-xil**
**Men-chi, men kim bo‘laman?**

*(Sahnada turli kasb egalari kiyimlarida bolalar yarim aylana bo‘lib turadilar.)*

NAMUNA

**Bola:** Biz o‘sib-ylg‘ayib, o‘z mehnatimiz bilan Vatanimizning gullab yashnashiga albatta o‘z hissamizni qo‘shamiz.
**Sartarosh:** - Bizning mahalladagi sartaroshxonaga xush kelibsiz, marhamat o‘tiring Dehqon bobo.
*(Dehqon boboning sochini olish uchun tayyorlay boshlaydi.)*
**Qiz bola sartarosh:**

Qarang sartarosh
Muloyim, yuvvosh.
Ishimdan desam bir oz,
Boshga beraman pardoz
Bosh aziz, u yagona,
Kulgan baxtu peshona.
U aqlning xonasi
Boshqaruvchi onasi.
Sartaroshlik zab hunar,
Xizmating tez ko‘rinar.
Kelgan mahal mijozim
Kutib olmog‘im lozim.
Ishga kirishdan avval
So‘rayman hol-u ahvol
Sochin tekislab, tarab
Qo‘yaman zimdan qarab
Nuqsoni bo‘lsa xiyol
Tuzataman-da darhol,
Deyman: “Ma’zur ko‘rsinlar
Yana kelib tursinlar”.




**Qo‘shiq: “Sartarosh”.**
**Bola: “Nonvoy”**

Men bo‘lsammikan novvoy
Hamma ko‘rib desa voy
Yaratsam katta tandir
Va yopsam bir uy patir,
Kulchatoy, piyozli non,
Shirin, asal shirmoynon
Nonim lazzatga to‘lsa,
Tanlovda g‘olib bo‘lsa
Yegan quvonsa behad
Desa: “Otangga raxmat”

**Raqs: “Non yopadi”**
**Bola: “Oshpaz”**

Men bo‘lsammikan  oshpaz,
Hamma qilardi havas.
O‘ylab topsam bir taom,
“O‘zbekiston” bersam nom.
Osh damlasam azonda
Eng kattakon qozonda
So‘ng derdim qari-yoshga
Qani, marhamat oshga.
Chuchvara, manti, lag‘mon,
Tayyorlab turli taom
Uzatsam kosa-kosa
Deyishsa qanday mazza.
Hamma qilardi havas,



Yaxshidir bo‘lish oshpaz.




**Raqs: “Choyxona”**
**Bola: “Tikuvchi”**

Tikuvchi der: - Kiyim-kechak
Yarasug‘i gul-u, bezak.
Nozik hunar tikuvchilik
U[illegible]yqar el-ko‘pchilik.
[illegible]ga har bir libos
[illegible]sa soz
[illegible]sa [illegible]
[illegible]d[illegible]aglim to‘lar,
[illegible]hnat, hunar
[illegible]od bo‘la[illegible]
[illegible]yangi m[illegible]
[illegible]yo qil[illegible]
Ba’[illegible]
B[illegible]chel[illegible]
Kin[illegible]l
O‘ziga ham[illegible]ngil.
Shunda b[illegible]od bo[illegible]

**Raqs: “Do‘ppi tikdi[illegible]”**

**Dehqon:** Bog‘bon do‘stim, u b[illegible]alar ekan.
**Bog‘bon:** Ha, axir bu bolalar b[illegible]B[illegible]ari. Bu bolalarimiz bizning kelajagimiz.
**Tarbiyachi:** Bizning bolajonlar[illegible]qat[illegible] juda[illegible]on ham. Ayni ish qizigan paytda bolajonlarimizni yordamga chaqi[illegible]ar a[illegible]ing kichik yordamchingizga aylanishadi.
**Bog‘bon:** Qani, bir ularning chaqqonlik[illegible]rini [illegible]

**O‘yin: “Biz kichik yordamchilar” (Bol[illegible]kki[illegible]o‘lib Dehqon boboga sabzavotlarni, Bog‘bonga esa mevalarni yig[illegible]adila[illegible]**

**Dehqon:** Bolalar siz kasb-hunar haqida ko‘p bilimla[illegible]ga ek[illegible] do‘stim bog‘bon bilan hunar haqida hikmatli so‘zlardan ham eshitmoqchimiz.

**1-bola: Boylik tugar, hunar tugamas.**
**2-bola: Yoshlikdan hunar olgin**
**Qarigach ishga solgin.**
**3-bola: Hunarli xor bo‘lmas.**
**4-bola: Hunar zar, hunarli zargar.**
**5-bola: Hunar, hunardan rizqing unar.**
**6-bola: Hunar – qo‘lingda zar.**
**7-bola: Hunarni hunarlidan o‘rgan.**
**Bilimni bilimdondan.**
**8-bola: Oltin topma, hunar top**
**Hunar oltindan qimmat.**
**9-bola: Hunar bo‘lsa qo‘lingda,**
**Non topilar yo‘lingda.**
**10-bola: Aql ko‘pga yetkazar**
**Hunar ko‘kka yetkazar.**



**Bog‘bon:** Raxmat, barakalla bolalarim.
**Dehqon:** Sizlar dono, aqlli bolalar ekansizlar. Raxmat.
**Boshlovchi:** Endi so‘zni mehmonlarimizga beramiz.
**Bobo:** Raxmat bolajonlar. Juda ham aqlli va dono bolalar ekansizlar.

NAMUNA

**Erkatoy:** Menga ham yoqdi. Bobojon men ham ko‘p narsani bilaman. Faqat ozgina uyquchiman - da. O‘rganganlarimni she’r tarzida aytib bersam maylimi?

**Bola: “Dunyoda ko‘pdir hunar”.**

Dunyoda ko‘pdir hunar
Hammasi ham zo‘r ular,
Biri-birin to‘ldirar,
Biri-birin jildirar.
Zarurlikda nechog‘liq
Bi[illegible]iriga bog‘liq
[illegible] barcha joyda
[illegible]tirar foyda.
[illegible] de[illegible]z, osmonda
[illegible] tomonda
[illegible]atda
[illegible]da, albatt[illegible]
[illegible]a ko‘p[illegible]
[illegible]nasi [illegible]






NAMUNA

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

**________________shahar (viloyat)**

**____________ tumani “____________” nomli**

**__-maktabgacha ta’lim tashkiloti**

**tayyorlov [illegible] tarbiyachisining**

**20__-20__-o‘quv [illegible]**

# “KITOB QALBNI [illegible]” MAVZUSIDA O‘TKA[illegible] BAYRAM

# SSENARIY[illegible]

NAMUNA

# “Kitob qalbni yoritar” bayram ertalik

*“Kitobsiz kelajak yo‘q”,*
*”Yoshlarni kitobga,kitobxonlikka*
*qaytarish kerak”*
***Sh.M.Mirziyoyev***

Tadbir MTTning faollar zalida o‘tkaziladi.
**Tadbir jihozlanishi:**Sahna mavzuga xos ko‘rinishda jihozlangan”Kitob tafakkurning tolmas qanotlari”
“Kitob boylik”.”Kitob qalbni yoritar bayram ertaligiga xush kelibsiz” shiorlari,kitob haqidagi maqollar yozilgan plakatlar osilgan.Buklamalar,sharlar,har xil gullar qo‘yilgan.Ertalikka ota-onalar va bobo-buvijonlar ham taklif qilinadi.
**Tadbir maqsadi:**Bolalarni kitobga,kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini oshirish,bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilishga undash,oilaviy kitobxonlik muhitini yaratish,ona Vatanga munosib farzand bo‘lish hissini uyg‘otish.

**Sabina**
Assalom,assalom!
O‘zbekiston,aziz kalom assalom,
Toleingda qutlug‘ ayyom, assalom!



**Mirzohid**
Assalom,assalom!
Noming aziz yangroq elim,assalom,
Yer-u ko‘kda uyg‘oq elim,assalom!

**Sabina**
Assalomu alaykum aziz ustozlar va bog‘chamiz ustolari.
Bugungi bayram ertaligimizga tashrif buyurgan hurmatli ota-onalar,qadrli mehmonlar.

**Mirzohid**
Azizlar “Kitob qalbni yoritar”deb nomlangan bayram ertaligimizga xush kelibsiz.

**Sabina**
Mirohid,bilamizki O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida farmoyish e’lon qildilar.

**Mirzohid**
Albatta aynan shu farmoyish qabul qilingandan so‘ng.Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ”Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida qaror qabul qildi.

**Kamila**
Qarang do‘stlarim davramizga “Kitob-oftob” tashrif buyuribdilar.Marhamat ularni kutib olamiz.

**Hamma:**
Kitob bilimdan o‘rtoq
U ma’rifat yorlig‘i
Etar bizni baxtiyor
Kitoblarning borlig‘i



**Kitob:** Assalomu aleykum qalbi quyosh mehridaryo ustozlar,aziz mehmonlar va mening qadrdon bolajonlarim.Men sizlani ko‘rib juda-juda quvondim.

**Hamma:Rahmat**

**Kitob**

Bol[illegible]nlar sizning ertaligingizga tezroq yetib kelish maqsadida avtobusga o‘tirdim [illegible]rdan biriga bir bola planshetda o‘yinlar o‘ynab ketayotganiga ko‘zim [illegible]en, shu bolani o‘zim bilan olib keldim.Ruxsat bersalaring shu bolani ham [illegible]a [illegible]ray.

[illegible] ”Kitob-oftob”

[illegible]ajonin[illegible]ga marhamat!

[illegible] qo‘li[illegible]yinini o‘ynab turib yurib kelaveradi.

**[illegible]**

Kit[illegible]na[illegible]en siz haqingizda she’r aytsam, o‘rtoqlarim esa davom ettiradilar

**Kitob:** ay[illegible]

**Bahrom**

Avval ko‘n[illegible]a [illegible]

Tillarda dosto[illegible]ga [illegible]

Shoirlar armoni[illegible]da[illegible]

Birinchi xattotlat sopol[illegible]

**Sevinch**

Ho‘kiz terisiga yozilgan tari[illegible]

Toshga o‘yilgan ham yura[illegible]r.

Chinorga  yozganlar qo‘llarid[illegible]tig,’

Barchasi kitobning ayni o‘zidir.



**Amirbek**

Men oppoq qog‘ozga yozaman shosh[illegible]

Yoqmasa g‘ijimlab tashlayman shartta.

Qaytadan boshlayman qolsam adashib,

Bobolar bir marta yozgan albatta.



**Shaxina**

Yuz bor o‘chiraman uchar qalamim,

Chiroyli tashbehla ovutib o‘zni.

Goho yozolmasam kelar alamim,

Bobolar tig‘ bilan so‘zni.

**Sardor**

Mangu saboq bizga yo orzu havas,

Donishmand bobolar anglab yetgan sir.

Haq so‘zdan yaralsa kitob muqaddas,

Tig‘ bilan toshlarni o‘yishga arzir.

**Kitob**

Rahmat bolajonlarim

*Qo‘lidagi planshetni o‘chirib she’rning mazmunida ta’sirlangan o‘yinqaroq bola ”Kitob-oftobdan”so‘rayapti*

**Bola**

Siz meni qayerga olib keldingiz hamma yoqda kitoblar shiorlar nima bu yer kitob do‘konimi?

NAMUNA

**Kitob**
Yo‘q bolajonim bu yerda ”Kitob” ya’ni men haqimda ertalik o‘tkazilmoqda
**Bola**
Ha endi tushundim
**Shahnoza**
Tilsimin ochar kitob,
Nurini sochar kitob.
Kim bilmasvoy kim dono,
Zehningni o‘lchar kitob.




**Mirfayz**
Kitob-la ravon yo‘lim,
Bog‘ bo‘lar dasht-u cho‘lim.
Ko‘rinar hayot so‘lim,
Agar kitob o‘qisam.
**Shahzoda**
Nutqim ravonlashadi,
Tafakkurim oshadi.
Ilmim to‘lib toshadi,
Agar kitob o‘qisam.




**Ozodbek**
Vaqtim bekor ketmaydi,
Kunim bekor o‘tmaydi.
Hech kim menga yetmaydi,
Agar kitob o‘qisam.
**Sabina**

-Qancha ko‘p kitob o‘qisangiz, shuncha ko‘p bilimli bo‘lasiz “Yosh kitobxon” tanlovi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilib, yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan respublikadagi eng yirik tanlov hisoblanadi. Siz ham hozirdan kitob o‘qib bilimlaringizni oshirib, shu tanlovda qatnashishingiz mumkin. Tanlov sovg‘asi SPARK avtomashinasini yutub oling.







**Mirzohid**
Sabina bu tanlov 14-20 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni va 20-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni qamrab olgan.Ayniqsa birinchi sohibalari Prezident sovg‘asi ”Spark” mashinasi bilan taqdirlangani quvonarli hol bo‘ldi.




**...o‘ri... namoyish etiladi.**

**Sa...**

Ilm ... a... an shu tanlovda o‘z isbotini topdi desam adashmayman.

**Kitob**

Bolam ne... yinl... n eding,axir sen tarbiya oladigan MTTda kutubxona, ... kutubxonasi bor-ku!

**Bola**

Bor,siz bularni q... n ...

**Kitob**

Kutubxona-nurxona d... ... rgi ... da bog‘changda ”Eng yaxshi tag‘ibotchi kitobxon” tanlov... etm... sa bulardan xabardor emassan.

**Bola**

Bog‘chada ustozlarimiz nuqul o‘qi... so... g o‘qing deyishadi,lekin uyimizda buning aksi

**Kitob**

Nega?

**Bola**

Oyim ishdan bo‘shadi deguncha telefonda gapla... ar... esa televizordan nari ketmaydilar faqat ovqatlanayotgan paytd... ladilar.Menga esa ularni bezovta qilmasligim uchun mana shuni o... be...

**Kitob**

Buyog‘i qandoq bo‘ldi?Mayli bolam xafa bo‘lma,ke... ni t...

**Mohisitora**

Bo‘sh o‘tirsam ustozim,
Qani kitobing deydi.
Kitob yo‘lingni yorug‘,
Qilar oftobing deydi.



**Shahriyor**

Shunda darhol qo‘limga,
Oldim o‘z kitobimni.
Kitobnimas do‘stlarim,
Nur to‘la oftobimni.

**Nilufar**

NAMUNA

Kitob o‘qing!U sizni fikrlashga o‘rgatadi.Fikrlay olish esa odamni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi asosiy xislatdir degan edi- Jon Pol Sartre

**Hayit**

Bor gap.Bugungi kun tartibidagi dolzarb masala kitobxonlik.Kitobning foydali tomoni haqida ko‘p va xo‘p gapiriladi.

**Maftuna**

Ammo savol tug‘iladi.Hozir kimlar qanaqa kitoblar o‘qimoqda?

**Ulug‘bek**

Kuzatishlar shuni bildiradiki  ta’lim tashkilotlardagi ayrim bolalarning o‘zi kitobsevar emasligi oz bo‘lsada uchrab turadi.

**Shaxlo**

Yomg‘ir yog‘moqdadir zamin bag‘rida,
U yerning ostiga singib ketmoqda.
Ammo asl ma’no uning sahnida,
Yashil o‘tloqlarni bunyod etmoqda.



**Sarvar**

Yomg‘irga maslahatdosh kitoblar erur,
Ular vazifasi doim mushtarak.
Yomg‘ir ona yerga hayot baxsh qilur,
Kitobchi insonni komil etajak.



**Manzura**

Gullasa gullari hikmatli so‘zdir,
Tushganda mevasin der ma’naviyat.
U inson ongini bo‘ston etgaydir,
Kamolotga yo‘lchi yulduzdir albat.

**Bahodir**

Ba’zi bolalar ko‘p o‘qishni istaydiyu lekin bu ishning uddasidan chiqavermaydi

**Gulnora**

Bu hayron qolarli holat emas.Chunki juda ko‘p kishilar mutolaa masalasida muammolarga duch keladi.Bunday olamda mutaxassislarning tavsiyalariga quloq tutish foydadan xoli emas.

**Akmal:**Buning uchun



1.To‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganing

**Lobar**

2.O‘qish uchun biror qiziqarli narsa toping

**Dilshod**

3.O‘qish uchun tinch joy kerak

**Baxtiyor**

4.Agar matn surat va rasmlar bilan bezatilgan bo‘lsa oldin ularga e’tibor bering

**Malika**

5.Sabringiz yetguncha o‘qing

**Alisher**

6.Matnni qayta o‘qing

**Komila**

7.Har bir sahifasini sinchiklab e’tibor bilan o‘qing

**Murod**

8.Tushunarsiz so‘z,ibora va allomalar ma’nosini aniqlashtirib oling

**Lola**
9.Diqqatingizni jamlang
**Sardor**
10.Kompyuter planshet yoki telefon ekranidan o‘qiyotgandan ehtiyot bo‘ling
**Bahrom**
11.O‘qis[illegible]avom ettiring
**Qo‘s[illegible]** [illegible]bim qo‘limda” Po‘lat Mo‘min she’ri,N.Norxo‘jayev musiqasi
**Sa[illegible]**
[illegible]ki 2-aprel -Xalqaro bolalar kitob kuni
**[illegible]a**
Yer y[illegible]ysi burj[illegible]?
Kim[illegible]qanda[illegible]?
Tinch[illegible]rjam[illegible]
Kitob bay[illegible]ash[illegible]
**Sarvar**
Bir-biridan qiziq k[illegible]
Qalin-yupqa tuz[illegible]ar
Kecha, bugun- tari[illegible]un[illegible]
Varaqlayman barisi sh[illegible]







**Lobar**
Savol keldi menga nogahon,
Yashar edim kitobsiz qanday.
Cho‘chib tushdim bu o‘yda hatto
Ko‘zimga tor tuyuldi dunyo.
**Shahriyor**
Bizdan quyosh yo‘qolib qoldi,
Osmon oysiz tund bo‘lib qoldi.
Zimistonga aylandi hayot,
Yo‘llarimni yo‘qotdim nahot.
**Shahzoda**
Ha kitobsiz ma’ni yo‘q bunda,
O‘qib oldim yayraydi kunda.
Kitoblarning bahosi tengsiz,
O‘qing boyib ketasiz cheksiz.
**Mirzohid**
Sabina yaqinda bir qiziq ma’lumotga ko‘zim tushdi.Unda yozilish[illegible] Britaniyada kitob terapevt degan kasb  bor ekan.Bunday mutaxassislar k[illegible]ish orqali ruhiy muammolar qurshovida qolgan kishilarni da’volarkan.
**Sabina**
Qanday ajoyib.Demak kitob davolash xususiyatiga ega ekan-da!
**Mirzohid**
Hozirgi kunda televizor qarshisida uzoq o‘tirmay kitob o‘qiydigan bolalar ham anchagina
**Sabina**
Nahotki?
**Mirzohid**

NAMUNA

Bolalar shoiri Abdurahmon Akbarning ”Kitob sevar”she’rini bunga yaqqol misol bo‘ladi.

**Lola**

Televizor oldida,
Hecham ko‘rmadim seni.
Qo‘lingdan kitob tushmay,
Lol qoldiryapsan meni.



**Murod**

Maqtanchoqlikka yo‘yma,
Bu gaplarimni sira.
Kitob varaqlamasdan,
Ko‘nglim tortadi xira.

**Manzura**

Televizor ko‘rmayman,
Desam bo‘ladi yolg‘on.
Bolalardan dasturlar,
Bizga zarur har qachon.



**Baxtiyor**

Biroq rostini aytsam,
Kitobga ortiq mehrim.
Diqqatimni tortadi,
Adabiyotning sehri.

**Lola**

Tiriklik mo‘jizasin,
Kitobda deb bilmayman.
Kitob o‘qish baxtini,
Men barchaga tilayman.



**Amirbek**

O‘tayotgan har kunim,
Kinoga o‘xshar go‘yo.
Do‘stim bilsang men uchun,
Kitobning o‘zi kino.



**Sabina**

Kelinglar azizlar kitob haqida buyuklar fikrini tinglaymiz

**Bahrom**

Kitob kirmagan xonadon jonsiz tanaga o‘xshaydi.Siseron

**Shaxlo**

Hech narsa o‘qimagan kimsa,hech narsa haqida o‘ylamaydi.Didro

**Manzura**

Kitob boylik.Lekin sotib olingani emas o‘qilgani.Asqad Muxtor

**Sarvar**

Kitob o‘zida butun olamning rang-barangligini umuman uning yuzini fe’lini ro‘y-rost ko‘rsatib beruvchi oynadir.Jon Pol Sartre

**Gulnora**

Kitob-tafakkurning tolmas qanotlari

**Bola**

Kitob-oftob mening ham kitobga mehrim tushdi.Kitob o‘qishning kechi bo‘lmaydi to‘g‘rimi?



**Kitob**

O‘qi bolam,kitobing ezgulikka boshlaydi.
O‘qisang qattiq ko‘ngling bolam biram yumshaydi
Bog‘larin[illegible]manlaring gul ochadi yashaydi
Hayot [illegible]laklar yuragingda qishlaydi
Av[illegible]tan[illegible]g,bolam mangu yashaydi
[illegible]ni[illegible]yo yechib tashaydi
[illegible]si[illegible]bat labin tishlaydi
Tinchl[illegible]maslar [illegible] boshin qashlaydi
O‘qi[illegible]qisan[illegible] bo‘lgay ravon
To‘sol[illegible]ul y[illegible]turli davon
Obod, ozo[illegible]ra[illegible]r-u davron
Dilingni zab[illegible]ubha[illegible] gumon
O‘qiganni yaratgan[illegible]llay[illegible]
Turli balo qazoda[illegible]las[illegible]
Dilginang osmonida[illegible]ra[illegible]on
Vataningga farzandim,[illegible]



Sabina:Mirzohid kitob ha[illegible] q[illegible] oz,lekin bizga ajratilgan vaqt o‘z nihoyasiga yetib boryapti.

Mirzohid:Ha Sabina to‘g‘ri ay[illegible],bu[illegible]biri[illegible]rqali sizlarga ozgina bo‘lsada kitob haqida ma’lumot ulashgan b[illegible]imiz[illegible]a mamnun his etamiz.E’tiborlaringiz uchun rahma[illegible]

*Tadbir so‘ngida O‘zbekiston xalq artisti [illegible] tomonidan ijro etilgan “Biz qudratli yurt farzandlarimiz “ qo‘sh[illegible] namoyish etiladi.*

NAMUNA

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

__________________shahar (viloyat)

__________tuman "_____________" nomli

[illegible]abgacha ta'lim tashkiloti

t[illegible]rlo[illegible]h tarbiyachisining

20[illegible]o'[illegible]v yili uchun

## "B[illegible]IZLAR" MAVZUS[illegible]O'[illegible]ZILGAN BA[illegible]

# SSENA[illegible]SI

NAMUNA

# *“Balli qizlar” ko‘rik tanlov ssenariysi*

**Shartlar:**

1. Tabrik qismi
2. Moda ko‘rinishi
3. O‘yin (Buxorocha)
4. She’r (mavzuga oid)
5. Dasturxon tuzash
6. Sahna ko‘rinishi (Mavzuga oid)
7. Tort bezash
8. Ovqat pishirish

**1-shart**

1. Bu cheksiz davlati ma’mur
   Buxorodan, Buxorodan.
   Bu tengsiz san’ati manzur
   Buxorodan, Buxorodan
2. Nigohi sizni lol etsa
   So‘zi oshufta hol etsa
   Biling bu orazi suqsur
   Buxorodan, Buxorodan

Assalomu alaykum qalbi daryo ustozlar, aziz bog‘chadoshlar. Biz bugun azim Buxoroning nufuzli ilm maskani bo‘lmish qadrdon bog‘chaimiz sahnasida “Balli qizlar” ko‘rik tanlovlarini o‘tkazyapmiz. Biz va guruh qizlari o‘zimizning kuch va mahoratimizni sinamoqdamiz.

Bizning qizlar otalarning erkasi
Bizning qizlar onalar yordamchisi
Bizning qizlar lobar, chevar,
Bizning qizlar mehnatsevar

Bizning guruh: ………

**Bizning shior:** Intilganga tole yor

Keling do‘stlar tanishaylik yaqindan

Keling do‘stlar bellashaylik adolatdan

(Yana mavzuga oid she’r va qo‘shiqlar, o‘yinlar ijro etiladi)

**2-shartda** har bir mofda namoyishiga chiqqan qizga uning xarakteriga moslab boshlovchi she’r o‘qiydi:

1. Budur bizning Saida
   Uzun sochli xushqomat.
   Iqtidorli u juda
   [illegible]nga tilaymiz omad
2. [illegible]dir bizning Sakina
   Da[illegible] to‘la besh
   [illegible]qoq va ishchan
   [illegible]mad [illegible]a esh
3. [illegible]
   [illegible]hi
   Zukk[illegible]gi [illegible]
   G‘olib [illegible]
4. Budir bizn[illegible]
   Intiluvchan u har[illegible]
   Darrov qiladi gina
   Biroq juda mehribon
5. Budir bizning Ferangiz
   U bo‘lajak raqqosa
   Shuni bilib qo‘yingiz
   U uyalchangdir rosa

6. Budir bizning Munavvar
   Qalbi tongday beg‘ubor
   Bilimdonlikda sarvar
   “Intilish” unga shior

7. Budir bizning Gulbahor
 Qalbi she’r bilan hamroh
U oq kongil, odobli

NAMUNA

She'ridan olar panoh

8. Budir bizning Sharofat
   Nozikkina, erka qiz
   So'zlashi jonga rohat
   U oilada yolg'iz

**3-shart** bo'yicha [illegible]ing raqs mahoratlari namoyish etiladi va hakamlar tomonidan baholanadi

**4. S**[illegible]

-Sh[illegible]riya[illegible]yuk so'[illegible]noq ekan….. degan ekan bir shoir. Darhaqiqat she'riyat u[illegible]keng[illegible]heksiz. Bizning qizlar she'riyatga juda qiziqishadi. Sizla[illegible]M[illegible]ad Yusufning "Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor." [illegible]ermoq[illegible]miz. Marhamat tinglang

**5. shart** Dasturxon tu[illegible]bu sh[illegible]ning qanday mehmon kutishlari, yoki qanday dasturxon ustini b[illegible]tka[illegible]adi. Bunda har bir narsaning qayerda va qanday joylashtiri[illegible]a[illegible]at'iy e'tibor berishlari zarur.

**6. shart.** Sahna ko'rinishida mavzuda[illegible]a qi[illegible]larning aktiyorlik mahorati kuzatiladi.

**7. shart** Tort bezashda sharoitdan kelib chiq[illegible]qizla[illegible]aki[illegible]huntirsalar ham bo'ladi

**8. shart** Ovqat pishirish shartida qizlarga maxsus k[illegible]i. K[illegible]lar ichida ma'lum bir yoki ikkita ovqatning nomi yozilgan bo'ladi.[illegible] shu[illegible]ng qanday tayyorlanishi haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak[illegible]u shartni baholashda mahsulotlar ketma-ketligi va necha kishiga [illegible]o'l[illegible]ga e'tibor beradilar.

NAMUNA

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

______________________shahar (viloyat)

______________tu[illegible]__________” nomli

__-makta[illegible]tashkiloti

tayyorlov gu[illegible]chi[illegible]ining

20__-20__-o‘[illegible]yili[illegible]

## “Yo‘l qoidasi-u[illegible]”

## mavzusida o‘tkazilgan [illegible]

# SSENARIY[illegible]

NAMUNA

**Yo‘l qoidasi - umr foydasi" tadbir ssenariysi**

(Tadbir uchun sahna bezatiladi. Kerakli yo‘l belgilari tayyorlanadi, svetofor yasaladi. Tadbirni 2 ta boshlovchi olib boradi. O‘quvchilar qatnashadi. Militsioner kiyimidagi bola bo‘ladi. )

Tadbirni o‘tkazishdan maqsad bolalarning yo‘l harakati qoidalarini ko‘proq o‘zlashtirishi va unga amal qilishga o‘rgatish.

1-boshlovchi: Assalom-u alaykum aziz ustozlar, hurmatli aka-opalarimiz.

2-boshlovchi: : Assalom-u alaykum jajji ukajonlarimiz va qadrli tengdoshlarimiz.

1-boshlovchi: Bugun bizsizni oz bo‘lsaham, yo‘lharakati qoidalarida xabardor qiliosh maqsadida ushbu kichik tadbirni tashkil qildik.

2-boshlovchi: 10- fevraldan 10-martgacha "Harakat xavfsizligi oyligi"deb e’lon qilinganligi munosabati bilan "Yo‘l qoidasi - umr foydasi” deb nomlangan kechamizni taqdim qilamiz.

1-boshlovchi: Munosibaxon yo‘l, ko‘cha, chorraha nima ekanligini undaqanday harakat qilishni bilasizmi?

2-boshlovchi: Yo‘l bu – biz bog‘chaga borib keladigan yo‘l-da!

1-boshlovchi: Tengdoshlarimiz bu savollarga ajoyib javob topib qo‘yishgan, keling tinglaymiz.

1-bola: Bolalar! Ko‘cha deb ikki chetiga turli binolar qurilgan, odamlar avtomobillar va boshqa transport vositalari harakat qilishi uchun mo‘ljallangan joyga aytiladi. Bunday ko‘chalar juda ko‘p. Bu ko‘chalarni adashtirib yubormaslik uchun ularning har qaysisiga nom berilgan. Ko‘chadagi harakat xavfsizligini ta’minlash uchun maxsus qoidalargarioya qilish zarur . Transport haydovchilari va piyodalar bu qoidalarni bilishlari kerak.

2-bola: Chorraha transport vositalari eng ko‘p qatnaydigan yo‘l qismi. Shuning uchon chorrahalar eng xavfli joy hisoblanib uyerda piyodalarni tartibga soluvchi nazoratchi turadi yoki svetofor o‘rnatilgan bo‘ladi. Piyodalar yo‘ldan o‘tayotganda juda ham ziyrak bo‘lishi kerak.

3-bola: Chorrahaning transport va piyodalar qatnaydigan qismi yo‘l deyiladi. Piyodalar yo‘lning chetidan trnsport harakatiga qarama-qarshi yo‘nalishda yurishlarikerak. Shunda ular ro‘parasidan kelayotgan mashinalarni doimo ko‘rib turadilar.

2-boshlovchi: Yo‘l belgilarini juda ko‘p ko‘rganmiz . Bog‘chaga kelishda, shaharga borishda . Lekin shu belgilar aynan nimani bildirishini bilasizmi?

1-boshlovchi: Ha, ayrimlarini bilaman. Masalan bog‘chaimizga kelishda bolalar rasmi qo‘yilgan belgi bor. Bu belgi bolalar o‘qiydigan bog‘cha bor. Mashinalar tezlikni 70 km/soat tezlikdan oshirmasligi kerak degani.

2-boshlovchi: Endi ayrim yo‘lbelgilari bilan tanishib olamiz.

(O‘quvchilarga quyidagi yo‘l belgi she’rlari beriladi. Qo‘llarida shu belgilarni ushlab turishadi.)



Bolalar belgisi

Bu belgini ko‘rganda ,

Xotiringiz bo‘lsin jam.

Bolalarga oq yo‘ltilab

To‘xtar mashinalar ham.

Tibbiy yordam ko‘rsatish belgisi

Ko‘rsatilar shunday belgi

Bor joyda tibbiy yordam.

Yo‘lda kor hol bo‘lib qolsa,

Murojaat qiling siz ham.

Piyodalar o‘tish joyi belgisi



Yo‘lni kesib o‘tishning ham
Qoidasi bor biling.
Bu belgini ko‘dingizmi?
Qadam tashlang , dadil bo‘ling
Yer osti piyodalar o‘tish joyi belgisi
Sizga aytsam bu belgi,
Hammaga ham keragi.
Eng [illegible]fsiz va eng ma’qul yo‘l,
[illegible] yo‘lagi.
[illegible] piyo[illegible]lar o‘tish joyi belgisi
[illegible] xavfli
[illegible]g, hech qachon!
[illegible]prik yol[illegible]s
[illegible]an yu[illegible]
Piyo[illegible] belgisi
Bu b[illegible]
Bu joyda yur[illegible]g,
Bilmayin yu[illegible]b
Hayotni xavfga [illegible]
Ikki tomonlama ha[illegible]
Chapga o‘ngga qarab yo‘l[illegible]
O‘rtasiga borib turing.
Keyin o‘ng va chapga qarab
Xavf yo‘q bo‘lsa, olg‘a yuring.
Piyodalar yo‘lakchasi belgisi
Har xil avtoulovlarga
Joyning borligi tayin –
Ammo bunday belgi bor joyda
Piyodalar xo‘jayin.
Velosipedda yurish taqiqlanadi belgisi
Bu belgini ko‘rib to‘xtang,
Velosipeddan tushing tez.
Yetakka olib unda,
Piyoda bo‘ling bunday kez.



1-boshlovchi: Olisni yaqin aylab
Turibmiz rulni shaylab.
Bir,ikki,uch ... yetti ...
Uloq bizlarda ketdi.

Nima haqida gapirayotganimni sezdingizmi?

2-boshlovchi: menimcha lasetti mashinasi haqida gapiryapsiz. Demak, navbat mashinalar haqidagi she’rga.

NAMUNA

Xizmatdamiz odamga
Qulaymiz "tez yordam"ga.
Kimlar uchun taxsi "Damas"
Demang bizni indamas.
Kimlar uchun go'yo ombor
Hali hisob-kitob ham bor.

Ichim tashim baquvvat,
Ko'rkamdirman hamma vaqt.
Rulim ushlash qanday baxt,
Sizni kutgan men kobalt.




Sizga qilishar havas,
O'zin qiyoslaydi "Maz".
Zil-zambil yuklar tashish,
Hammaga ham osonmas. ( Kamaz)

1-boshlovchi: Bunday mashinalardan tashqari maxsus avtomashinalar ham bor.

2-boshlovchi: Yo'g-e maxsus avtomashina deysizmi?

1-boshlovchi: Ha, albatta. Bunday turdagi mashinalar haqida hozir ko'proq narsalarni bilib olishimiz mumkin.

1-bola: O't o'chiruvchi mashinalar. Bunday mashinalar qizil rangga bo'yaladi. Mashina kuzovining ustiga havo rang miltillovchi chiroq o'rnatiladi.

2-bola: Militsiya mashinalari. Kuzovning yon tomonlariga zarur hollarda qo'ng'iroq qilish uchun telefon raqamlari yoziladi. Maxsus radiokarnar o'rnatiladi.

3-bola: "Tez yordam" mashinalar. Bunday mashinalarning kuzoviga 03 raqami tushirilgan bo'lib, bu raqam orqali tez tibbiy yordam chaqiriladi.

4-bola: Gaz tarmoqlarini tez ta'mirlash avtomobili. Bunday avtamobillarga ham boshqa maxsus mashinalardagidek "Sirena" tovushi ulangan bo'ladi.

5-bola: Maxsus avtomobillar hodisa ro'y berayotgan joyga borayotganlarida "Sirena" tovush signalini ulaydilar va kuzov tepasidagi pirpirovchi chiroqni yoqadilar. Bunday hollarda svetoforning har qanday ishorasida to'xtamasdan harakatlanishga egalar va boshqa transport vositasi haydovchilari ularga yo'l berishlari shart!

6-bola: Piyodalar "Sirena" tovushini eshitishi bilan yo'lni bo'shatishlari va maxsus mashinalar o'tib ketmaguncha yo'lkadan tushmasliklari kerak.

7-bola: Agar yo'ldan "Sirena" tovush signali bilan jihozlangan avtomobil kuzatuvidagi avtomobillar kalonnasi harakatlanayotgan bo'lsa, piyodalar ularning o'tib ketishini kutishi va shundan keyingina yo'lni kesib o'tishlari mumkin.

1-boshlovchi: Yo'l hamisha tasodiflarga to'la. Lekin har qanday tasodifning oxiri yaxshilik bilan yakunlanavermaydi.

2-boshlovchi: Ayrim tasodiflar tufayli ba'zilari ruhan, ba'zilari jisman majruh bo'lib qoladilar. Har yili yo'l transport hodisalari natijasida ko'plab bolalar shikastlanib nobud bo'lishyapti. Bularning sabalari esa turlicha.

(bolalar birma-bir aytishadi.)

- velosiped, chanalarda yo'lning qatnov qismida uchgani uchun;
- mashina va traktorlarning orqasidan osilgani uchun;
- kattalar qolidan chiqib birdaniga yugurgani uchun;

- koptokning orqasidan chopib chiqqani uchun;
- mumkin bo‘lmaga joylardan yo‘lni kesib o‘tgani uchun;
- yo‘lning harakat qismida turli o‘yinlar o‘ynagani uchun;
- kichik yoshdagi bolalarni yo‘lda nazoratsiz qoldirgani uchun;
- tez kelayotgan transport vositasi oldidan tez chopib o‘tgani uchun baxtsiz hodisalar ro‘y beradi.

1-boshlovchi: bunday baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun esa hozir aytiladigan qoidalarga amal qilishimiz [illegible]arur.

(bola[illegible]bir aytishadi.)

- [illegible] piyodalar o‘tish joyidan shoshilmasdan kesib o‘tish kerak;
- [illegible] f[illegible]etoforning yashil chirog‘i yonganda o‘ting;
- [illegible]g piyodalar yo‘lakchasi bo‘lmasa, harakatlanayotgan mashinalarga qarshi yo‘[illegible]a bo‘ylab yo‘l chetida yurish lozim;
- [illegible]anayo[illegible]alar oldidan ko‘chani chopib kesib o‘tmang;
- [illegible]chan[illegible]n mo‘ljallangan joydan kesib o‘ting;
- ag[illegible]tish[illegible]magan bo‘lsang ko‘chaning markaziy chizig‘ida yoki xavfsizlik bekatida to[illegible] yashil[illegible]og‘i yonishini kuting;
- fudbol, qorb[illegible]oshqa[illegible]ko‘cha yoki yo‘lkalarda o‘ynamang, bunday joylarda o‘ynash hayoting[illegible]xavf[illegible]tmang;
- yo‘llarda va ko[illegible]al[illegible]ana[illegible]hmang, har xil o‘yinlarni maxsus maydonchalarda va stadionlarda o‘ynang[illegible]

Yo‘lda ketayotganda ziyra[illegible]o‘l[illegible]lkadan yoki yo‘lning chetidan yur! Yo‘lni qanchalik kam kesib o‘tsang, b[illegible]vfsiz bo‘lishini unutma!

Yo‘lning transport harakatlanad[illegible]n q[illegible]hor v[illegible]o‘lkaning tor joyida to‘xta va ro‘parangdan kelayotgan kattalarga [illegible]

2-boshlovchi: Turli, o‘qish mashg‘ul[illegible],
Kollej bog‘cha degan joyda[illegible]
Yo‘l harakat qoidasin,
Bilmoqlik juda foyda.

Yuqoridagi qoidalarga bo‘ysunmagando‘stimizdan q[illegible] she[illegible]

Ko‘chaga chiqdim bunday qilib
Chorrahadan o‘tdim bunday qilib
Mashinalar chiyilladi
Hushtak qattiq churilladi,
Militsiya keldi bunday qilib.
Haydovchilar baqirishdi,
Dadamni ham chaqirishdi.
Dadam meni koyidi bunday qilib.
Men yig‘ladim bunday qilib
Endi bunday qilmayman, deb
Chiroqdan ko‘z uzmayman,deb,
Va’da berdim bunday qilib.



1-boshlovchi: Chorrahaning asosiy boshqaruvchisi svetofordir. Svetofor yo‘q joyda militsiya xodimlari nazorat qiladi.

NAMUNA

2-boshlovchi:

Qizil yonsa kuting - bu xavfli,

Sariq yonsa – tayyor turing.

Yashil yonsa – yo‘l ochiq,

Qo‘rqmay, dadil olg‘a yuring.

(bitta bola "Uch xil chiroq” she’rini aytadi, o‘ng tomonida militsiya kiyimidagi bola svetofor chirog‘iga mos hara[illegible]t qiladi, chap tomonida svetofor turadi.)

NAMUNA

Ko‘cha bo‘ylab [illegible]gar

Atrofingga [illegible]

Chiroq[illegible]o[illegible]

Yo‘l [illegible]

Se[illegible]en bun[illegible]q,

Y[illegible]tar u[illegible]



Sariq chiroq hu[illegible]yor [illegible]

O‘tma yo‘ldan shik[illegible]

Haydovchini to‘xtab tu[illegible]deb[illegible]

Qizil chiroq xitob etar.

Sen unga boq, se[illegible]ga [illegible]

Yo‘l ko‘rsatar uch xi[illegible]

Yashil chiroq porlagan kez

Yo‘lni kesib o‘tib ol tez.

Ko‘chalar soz, obod-ravon,

Yo‘lni bilgan yurar omon.

Sen unga boq, sen bunga boq,

Yo‘l ko‘rsatar uch xil chiroq

Sen unga boq, sen bunga boq,

Oq yo‘l tilar yashil chiroq.

1-boshlovchi: Endi navbatni ochiq muloqotga beramiz.

2-boshlovchi: Bunda aka-opalarimiz va tengdoshlarimizga bir nechta s[illegible]oll[illegible]

1-boshlovchi: (5 ta bola yo‘l belgilarini ushlagan holatda davraga chiqisha[illegible]naga l[illegible] shu belgilardan qaysi birlarini uchratgansiz va u nimani bildiradi?

2-boshlovchi: Bog‘chadan uygacha bo‘lgan yo‘lda qanday harakatlanishingizni t[illegible] ("Mening mashrutim ” mavzusida so‘zlash)

1-boshlovchi: Yo‘l qoidasini bilgan hamda unga amal qilgan yo‘lovchi va haydovchilarning [illegible] bexatar bo‘ladi.

2-boshlovchi: Shunday ekan "Yo‘l qoidasi – umr foydasi” ekanligini unutmang!

1-boshlovchi: Yo‘llarda harakatlanayotganda yo‘lqoidalariga rioya qiling.

2-boshlovchi: Shuning bilan bugungi kechamiz ham o‘znihoyasiga yetdi. E’tiboringiz uchun rahmat!

1-2-boshlovchi: Xayr so‘g‘-salomat bo‘ling!

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

**______________shahar (viloyat)**

**______________tuman "_____________" nomli**

**__-maktabgacha ta'lim tashkiloti**

**tayyorlov guruh tarbiyachisining**

**20__-20__ o'quv yili uchun**

# "Suv bayrami" nomli tadbir

# SSENARIYSI

NAMUNA

Tadbir joyi bayramona bezatilgan. Suv havzasi atrofida doira shaklida joylashadilar.
(*Suv havzalari yo'q MTTlar sun'iy basseynlardan foydalanishi tavsiya etiladi.*)

**Boshlovchi:** Suvlarning o'z gashti bordir,
Chamanzor-u dashti bordir.
Suv sathiga qarang bir-bir,
Dilda aslo qolmas g'ubor.
Suv osti ham ajib olam,
Yo'llari bor, gullari bor.
Cho'milamiz yayrab yashnab,
Mazza qilib kalla tashlab.

Qadrli bolajonlar, aziz mehmonlar, ota-onalar mana bugun biz orziqib kutgan damlar ham etib keldi. Bugun bog'chamizda "Neptun-Suv" bayrami ertaligiga to'planib turibmiz.

Bugungi o'tkazilayotgan ertak ko'rinishidagi "Neptun-Suv" bayramimizni ochiq deb elon qilamiz.

**Bola:** O'lkamizda kezmoqdadur oltin yoz,
Yo'llarida chamanzorlar poyondoz.
Yoshlik kuyi jaranglaydi sho'x ovoz,
O'lkamizda kezmoqdadur oltin yoz.

**Bola:** Salqin bog'cha bog'larida o'ynaymiz,
Do'stlarimiz zavqi bilan quvnaymiz.
Tiniq suvda cho'milamiz yayraymiz,
Salqin bog'cha bog'larida yashnaymiz.

**Bolalar raqs ijro etib beradilar.**

**Boshlovchi:** Aziz bolajonlar ertak tinglaysizlarmi? Xozir bo'lmasa men sizlarga dengiz saltanatida nima voqelar bo'lganligi haqida aytib beraman.
Bor ekanda yo'q ekan, to'q ekanda och ekan qadim dengiz saltanatida Suv qiroli yashagan ekan. Suv qiroli butun okean, dengiz, suv havzalari hukumdori ekan. U hech ham zerikmas ekan. Goh o'zining tilla tojini qum bilan ishqab tozalar , suvda ketayotgan kema va qayiqlarga tegajoqlik qilib suvni to'lqinlantirib o'tirar ekan. Lekin har yili bir marotaba "Suv" bayrami qilib berab, hammani bayramga taklif qilar ekan. Kelinglar bo'lmasa ushbu bayramni tamosha qilamiz.

**Bola:** Quyosh nuri bilan silar keng o'lkamiz husnini,
Qonib tomosha qiling "Neptun" bayram to'yini

**1 Jarchi:** Suv osti saltanati yashovchilari
Exe...xe..xeey eshtmadim demanglar!
Bugun Suv osti saltanatida
Katta bayram bo'ladi.
Exe...xe..xeey......



**2 Jarchi:** Dengizlar saltanatining hukumdori,
To'fonlar, shamollar, ko'llar shohi,
Uchqur elkanli kemalar podshohi "Neptun"
Barchani "Suv" baramiga taklif etadi!
Exe...xe..xeey...........!

**1 Jarchi:** Va shunday farmon beradi.
"Barcha o'ynasin-kulsin
Hech kim g'amgin bo'lmasin

Barcha  Yursin, yayrasin,
Hamma raqsga tushsin.”

Bolalar “Lambada” raqsini ijro etib beradildar.

*Shunda Neptun qirolining  Suv pari  qizlari  Laylo, Fotima, Zuxra,Zulfiya, Farida, Gulnor, Gitta, Zitta, Ariettalar  ushbu bayramga to‘planib  kulishib, chaqchaqlashib doira bo‘lib turishib “100 o‘rtoq” nomli o‘yin o‘ynaydilar.*

**Suv pariylari:** Davrani keng oling
Boshlaymiz o‘yin
O‘ynaymiz quvnaymiz
Do‘stlikning kuyin.
Do‘st bo‘lar suvda kemalar
…o‘st bo‘lar suvda baliqlar
…o‘st bo‘lar  dengiz  va okean
Do‘s…iz biz suvpariylar ham.

**1 Su…** D… boshlaymiz o‘yin
…oq bu, bu, bu, bu.
…ili … sevimli.........
G… kenja …glimiz  ko‘rinmayaptimi.

*Opa singillar mus… kenj… lchatoyni istab ketadilar.*

**2 Suv pariy:**  Endi ni… qil… …a ni… deymiz.

**3 Suv pariy:** Gulchatoy, o… …imi… …a erka qiziku.

**4 Suv pariy :**Uni axtarib topmas… …im…

**5 Suv pariy:** Kelinglar bo‘lmasam  S… …sida… …raymiz.

**Suv pariylari “Arabcha” raqs ijro … …a**

**Suv alvastisi:** Nima to‘polon, nima shovqin
Kim menga beryapti  ozor.
Qurbaqayu, uzuliklarim
Nega qaramadingiz.
Yoki menikiga Qirol
Tashrif buyuryaptimi...

**Suv pariylari:**  Yo‘q!

**Suv alvastisi:**  Unda menga berib ozor
Uxlashga qo‘ymayapsiz.
Oyog‘imni uzatib
Yotishga qo‘ymayapsiz.

**6 Suv pariysi:** Suv alvastijonisi.
Bizga yordam beringiz.
Xozir boshlanar bayram
Otam ham kelib qolar.
Gulchatoydan yo‘q darak
Qolmaylik bo‘lib mulzam.




NAMUNA

**Suv alvastisi:** E.. shu ham ish bo‘libtimi...
Yordam beraman sizga
Qaniy shaytonchalarim
Tezda keling bu erga.

**Bolalar “Shaytonchalar” raqsiga tushib beradilar.**




**Shaytonchalar boshlig‘i:** Bizni nega chaqirding ota
Yordam kerakmi senga picha.

**Suv alvastisi:** Qirol qizi Gulchatoy
Yo‘qolipti izlangiz.
Agar topib kelmasangiz,
Izmimdan yo‘qolingiz.

**1 Shaytoncha:** Yana ishmi, yana bir balo
Dam olishga yo‘q ekan davo.

**2 Shaytoncha:** Yana dengiz-ummon oshamiz,
U pariyni qaerdan topamiz.....

**2 Shaytoncha:** U dengizda o‘ynoqlab,
Ovchilar to‘riga tushgandir.

**Hamma Shaytonchalar:** Juda to‘g‘ri aytasan.

**Shaytonchalar boshlig‘i:** Yuringlar bo‘lmasam uni
Qirg‘oqdan axtaramiz.

*Shu vaqt chol bilan kampir dengiz qirg‘og‘ida o‘tirishgan edi.Kampir ip yigirib o‘tirar edi. Chol esa baliq tutgani to‘r to‘qir edi. Ular urishishar edilar.*

**Kampir:** Tur o‘rningdan sassiq chol, kallasi aynigan chol.
To‘rni olib qo‘linga dengizga borgin tezda.
Keng suvlar ummonidan, dengiz saltanatidan.
Menga baliq keltirgin, bo‘lsin oltin baliqcha.

*Chol ho‘rsinib to‘rini olib 3 marotaba dengizga to‘r tashlabdi. 3 chi tashlashida shaytonchalar ilinibdi.*

**Chol:** Yo alhazar tushmi o‘ng ,
Qoch ko‘zimdan sen shayton.
Dengiz sari yo‘qolgin,
Dilim xufton etmagin.

**Shaytonchalar boshlig‘i:** Vaysima ey qari chol, vahimachi sassiq chol.
Bizga to‘g‘risin so‘zla, ko‘ngillarni bo‘zlama.

**1 Shaytoncha:** Dengiz xukumdorining
Qizini o‘g‘irlapsan.



Xammamizni endi sen
Uyatga qoldiripsan.

**Chol:** Yo‘q,yo‘q unday demanglar,
O‘g‘ri qilib yurmanglar.
Uyda bir suvpariyim bor
Oy yuzli zo‘r yorim bor.
Sh[illegible]xing qursin shaytoncha
[illegible]masang kir uyga.

*Shaytonchalar uyga kirishadi.*

[illegible]shonmayman nimalar eshityapman
[illegible]qirolning o‘zi choparlar yuboribti.
[illegible]cha bo‘[illegible] xukmumni o‘tkazaman,
[illegible]ngiz [illegible]ib, orzuimga etaman.

**Shayton[illegible]**
**boshlig‘i:** [illegible]si [illegible]chol, nega bizni aldaysan,
[illegible] bu k[illegible] yuragimiz dog‘laysan.




**2 Shaytoncha:** [illegible]
Kam[illegible]
Bu qi[illegible]
Mendan kam[illegible]

**Kampir:** Kampir dema oy qi[illegible]
Go‘zalikka boy qizm[illegible]
Qani hammangiz keting
Ko‘z o‘ngimdan yo‘qoling

*Kampir shaytonchalarni uzun temir [illegible] [illegible]hayt[illegible] kampirdan zo‘rg‘a qochib qutuladilar.*

**Shaytonchalar**
**boshlig‘i:** Zo‘rg‘a qochib qutuldik
Bizdan battar ekana
Cholga rahmim keldiya
Endi nima qilsak ekan-a ...

**2 Shaytoncha:** Eski do‘stimiz Yalmog‘iz kampirning oldiga boramiz. Sh[illegible]iysi Gulchatoyni topib bersa.

**Yalmog‘iz kampir:** Salom shaytonchalar xush kelibsizlar.
Nega xomush, parishonsizlar.

**Shaytonchalar**
**boshlig‘i:** Sen suv qirolining qizi Gulchatoyni ko‘rmadingmi? U yo‘qolib qoldi. Bizdan yordamingni ayamagin. Uni topishda yordam bergin.
**Yalmog‘iz kampir:** Fol ochaman, fol ochaman
Abaraki-dobariki
Qalin o‘rmon ichida

NAMUNA

Daraxtzor quchog'ida
Maysazor, qir adirda
O'tloq, tog'u-toshlarda
Suv pariysini toping
Tezda menga ko'rsating.*(Qo'lini aylantiradi)*

**Shaytonchalar boshlig'i:** Nima bo'ldi, nima bo'ldi
Tezroq bizga so'zlagin.

**Y[illegible]pir:** Suv pariysi Gulchatoyni maysa va o'tloqlardan qidirgin o'rmon va suv [illegible]o[illegible]ing folim shunday demoqda.

*[illegible]and[illegible]onchalar Gulchatoyni topolmay orqalariga qaytishibdi.*

**Su[illegible]** Nega[illegible]glar
[illegible]inglar.
[illegible]p[illegible]zlar
[illegible]hli[illegible]rmanglar.

**Shaytonchal[illegible] boshlig'i:** Ha[illegible] istad[illegible]opolmadik.

**Suv alvastisi:** Bu qa[illegible]y f[illegible]
Neptu[illegible]

***"Dengiz hukmdori" kG'f m[illegible]siq[illegible]giz hukmdori Neptun kirib keladi.***

**Neptun:** Men dengizlar, suvlar h[illegible]kimd[illegible]shos[illegible]giz hukmdori "Neptun" bo'laman! Yurtim, taxtim – dengizda, uyim esa[illegible]arid-[illegible]yaralgan. Bugun suv sayli bayrami! Sizlar bilan suv saylini o'tkazishga va s[illegible]i tab[illegible]dim[illegible]gun men bu davraga pahlavon botir o'g'lonlarim bilan keldim. Ular xozir siz[illegible]o et[illegible]ar.

**Bolalar "Kukarella" raqsini ijro et[illegible]adil[illegible]**

**Neptun:** Mening yana suv osti pariy shumtaka qiz[illegible]avrag[illegible]olib keldim tanishinglar Laylo, Fotima, Zuxra,Zulfiya, Farida, Gulnor, Gitta[illegible].... [illegible]e...Gulchatoy kenja sevimli qizim qaerda qoldi. Qani u , shunday katta tant[illegible]a[illegible]

*Suv alvastisi va shaytonchalar Neptunga tizzasi bilan egilib ke[illegible]rim[illegible]*

**Suv alvastisi:** Bizni bekorga o'ldirma,
Bir qoshiq qonimizdan kech.
Maysazoru, o'tloqdan,
O'rmonu tog'u-toshdan
Qizingni rosa izladik
Lek afsus topolmadik.



**Neptun:** Qochib ketsa topaman
Izlarini izlayman.
Bayram bo'lmaydi tamom
Boshka gap yo'q vassalom!

**Boshlovchi:** Hayajonlanma qizingni topishda biz yordam beramiz.
Diqqat bilan eshitgin. Dunyoda shunday orol bor. U orolda shahar bor. Shaharda bolalar bog'chasi bor. Bog'chada bolalar bor. Ular kun bo'yi dam olishadi, mazza qilib o'ynashib, quvnashashadi. Yana 4 mahal yaxshi ovqatlanishadi. Qizing shu shaharda yo'qolgan.

NAMUNA

**Neptun:** *(Qo'lini aylantiradi)* Ko'ryapman qirg'oqlarni, qumlik plyajlarni
Bu bolalar shahrimi? Qani mudir. Metodist,
Qani xamshira, oshpaz, qani tarbiyachi, enaga.
Ularni zudlik bilan, olib keling oldimga.

*Shaytonchalar xodimlarni olib chiqishadi.*

**Neptun:** Mish-mishlar yuribtiymish, qizim shu bog'chadamish.
Yomonlikni xoxlamasangiz qizimni qaytaringiz.



**Suv alvastisi:** [illegible] sen bularni ko'rgin
[illegible]arni [illegible]iynashibdi rosa.
[illegible] ku[illegible]n – kulgu, rohat
[illegible]irin ovqat.
[illegible]r ularni zo'rlab
[illegible] kunni [illegible]slar yayrab.

**Neptun:** [illegible]hun[illegible]lari
[illegible]mi?...

*Shunda bolalar orasi[illegible] Ne[illegible]zi keni[illegible]ariysi Gulchatoy yugurib chiqadi.*

**Kenja suv.p:** Otajonim! [illegible]m! [illegible]zirman.
Assalomu a[illegible]ku[illegible]n .
Achchiqlanma[illegible]ga[illegible]gin.
Bekorga xafa bo[illegible] qa[illegible]
Qizil yuz shirmonlarga[illegible]
Suvlaringda cho'mili[illegible]ra[illegible]
Salqin bog'cha bog'lari[illegible] yas[illegible]
Ular botir, qo'rqmas, chaqq[illegible]o'r!
Ishtahalari karnay biz bilan te[illegible] yur!



**Neptun:** Qololmayman qizalog'im axir men [illegible]nar[illegible]
Er havosi menga og'ir, saltanatga ke[illegible]r..
Ketishdan oldin sizlarga BUYuRAMA[illegible]

1.Bugungi suv bayramimizda barcha quvnoq, shodon bo'lsin.
2.Yoz davomida barcha bolalar cho'milib, chiniqsinlar, sog'lom bo'l[illegible]
3.Shunday bayramni va yozgi sog'lomlashtirishni tashkil etgan bog'[illegible]ng minnatdorchiligimni bildiraman va mening saltanatimga cho'milishga t[illegible]lif e[illegible]*assasini erga uch marotaba uradi)*

**"Suzish estafeta o'yinlari" davom etadi.**

**1.Suvdagi gullarni kim tez va ko'p terish.**
**2.Qog'ozdan yasalgan kemachalarni kim tez suv tepasida pudab manzilga ol[illegible]**
**3.Suvdan Kinders tuxumchalarini kim ko'p terish.**
**4.Suv tagidan katta marjonlar va rakushkalarni kim ko'p terish va x.k.***Tuzdi:*

NAMUNA

M[illegible]CHA VA MAKTAB TA’LIMI

VA[illegible]IGI _____________________ shahar

(viloyat)

___[illegible]t[illegible] “______________” nomli

__-mak[illegible]t[illegible]n tashkiloti

tayyorlov g[illegible]t[illegible]yachisining

20__-20__-[illegible]v [illegible]

## “SALOM MAKTAB-XA[illegible]BO[illegible]A”

## mavzusida o‘tkazilg[illegible]

# SSENARIY[illegible]

NAMUNA

Bog‘cha  sahnasi bayramona bezatilgan. O‘rtadagi katta gilamga “ Xayr bog‘cha – Salom maktab” yozuvlari aks ettirilgan. Atroflariga gullar qo‘yilgan. Bolalar sahnaga qo‘llarida gul va bayroqchalar bilan kirib keladilar.

**Bolalar “ O‘zbekiston “ musiqa fonogrammasiga kirib keladilar.**
**So‘ng  “ O‘zbekiston Davlat Madhiyasini tinglaydilar.**

**Boshlovchi:** Qimmatli bolalar, hurmatli mexmonlar! Bugun bizning bog‘chamizda katta tantana. Biz bog‘chamizning navbatdagi qaldirg‘ochlarini maktab bo‘sag‘asiga kuzatyapmiz!

Yuzlaring yal-yal yonib, odimlaysan mardona
Bir qo‘lingda sumka bor, biridachi guldasta.
Oylar o‘tar yil o‘tar, ulg‘ayasan bir kun sen.
Seni kutar koinot , kutadi qahramon el.

**Endi bayramimizni ochib berish uchun so‘zni bog‘chamiz mudirasiga beramiz.**

**1  Bola:** Hurmatli ota - onalar va mehmonlar, bog‘cha xodimlariyu, jajji ukajonlar, qalbi qaynoq murabbiyalar! Mana, bugun biz, maktabga ketish oldidan xayr-lashish kechasiga yigilganmiz. Bugungi bayram bizning yodimizdan chiqmaydi.

**2  Bola:** To‘g‘ri________________________, bugungi kun hech kimning yodidan chiqmaydi, chunki go‘daklik chog‘imizdan tarbiyalab, ta’lim olishga o‘rgatgan.

**Hamma:** mo‘’tabar va aziz opajonlarimizga har qancha ta’zim qilsak ham oz!

**1  Bola:**
Nima uchun bugun biz, quvnoq bayram qilamiz.
Chunki tez kun ichida , biz maktabga boramiz.

**2 Bola:**
Ona kabi mehribon,ilm fanlarga makon.
Yayrab o‘qiyman har on, qadrdonim maktabim.

**Bolalar “ Tishim ham tushib ketdi “ qo‘shig‘ini aytib beradilar .**
**So‘ng “  Bo‘laman “ raqsiga tushib beradilar .**

**1 Bola:**
Mehr nuri yog‘ar doim, yuzingizdan ustozlar.
Yursam deyman bu tabbaruk, izingizdan ustozlar.

**2 Bola:**
Biri gul, biri bulbul, o‘g‘il qizlar shod bugun.
Qalbidan gul tutadi, mehribon ustoz uchun.

**Bolalar “ Ustozlar “ qo‘shig‘ini aytib beradilar.**
**So‘ng “ Do‘ppi tikdim “ raqsiga tushib beradilar.**

**Boshlovchi:** Qimmatli bolajonlar! Bugun sizni tabriklagani ota-onalaringiz, mehmonlar va kichkintoy ukalaringiz tashrif buyurishgan **.** Ular hammasi sizlarni mustaqqil O‘zbekistonimizni etuk farzandlari bo‘lib etishishingizda omad va muvaffaqiyatlar tilamoqchilar.

**Katta guruh bolalari musiqa ostida kirib keladilar.**

**Bola:** Opajonlar, akajonlar etti yoshga to‘libsiz,
Tabriklaymiz biz sizni siz o‘quvchi bo‘libsiz.

**“ [illegible] ra[illegible] qizlar o‘yinga tushib beradilar .**

**Bola:** [illegible]hu o‘lk[illegible]ning erkasi bizlar
H[illegible]ni ertasi bizlar.
[illegible] o‘g‘il qizlar
[illegible] hur gulistonim
Til[illegible]on O‘zbekistonim!

**Bolalar “ Tinchlik b[illegible] qo‘[illegible]ib beradilar .**
**So‘ng “ Xorazm[illegible] “ r[illegible]eradilar .**

**Boshlovchi:** Bolajonlar kelinglar s[illegible] bil[illegible]b o‘yinini o‘ynaymiz! Qani, bog‘chada olgan bili[illegible] ko‘raylikchi!

**Darsga qo‘ng‘iroq c[illegible] .**

**Boshlovchi:** Bolalar! Qo‘ng‘iroq bizni ona tili darsi[illegible]apti [illegible]na tilimiz Haqida she’rlar biladi.

**Bola:** Ona tilim dono tilim berar m[illegible]bilim
Ona tilim o‘tkir so‘zim senda [illegible]topdi[illegible]

**Bola:** Qayga borsam o‘tkir so‘zim oyga u[illegible]
Aqlim oshar baxtim toshar ona tilim, o[illegible]a til[illegible]

**Tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinadi .**

**Boshlovchi:** Bolajonlar tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinyapti . Tanaffus nimaligin[illegible] bilamizmi? Tanaffusda qo‘shiq aytish, raqsga tushish, o‘ynash mumkin .

**Bolalar “ Maktab nimani o‘rgatadi “ qo‘shig‘ini ijro etib beradilar .**
**So‘ng “ Matroslar “ raqsiga o‘yinga tushib beradilar .**

**Darsga qo‘ng‘iroq chalinadi .**

**Boshlovchi:** Navbatdagi darsimiz matematika. Misollarni eshiting!

NAMUNA

**1 Misol:** Qorga yiqildi Vali, uning ketidan Ali ,
Keyin yiqildi Jabbor, qorda qancha bola bor.(3ta).

**2 Misol:** Tushlikka quyonchaga tashrif buyurdi do‘sti.
To‘nkaga o‘tirvolib, sabzini mazza qilib,
Har biriga beshtadan, edilar qarsillatib
Kim bilar sanog‘ini, nechta eyilgan sabzi.(10ta).

**3 Misol:** Menda bordir besh pufak, birin berdim Nodirga.
Menda hammasi bo‘lib, nechta qoladi pufak? (4ta).

**Tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinadi .**

**Boshlovchi:** Bolajonlar taraffusga qo‘ng‘iroq chalindi. Hozir bizning qizlarimiz Chiroyli raqs ijro etib beradilar.

**“ Bog‘ ichida “ Raqsi .**

**Darsga qo‘ng‘iroq chalinadi.**

**Boshlovchi:** Qo‘ng‘iroq bizni aziz bolajonlar, fizkultura darsiga chorlayapti.

**“ Biz Alpomish o‘g‘lonlari “ qo‘shig‘i.**

**“Bayroqchalar bilan mashq “.**

**Tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinadi .**

**Boshlovchi:** Yana qizlarimiz ijrosida sho‘x raqslar tamosha qiling .

**“ Shabnam- Surayo “ raqsi .**

**Boshlovchi:** Bolajonlar yana sizlarni bilimlaringizni sinab ko‘ramiz!

Qor erib shoshar, ariqlar toshar.
Gullar ko‘p asl, bu qaysi fasl?

**Bolalar:** B A H O R !

**Boshlovchi:** Qizdirar quyosh , cho‘g‘dek yonar tosh.
Dalada hosil bu qaysi fasl ?

**Bolalar:** Yo Z !

**Boshlovchi:** Bo‘m-bo‘sh dala, qir, yog‘adi yomg‘ir.
Tinmay muttasil, bu qanday fasl ?

**Bolalar:** K U Z !

**[illegible]chi:** Erni qor qoplar, soyni muz yopar.
Ayoz behazil, bu qaysi fasl ?

[illegible] Q I Sh !

**[illegible]vchi:** [illegible]olajonlar, judayam bilimli, zukko, dono bolalar ekansizlar.

**[illegible]g‘i[illegible]ar ijrosida “Qari navo” raqsi.**

**Sho‘[illegible]a osti[illegible]vraga Bilmasvoy kirib keladi .**

**Bilmasvoy:** [illegible], bu[illegible]iyapti. Bunchayam odamlar ko‘p .

**Boshlovchi:** H[illegible]im[illegible]q , odob yo‘q , alik yo‘q 2ta sumkani ko‘tarvolib
qaerga[illegible]yap[illegible]

**Bilmasvoy:** Ey! Shuniya[illegible]maysi[illegible]tab[illegible] ketyapman maktabga !

**Boshlovchi:** Xo‘b yaxshi , ma[illegible]keta[illegible]nsan, sanashni , yozishni, o‘qishni
bilasanmi?

**Bilmasvoy:** Ey! Mani nima deyapsiz! Qoyill[illegible]

**Boshlovchi:** Bo‘lmasa seni bir sinaylikchi. 2Q2 n[illegible]adi.

**Bilmasvoy:** 3 bo‘ladi .

**Boshlovchi:** To‘g‘rimi bolalar!

**Bolalar:** Yo‘q, noto‘g‘ri 4 bo‘ladi .

**Boshlovchi:** 1Q1 qo‘shsak nechchi bo‘ladi .

**Bilmasvoy:** Be.....Shuniyam bilmaysizmi, 11 bo‘ladi . 11 tramvay borku 2 oyoq..

**Boshlovchi:** To‘g‘rimi bolalar !

**Bolalar:** Yo‘q, noto‘g‘ri 2 bo‘ladi .

NAMUNA

**Boshlovchi:** Ko‘rinib turibdi qoyillatishing. Matematikani bopladingiz. Endi o‘qish va yozishga o‘tamiz . Mana shu yotgan harflardan “ Vatan “ va “ Ona “

so‘zlarini tuzib yozib berchi .

**Bilmasvoy:** Mana , hozirda , zo‘r qilib man sizlarga yozib beraman .

**Bilmasvoy harflarni to‘g‘ri qo‘ya olmaydi.**

**Boshlovchi:** Bolalar to‘g‘rimi ?

**Bolalar:** Yo‘q, , noto‘g‘ri !

**Boshlovchi:** Qani_______________va ________________ to‘g‘ri qilib tuzib beringlarchi

Mana , Bilmasvoy bog‘chaga kelmaganingni oqibati mana shunaqa bo‘ladi .

Bog‘chaga doimiy qatnashganingda ko‘p narsalarni bilib olar eding.

**Bilmasvoy:** Bilmapmanda, bo‘lmasa har kuni kelar edim !

**Boshlovchi:** Bu 2 ta sumkani nima qilasan ? Qani bir ko‘raylikchi .

**Bilmasvoy:** 1 tasini kelayotib shaftolizor bog‘dan topib oldim. 2chisida o‘zingiz ko‘rib turganingizdek .

**Boshlovchi:** Ko‘rib turibman. Kolbasa , murabbo , pechene , qatiq , nonlar , bulochkalar

Nima qiladi buni ichida ? Kitob , daftarlaring esa ezg‘ilanib, buklanib ketibdiku !Ey... essiz daftar, kitoblar. Maktabga o‘qigani emas , qorin to‘yg‘izgani borasan shekilli – a !

**Bilmasvoy:** Bo‘lmasamchi , qorin och bo‘lsa miyaga dars kirarmidi !

**Boshlovchi:** Mana bu sumkang ochilmayaptiku !

**Bilmasvoy:** Buni bog‘dan topib oldim dedimku ... O‘zimam rosa urinib ocha olmadim .

Bunga kalit bo‘lmasa ocha olmaymiz !

**Musiqa ostida davraga katta oltin kalit ko‘targan Buratino kirib keladi .**

**Buratino:** Assalomu alaykum qadrli bolalar, aziz mehmonlar va ustozlar ! Bugun bayramlaringni eshitib sizlarni tabriklagani ertaklar olamidan keldim .

**Bilmasvoy:** Kalitni ber, bu yoqqa , ber deyapman , ber pismiq .

**Buratino:** Ey... Buni esi bormi o‘zi, qanaqa bolasan . Sen odobni bilasanmi . Tuyog‘ingni shiqqilat , bunaqa odobsiz bolaga hech narsa yo‘q !

**Bilmasvoy** [illegible]an dedimmi , berasan ! Bo‘lmasam seni maktabga borganingda [illegible]tvolib rosa boplayman. Bu erda hamma borligi uchun hovli[illegible]

**Bo**[illegible]a, to‘xta Bilmasvoy ! Sen o‘zing haqiqatan ham odobni bilmas [illegible]ansan [illegible]uratinodan kalitni iltimos qilib so‘rab ko‘rchi .

**Bilmasvoy:** M[illegible]urmatli Buratino , iltimos , kalitingizni [illegible]ga [illegible]ursangiz . Sumkamni ochib olaylik .

**Buratino:** Xo‘b [illegible], faq[illegible]ishmog‘im bor . Shuni topsang beraman .

**Bilmasvoy:** Topaman [illegible]

**Buratino:** Qat – qatgina qatla[illegible]nlama .

**Bilmasvoy:** Ey... bu qatlamaku !

**Buratino:** Ey... Shu darding ovqat [illegible]and[illegible]to‘[illegible]

**G‘Bilmasvoy bolalardan topishm**[illegible]**ing** [illegible]**so‘ra**[illegible]**oladi . G‘**

**Bilmasvoy:** Bu K I T O B .

**Buratino:** Ha ,Bilmasvoy ayyorlik qilib ,toptshmoq[illegible] so‘rab olding-a ! Ha shumtaka !

**Bilmasvoy:** Ha , Pismiq !

**Boshlovchi:** Qo‘yinglar bugun bayram , biz bilan mehmon bo‘lin[illegible]ra[illegible] urushish yaxshi emas .

**Buratino:** Ma , g‘irromchi kalitni ol !

**Bilmasvoy:** Ha pismiq ! Opke kalitni !

**G‘Kalitni Buratinodan olishib sumkani ochishadi . G‘**

**Boshlovchi:** Bolalar bu xat ekan . Bu xatda ertak qahramonlari , o‘rmon hayvonchalari Sizlarni bugungi bayram bilan tabriklashibdi . Sizlar Vatanimizni etuk farzandi bo‘lib etishishingizga tilak bildiribdilar . Bilmasvoy

NAMUNA

senga ham raxmat bu sumkani bizga olib kelganing uchun !

**Ommaviy raqs .**

**“ Kuylaymiz “ raqsi .**

**1 Bola:** Bog‘cham bo‘lsin deb shinam, tolmay elib yugurgan .
Sizga ta’zim qilamiz, rahmat mudira xolajon .

**2 Bola:** [illegible]‘stirdingiz bizlarni tarbiyachi opajon,
Har doim bo‘ling omon sizga ta’zim ehtirom !

**3** [illegible]larni o‘rgatgan, musiqa chalib doim.
[illegible]larni hursand etgan , raxmat musiqa opajon .

**4 Bola:** O[illegible]gan , charchash nima bilmagan .
[illegible]‘lgan , rahmat enaga xolajon .

**5 Bola:** [illegible] tashi[illegible]m bizga etkazgan .
Za[illegible]________ sizga ko‘pdan- ko‘p raxmat .

**6 Bola:** Xamisha [illegible]turdingiz .
Kasal bo[illegible]erdingiz .

**7 Bola:** Shirin ovqatla[illegible] , pa[illegible]lib [illegible]dan .
Shavla palov pishir[illegible]oshp[illegible]on .

**8 Bola:** Bog‘chamizni bog‘ qil[illegible] , k[illegible]sal[illegible]ib .
Doim gullar tutdingiz , xa[illegible]on

**9 Bola:** Quchog‘ingdan ketaman , ard[illegible]tama[illegible]
Seni eslayman har dam , makta[illegible]rida[illegible]

**Hamma:** Unutmaymiz hech qachon , hayr mehri[illegible]b[illegible]

**Qizlar “ Atirgul “ raqsini ijro etib beradilar .**

**“ Yagonamsan “ musiqa fonogrammasiga bayram ertal[illegible]lar[illegible]**

**Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini bog‘cha ma’muryati maqtov y[illegible]va Esdalik sovg‘alari bilan taqdirlaydi .**

**Bayram dasturi “ Ommaviy raqs “ bilan yakuniga etadi .**

NAMUNA

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

______________shahar (viloyat)

______________tuman “____________” nomli

...acha ta’lim tashkiloti

... gu...h tarbiyachisining

...uv yili uchun

## “Salom yo... da soz” mavzusida o‘t... tadbir

# SSENAR...SI

NAMUNA



## «Salom yoz-o‘tmoqda soz»
## sport bayram ertaligi

Musiqa ostida bolalar sport maydoniga kirib kelib, safga turadilar.

**«O‘zbekiston davlat madhiyasi» yangraydi**



**Boshlovchi:** Uyg‘onar cho‘qqilar ustida oftob,
Yam-yashil vodiyga sochib
oltin nur.
O‘zbeklar yurti bu navqiron, ozod,
Zaminda musaffo o‘lkasan mag‘rur.
Oqar daryolaring xaykirib oqsin,
[illegible]g‘lom avlodlaring barkamol o‘ssin.
[illegible]lik omonlik shioring bo‘lsin
[illegible]urting boy hamisha sog‘ omon bo‘lsin.

Qadrli[illegible] mana [illegible]‘chamizda «Salom Yoz–utmokda soz» nomli sport bayrami ertaligiga to‘p[illegible] turib[illegible]iz aytganidek sog‘lom va barkamol avlod bizning kelajagimizdir. H[illegible], b[illegible]g[illegible]shi uchun sport birinchi o‘ringa qo‘yilmokda. Hozir biz chiniqish, yugurish, [illegible]sh s[illegible]obaqalarini ochiq deb eьlon qilamiz.

**«SOG‘LOM AVLOD» AS[illegible] YaN[illegible]**




**Bola:** O‘lka[illegible]
Yo‘lla[illegible]am[illegible]
Yoshlik [illegible]yi i[illegible]
O‘lkamizga [illegible]

**Bola:** Salqin bog‘cha bo[illegible]ynay[illegible]
Do‘stlarimiz zavqi[illegible]quvna[illegible]
Tiniq suvda cho‘mila[illegible]iz ya[illegible]
Salqin bog‘cha bog‘larida [illegible]iz.



**Boshlovchi**: Bolalar, hozir qanaqa fasl?

**Bolalar**: Yoz!

**Boshlovchi**: Yozni qanaqa oylari bor?

**Bolalar**: Iyunь, iyulь, avgust !.

**Boshlovchi**: Judayam to‘g‘ri .

**O‘ZBEKCHA “RAQS” IJRO ETILADI.**

**Bola**: Qator-qator bo‘lishib, yuramiz ildam shahdam.
Kuchga, zavqqa to‘lishib, kuylaymiz yayrab har dam.

**Bola**: Bizning avlod yosh avlod, har bir ishga qodir mard.
Alpomishdek botiru ,barchinoydek sarv

NAMUNA

**Bola** : Avlodimiz xo‘p dono, yurt ishqida yonadur.
«Sog‘lom tanda sog‘ aql», degan bizning shior bor.

**Boshlovchi**: Bolajonlar qaranglar davramizga mehmon bo‘lib Yoz kirib kelyapti-ku!

(Musiqa ostida Yoz kirib keladi. Qo‘lida sariq gul)

**Yoz**: Salom aziz bolajonlar! Mana men o‘lkangizga tashrif buyurdim. Men sizlarga quyoshni, kamalagu rang barang gullarni, mevalaru, mazza qilib cho‘miladigan soniyalarni olib keldim. Yoz mobaynida sizlar o‘sasizlar, kuchlaringga kuch ko‘shiladi, chunki quyosh nurlari sizlarga huzur baxsh etadi. Suv xavzalaridagi suvlar sizlarni jonlantiradi. Sog‘lom kuchli va baquvvat qiladi. Iliq yoz shabbodasi esa sizlarni erkalaydi. Qani bolalar aytinglarchi Yoz shiori nima?

**Bolalar**: Quyosh, suv, toza havo-tanga beradi davo.

**Yoz:** Judayam to‘g‘ri bolajonlar. Bugun men sizlarga bog‘imdagi gullarimdan ola keldim. Bu gul oddiy emas sehrli. Uning yordami bilan biz sayohatga chiqamiz. Faqatgina sehrli so‘zlarni aytsak bas.

**«ATIRGUL» RAQSI IJRO ETILADI.**

**Yoz:** Kelinglar bo‘lmasa bolajonlar, sehrli so‘zni hammamiz birgalikda aytaylik.

**Hamma**: Gul, gul, gul!
Tilagimni
Bajo qil.

**Yoz:** Biz quvnoqlar davrasiga tushib qolaylik.

**SHE’R, QO‘SHIQ VA RAQSLAR IJRO ETILADI.**

**Yoz:** Bolajonlar kelinglar endi topishmoqlar mamlakatiga sayohat qilamiz.

**Hamma**: Gul, gul, gul!
Tilagimni
Bajo qil.

**Yoz**: U tushganda dala qir
Kuladi qiqir-qiqir (yomg‘ir).

Qo‘lsiz oyoksiz eshik ochar (shamol).

O‘yib oldim yuzi yuq (suv).

Ko‘zga ko‘rinmas qo‘lga ilinmas

Usiz xech joyda hayot ham bo‘lmas (havo).

***(bolalar topishmoq javoblarini o‘ylab aytib beradilar)***

**Yoz:** Qani bolalar sehrli so‘zimizni aytishda davom etamiz.

**Hamma**: Gul, gul, gul!
Tilagimni
Bajo qil.

**Yoz:** Biz Bilmasvoy huzurida bo‘lib qolaylik.

***(Bilmasvoy tomog‘i bog‘langan issiq kiyimlar kiygan holda chiqadi)***

**Bilmasvoy**: Assalomu alaykum aziz mehmonlar, xush kelibsizlar.

**Yoz**: Ha Bilmasvoy, senga nima bo‘ldi?

**Bilmasvoy**: Kasal bo‘lib tomog‘im og‘riyapti suvga tushishim bilan tomog‘im shishib istimam ko‘tarilib ketyapti.

**Yoz:** Ha juda yomon bo‘libdiku. Sen chiniqishing kerak. Sen noto‘g‘ri davolanayotgan bo‘lsang kerak.

**Bilmasvoy**: Davolanishmi ey qo‘ysangizchi dorilarni ko‘rgim yuq. Oq halatli doktorlarni ko‘rsam, oyoqlarim titrab, ko‘rqib ketaman.

**Yoz:** Qo‘rqma Bilmasvoy biz senga yordam beramiz. Hozir huzurimizga Doktor Voy jonimni chaqiramiz.

***(Yoz yonidan telefon olib doktorni chaqiradi)***

**Yoz:** Allo bu doktor Voyjonimmi.

**Doktor:** Ha to‘g‘ri terdingiz

**Yoz:** № nomerli bolalar bog‘chasiga yetib kelsangiz, bizda bitta kasal bor uning oti Bilmasvoy.

**Doktor:** Ho‘p hozir yetib boraman.

***(Signal musiqalari bilan Doktor Voyjonim kirib keladi )***

**Doktor Voyjonim:** Salom bolajonlarim, salom polalaponlarim.
Nima bo‘ldi sizlarga ,qora munchoq ko‘zlarga.
Xapdori, suv dori bilan, isitmani haydaymiz.
Ko‘ngillarni chog‘ etib, dillarimiz hushlaymiz.
Yutinolmay qolsangiz, tomog‘ingiz qizarib.
SHifobahsh o‘tlardan, berayin sizga malham.
Unda siz chayqasangiz, og‘zingiz bo‘shlig‘ini.
Hech narsa ko‘rmaganday, siz bo‘lursiz misli toy.

**Doktor Voyjonim**: Kim kasal bo‘lib qoldi, birpasda davolaymiz.

**Bilmasvoy**: Men… (bekinib oladi).

**Doktor voyjonim:** Sen mendan aslo qo‘rqmagin. Men seni qaynatmalar bilan davolayman, qo‘rqma ukol qilmayman.

Bugun, men sizlarni ayrim dorivor o‘simliklar bilan tanishtiraman. Sizlar uni ko‘rgansizlar va tanishsizlar.

(Rasmlarni ko‘rsatadi. Moychechak va Bargizubni).

Faqat nimaga foyda ekanligini bilmaysizlar. Eshitinglar ushbu o‘simlik haqida topishmoqlar aytaman.

Gullari qordek oppoq,Ko‘zi oltin gavhardir.
[illegible]Hamollash va grippga,Juda ham dorivordir.

(romashka, moychechak.)

**Bolalar**: Moych[illegible]k.

**Bilmasvoy**: [illegible] qachon ishonmayman, nahot shunday gullar odamni [illegible] ularni faqat hidlab zavq oladi der ekanman.

**[illegible] AQSI IJRO ETILADI.**

**Doktor**: [illegible]



Yo‘l[illegible]sar.
Bargla[illegible]
Gullari mayda[illegible]
Dorivordir bil[illegible]
Agar uni yaxsh[illegible]
Quritsang salqin[illegible]
Jonga xuzur bag‘is[illegible]

(po[illegible]uzu[illegible]

**Bolalar**: Bargizub.

**«BARGIZUBLAR» RAQSI IJRO [illegible]**

**Bilmasvoy**: Bu o‘simliklarni chaynasam kasalim tuzaladi[illegible]dokt[illegible]

**Doktor Voyjonim:** Yo‘q! Zinhor bazinhor chaynamang! Birinch[illegible]an, [illegible]larni quruq havoda quritish kerak. Moychechak gulini, [illegible]n va avgust oyigacha, terib quritish tafsiya etiladi. Bargizu[illegible] barglarini esa iyundan sentyabrgacha terib quritiladi. Ular[illegible] quruq havosi almashtirilgan, salqin honalarda quritiladi. Ular yaxshi quritilgandan so‘ng suvga solib qaynatma tayyorlanadi.

**Bilmasvoy**: Yo‘q, men bu qaynatmalar bilan tomog‘imni tuzata olmayman. Menga gugurt bilan gazning oldiga borish man etilgan. Gaz plitasini oldiga borgani o‘lgudek qurqaman. CHunki bir marta gugurt bilan hazillashganimda, portlab ketishimga oz qolgan.

**Doktor Voyjonim:** SHoshmay tur, bu narsa senga va bolalarga mumkin emas. Bu qaynatmani, faqat kattalar qiladi. Agar siz, bu o‘simliklarni terib berib yaqindan yordam bersangiz, kattalarga yordam bergan bo‘lasizlar. Bilmasvoy sen endi tomog‘ing tuzalguncha qaynatmalar bilan tomog‘ingni chayqab tur.

NAMUNA

**Bilmasvoy**: Rahmat. Endi tushundim.

**Doktor Voyjonim**: Bilmasvoy, endi sen ham biz bilan yur, bolalar bilan birgalikda chiniqasan.

**Hamma**: Gul, gul, gul!
Tilagimni
Bajo qil.
**SHunday qilginki biz o‘yinlar mamlakatida bo‘lib qolaylik.**

**BOLALAR O‘YIN O‘YNAYDILAR**
**«MUSHUK VA QUSHCHALAR»**

**O‘yin qoidasi:** Bolalardan mushuk tayinlanadi. Qolgan bolalar qushchalar bo‘ladi. Polga obruch qo‘ylib, unga don sepilgan bo‘ladi. Qushchalar don cho‘qiyapti, shovqindan mushuk uyg‘onib chumchuqlarni quvlab tutadi.

**O‘YIN «OVCHI VA QUYoNLAR»**

**O‘yin qoidasi**: Bolalardan 2ta ovchi tayinlanadi.Qolganlari quyonlar. Yalanglikda sakrashadi shunda birdan ovchilar ularni quvlashib ushlaydi. Qaysi quyonnni ovchilar ushlab olishsa shu quyon o‘yindan chiqadi.

**Yoz** : Gul gul, gul!

**Tilagimni**
Bajo qil.
Biz sportlandiya mamalakatida bo‘lib qol
BOLALAR ESTAFETA O‘YINLARINI O‘YNAYDI.

1. Baqalar (sakrash).
2. Kim suvni birinchi olib keladi. (qoshiqda paqirga suv tashish).
3. To‘pni bosh tepasidan uzatish.
4. Boshda to‘pni dumalatish.
5.

**Bilmasvoy**: Bolalar! Bilasizlarmi, men o‘zimni judayam yaxshi his qilyapman. CHunki men sizlar bilan yugurdim, sakradim, o‘ynadim, mazza qildim.

**Yoz:** Gul gul, gul!
Tilagimni
Bajo qil.
Endi biz, suv xavzasi basseynga tushib qolaylik.

(Hamma sho‘x musiqa ostida basseynga o‘tadilar).

**Boshlovchi:** Hozir biz bolalar, suv muolajalarini o‘tkazamiz.

1. Qo‘l bilan badanni xo‘llash.
2. Qo‘llar yonda suvga 3-4 o‘tirib turish.
3. 3-4 marta og‘izga xavo olib burunni qul bilan berkitib yuzni suvga tiqib og‘izdan havo chiqarish.

4. Suvda o‘yin: Bolalar qo‘llarini ushlaydilar.

Biz yuramiz ildam, o‘tiramiz xar dam.
Yana turib yuramiz,  yotamiz dam olamiz.

**Yoz**: Bolalar hammamiz mazza qildik-a!

**Bolalar:** Xa!

**Yoz:** Endi bolalar, artinib olamizda, fitobarga boramiz. Bizni fitobar kutmoqda. U yerda mazza qilib qaynatma o‘tlardan choylar ichamiz. Fitobarga marhamat!

SH[illegible] sho‘x musiqa ostida bolalar fitobarga yul oladilar. Bayram ertaligi shu bilan yakunl[illegible]







NAMUNA